



MEN ANGLAGAN
HAYOT

JEK LONDON



MEN ANGLAGAN
HAYOT

JEK LONDON


YANGI ASR AVLODI
TOSHKENT
2019

UO'K: 821.111(73)

KBK: 84(7Amer)

L - 75

London, Jek

Men anglagan hayot: esse va hikoyalar / Jek London.
– Toshkent: Yangi asr avlod, 2019. – 176 b.

ISBN 978-9943-27-956-8

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida yashab, ijod qilgan Jek London, asosan, Shimol haqida yozadi – uning xalqi, tabiat, jonivorlari hayotini shu qadar jonli va tiniq tasvirlaydiki, o'quvchi qor yoki suv kechayotgan qahramon yonida turib eti junjikadi. Mehnatsevarlik, qahramonlik, fidoyilik bilan bir qatorda sadoqat va muhabbat tuyg'ulari ham tarannum etiladi. Inson yashash uchun, to'g'rirog'i, yaxshi yashash uchun kurashishi kerakligi va bu har bir odamning bosh maqsadi bo'lishi lozimligi Jek Londonning barcha hikoyalarida o'z ak-sini topadi.

Ushbu kitobning yana bir qimmati shundaki, undagi hikoya va qissalarning aksariyati bugungi davr yosh tarjimonlari tomonidan o'zbek tiliga o'girilgan hamda ilk marta kitob holida chop etilmoqda.

UO'K: 821.111(73)

KBK: 84(7Amer)

SHIRAI SHAHAR
AXBOROT-KUTUBXONA
MARKAZI

INV № 2022/1-1059

ISBN 978-9943-27-956-8

© Jek London, «Men anglagan hayot». «Yangi asr avlod», 2019-yil.

ADABIYOTDAN HALOVAT TOPGAN IJODKOR

Asarlari boshqa tillarga eng ko‘p tarjima qilingan amerikalik yozuvchilardar biri bo‘lgan Jek London 1876-yilning 12-yanvarida San-Frantsiskoda tug‘ilgan. Bolaligi to‘kinlik va xursandchiliklar bilan o‘tmagan Jek London hayot uchun kurashni juda erta boshlagan. O‘zini turli kasblarda sinab ko‘rgan. Yo‘lini topolmagan Jek London universitetda o‘qib, bir sohani boshini tutmoqchi bo‘ladi, ammo bu ham unga omad keltirmaydi. O‘qishni tashlashga majbur bo‘ladi.

Ko‘rgan-kechirganlari assosida hikoyalarni yozib, 17 yoshida o‘zining adabiy faoliyatiga asos solgan. Qisqa vaqt mobaynida qator hikoyalari dunyo yuzini ko‘radi. Yozuvchi asarlarining aksariyatida bosh mavzu – Shimol. Uning tabiatni, odamlari, turmush tarzi, hatto hayvonlari tasvirida Jek London o‘zining hayotiy va kasbiy mahoratini namoyon etgan.

«Bo‘ri bolasi», «Izg‘irin bolalari», «Qor qizi», «Hayot uchquni», «Shimoliy Odisseya», «Insonga ishonch», «Qadim dengizchilardek», «Chandiqli odam», «Oltin dara» kabi sarguzasht asarlari o‘sha davr o‘quvchilari tomonidan iliq kutib olinadi. «Olis o‘lakada», «Ayol mardligi», «Gulxan yoqish», «Kish haqida qissa» asarlarida tabiat bilan uyg‘unlashib ket-

gan mehnatsevar xalq hayotini odilona tasvirlaydi. «Yovvoyi kuch», «Oqso'yloqtish» asarlari hayvonot olamidan hikoya qiladi. «Dengiz bo'risi», «Martin Iden», «Uch qalb» romanlari yozuvchiga juda katta shuhrat keltiradi.

Jek Londonning ijodida G.Spenser, F.Nitshe falfasifiy ta'limotlarining ta'siri seziladi. «Martin Iden» roman-biografiyasida bosh qahramonning paymonasi to'lgan chog'da ham «yashashga ishtiyoqi»ni aks ettirgan. Uning individualizm ta'sirida yozilgan mazkur romanida g'arbcha «barkamol inson» nazariyasi ham ilgari surilgan.

Jek London 16 yillik ijodiy faoliyati mobaynida 19 roman, 152 hikoya, 3 pyesa, 8 biografik va publicistsistik xarakterdagi kitoblar yaratgan.

Jek London birgina asar yozish bilan butun dunyoda shuhrat qozongan va katta mablag' ishlagan birinchi yozuvchilardandir.

Yozuvchi 1916-yilning 2 noyabrida vafot etgan.

Muharrirdan

BO‘RI O‘G‘LI
(Hikoya)

Erkak kishi o‘z vaqtida xotinining qadriga yetmaydi, uning qanchalik kerakligini yaxshi tushunmaydi, xotini dunyodan o‘tib, beva qolgandagina uning o‘rni qattiq bilinadi, shundagina xotinning qadrini tushunadi. Uning mehr taftini sezmaydi; lekin ana shu taft yo‘qolgach erkak hayotida bir bo‘shliq paydo bo‘ladiki, uning nimaligini bilolmay, nimadandir siqiladi, nimanidir qo‘msaydi. Shunda o‘zidan ko‘ra tajribasiz, no‘noq bo‘lgan jo‘ralari unga shubha bilan qarab, bosh chayqaydilar va turli-tuman kuchli dorilarni tiqishtira boshlaydilar.

Bordi-yu, Yukonda yashaydigan inson hayotida shunga o‘xshash voqeа sodir bo‘lsa, agar ushbu hodisa yozda yuz bersa, u odatda qayiqni hozirlaydi, qishda esa chanaga qo‘shilgan itlarni qo‘shib janub tomonga yeladi. Oradan bir necha oy o‘tgach esa agarda o‘zi Shimolni qo‘msab, sog‘inib qolguday bo‘lsa, eri bilan ana shu sovuq o‘lkaga muhabbatini, barcha mashaqqat-u qiyinchiliklarni birgalikda baham ko‘rishga tayyor rafiqasi bilan qaytib keladi. Ana sizga erkakning tug‘ma xudbinligiga yana bir misol! Shunda Skruf Makkenzi hayotida yuz bergen voqeа beixtiyor hali Klondayk

oltin vasvasasini hamda che-cha-kuas bosqinini ko'rmagan va faqat losos balig'i bilan shuhrat qozongan o'sha olis davrlarni yodga soladi.

Bir qarashda Skruf Makkenzi qiyofasida bu yerlarni zabit etgan birinchi odamni ko'rish mumkin edi. Tabiatning shafqatsiz kuchlari bilan uzlucksiz davom etgan yigirma besh yillik kurash uning yuziga o'z tamg'asini bosgan edi.

Qutb doirasining ko'lankasi ostida oltin izlab topish ilinjida o'tkazgan ikki yili juda og'ir kechdi. Yurakni zirqiratib yuboradigan bo'shliq tuyg'usi Skruf vujudini egallab olganida, bundan ajablanmadi, negaki u ko'pni ko'rgan odam bo'lib, o'z hayotida shunday og'ir dardni boshdan kechirgan odamlarni ko'rgan edi. Lekin Makkenzi o'zida hech qanday xastalik alomatlarini sezmadni, faqat yanada g'ayrat bilan ishlayverdi. Butun yozni chivinlar bilan kurashib, boyib ketarman, degan xayolda Styuart daryosi etaklarida qum yuvib o'tkazdi. So'ngra katta-katta yog'ochlardan sol yasadi-da, Yukonga tushib, Qirqinchi milgacha suzib bordi va o'ziga yaxshigina kulba qurib oldi. Kulba shunday mustahkam va bejirim chiqdiki, uni Skruf bilan bo'lishmoqchi bo'lganlar ham ancha-muncha topildi. Biroq Makkenzi cho'rtkesarlik bilan dangal javob qaytarib, ularning umidlari ni puchga chiqardi va shu yaqindagi savdo-sotiq do'konidan ikki hissa oziq-ovqat sotib oldi.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, Makkenzi ko'pni ko'rgan odam edi. U, odatda, ko'ngli biror narsani xohlab qolsa, shunga erishmaguncha tinchimas, imkon qadar ahdida mahkam turib, ko'zlagan maqsadidan qaytmas edi. Makkenzi og'ir mehnat-u qiyinchiliklarga o'rganib ketgan, ammo

it qo'shilgan chanalarda olti yuz mil yo'l bosish, so'ngra ikki mil masofani okeanda suzib o'tish, yana o'zi ilgari yashagan joygacha rosa ming mil yurish – bularning barini faqat o'ziga rafiqqa izlash uchungina bajarish kerakligini o'ylasa hafsalasi pir bo'lar edi.

U serg'ayrat, uncha-muncha yo'lni pisand qilmasdi, tozi itlari bo'lsa, Yukondagi boshqa itlarga qaraganda ozgina yemak bersang bo'ldi, dunyoning nariqi chekkasiga bo'lsa ham ketaverardi. Uch haftadan so'ng u Tanananing yuqori irmog'idiagi qismiga – Stiks qabilasi qo'nalg'asi-ga keldi. Butun qabila Makkenzini ko'rib, uning jur'atidan hayron qoldi; sababi, stikslar oq tanlilarni o'tkir bolta yo yaroqsiz miltiq qo'ndog'i bilan o'ldirib, ularga o'z munosabatlarini bildirib qo'ygan edi. Tag'in Makkenzi bu yerga yolg'iz kelibdi-ya. Uning yurish-turishi, o'zini erkin tutishi,sovuuqqonlik va hattoki surbetlik bilan qarab turishi – hammasi bir bo'lib, Makkenzining kimligini namoyon etib turardi. Bu turli vositalardan unumli foydalanish uchun yovvoyi odam ruhiyatini anglab yetish va mahorat talab etilar-di; Makkenzi bunday ishlarda pixini yorgan edi: qachon murosa qilish va qachon kuch ishlatib, vaziyatni qanday qo'lga olishni bilardi. Avvalo ishni mulozamat qilishdan boshladi: qabila sardori Tiling-Tinnexga o'z ehtiromini bildirdi, bir necha funt qora choy, tamaki bilan sardorning xayrixohligiga erishdi. So'ng esa qabila yigit-qizlari bilan tanishdi. Shu oqshom ularga ziyofat berdi. Qorda uzunligi, chamasi yuz fut, eni esa yigirma besh fut keladigan cho'ziq maydoncha tashkil etildi. Maydoncha o'rtasiga gulxan yoqildi,

ikkala tomonga qoraqarag'ay butoqlari to'shaldi. Butun qabila chodirlardan gala-gala bo'lib chiqib keldi va kamida yuz nafar mehmon sharafiga hindular qo'shig'ini aytdilar.

Makkenzi shu ikki yil ichida hindular tilini o'rgandi, shuningdek, ularning bo'g'zida talaffuz etadigan chuqur tovushlari, yapon tiliga o'xshash ilmoqli iboralari-yu, hurmatni bildiruvchi so'zlarini qunt bilan yodlab oldi. Endi u xuddi ibtidoiy usulda she'r o'qigan kabi o'zini erkin qo'yib, hinducha nutq irod etdi. Tiling-Tinnex va shomon ham unga iliq muomalada bo'ldi. Makkenzi boshqalarga ham unga shunday munosabatda bo'lislari uchun qabila erkaklariga arzimagan sovg'alardan ularashdi, ular bilan birga qo'shiq kuyladi va hindularning «Ellik ikki tayoq» qimor o'yinida mohir o'yinchi sifatida o'zini yana bir bor namoyish qildi.

Shunday qilib, hindular Makkenzining tamakisidan chekib, rohatlandi. Biroq uning qabilada qozongan obro'-e'tibori yigitlarga yoqmayotgan edi – qizlar qiqir-qiqir kular, tishsiz kampirlar nimalargadir ishora qilardi. Ular ko'p bo'lmasalar-da, uncha-muncha oq tanlilarni – Bo'ri o'g'ilalarini o'zlariga ba'zi saboqlarni berib qo'yishganni yaxshi bilardilar.

Makkenzi o'zini bee'tibor tutsa-da, buni juda teran uqdi. U tunda qopko'rpa ichiga kirib yotganicha, barini ipidan-ignasigacha o'ylab, reja tuzib chiqdi, buning uchun trubkasida oz muncha tamaki chekmadi. Qabiladagi qizlar ichida uning e'tiborini tortgani qabila sardorining qizi – Zarinika edi. Qiz boshqalardan keskin ajralib turar, yuz tuzilishi, kelishgan qaddi-qomati, barnoligi bilan oq tanli odamning go'zallik haqidagi tushuncha-

lariga mos kelar edi. Makkenzi Zarinkani xotin qilib oladi va otini Gertruda qo'yadi. Shunday qarorga kelgan Makkenzi o'zini Samsondek¹ kuchli his qildi-da, yonboshiga o'girilib, uyquga ketdi.

Bu mashaqqatli ish edi, uning bu rejasи vaqt va sa'y-harakatni talab etardi. Makkenzi hiyla bilan ish ko'rdi, u o'zini loqayd, beparvo tutar va bu bilan qabiladagilarni chalg'itar edi. U qabiladagi-larga o'zini mohir mergan va usta ovchi ekanini ko'rsatib, ularni hayratda qoldirishga kirishdi; olti yuz yardli masofadan los²ni o'dirib, ularning maqtovlariga sazovor bo'ldi. Kunlarning birida, oqshom chog'i, u qabila sardori Tiling-Tinnexning los va bug'u terisidan tikilgan chodiriga tashrif buyurdi, unga xushomad qildi, sardorni tamaki bilan siyladi. Makkenzi yana fursatni boy bermay, qabilada katta obro'ga ega bo'lgan shomon-ga ham xuddi sardor kabi iltifotda bo'ldi. Biroq ko'rsatilgan iltifotdan g'azabini arang bosgan shomonni hech ikkilanmasdan bo'lg'usi raqiblari safiga qo'shib qo'ydi.

Makkenzining Zarinka bilan bevosita suhbatlashish imkonи bo'lmasa-da, qizga imo-ishoralar bilan o'z niyatini bayon etdi. Qiz ham uning maqsadini juda yaxshi tushungan, ammo har safar noz-karashma bilan atrofiga bir to'da xotin-xalajni to'plab olar, bu payt erkaklar yiroqda bo'lar, shunda Skruf Zarinkaning oldiga borishiga imkon tug'ilardi. Lekin Makkenzi shoshilmasdi, sababi, Zarinka o'zi bilmagan holda yigit haqida o'ylay boshlashini va vaqt kelib, bu o'ziga yordam berishini bilardi.

¹ Samson – «Bibliya»dagi favqulodda kuchli qahramon.

² Los – bug'ular oilasiga mansub butoq shoxli hayvon.

Nihoyat, bir oqshom Makkenzi kutilgan vaqt kelganini tushunib, to'satdan sardorning tutunlar buruqsigan chodiridan chiqdi-da, qo'shni chodirga yo'l oldi. Zarinka, odatdagidek, ayollar va yosh qizlar qurshovida ko'ylakka munchoq qadab o'tirar edi. Ular Makkenzini ko'rib, kulib yubordilar, Zarinkaga hazil aralash kinoya qila boshladilar. Lekin Makkenzi takalluf qilib o'tirmasdan ularni birin-ke-tin chodirdan to'g'ri qorga uloqtirdi, ayollar bo'lib o'tgan voqeadan boshqalarni boxabar etish uchun atrofga yugurib ketdilar.

Makkenzi qanday maqsad uni bu yerga yetaklab kelganini bag'oyat ishonarli qilib, Zarinkaning ona tilida (uning tilini qiz tushunmasdi) bayon etdi va oradan ikki soat o'tgach, ketishga chog'landi.

– Zarinka oq tanli odam chodiriga yashashga boradi, shundaymi? Yaxshi! Men hozir borib otang bilan gaplashaman. Balki u qarshilik qilar. Men otangga ko'p sovg'a-salom beraman, lekin u ko'p narsa talab qilmasa kerak. Bordi-yu, u rad etsa-chi? O'zing gaplashib ko'rasanmi? Zarinka baribir oq tanli odamning chodiriga ketadi.

Makkenzi eshik vazifasini o'tovchi teri pardani ko'targan ham ediki, qizning past ovozda aytgan gapini eshitib, ortga qaytishga majbur bo'ldi. Zarinka ayiq terisidan to'shalgan yerga tiz cho'kdi, uning yuzidan bokira qizlariniki kabi nur taralar-di. Zarinka tizzalagancha, Makkenzining katta ovchilar pichog'i osilgan belbog'ini ohista yechdi. Makkenzi nima gapligini tushunolmay, qizga tajjub bilan qarar ekan, tiq etgan tovushga qulog'i ding edi. Ammo bir ozdan so'ng u Zarinkaning maqsadini tushundi; shubhalari tarqab, mam-nun kuldii. Zarinka o'zi tikkan narsalari saqla-

nadigan xaltadan los terisi qoplangan, jilolanib turgan, munchoqlar bilan bezalgan qinni oldi. Qiz boshmaldog'ini pichoqning o'tkir tig'idan ehtiyotkorlik bilan yurgizdi-da, uni o'zi taqdim etayotgan yangi qinga soldi. So'ngra qinli pichoqni belbog'iga taqib, o'z joyi – belining chap yoniga surib qo'ydi.

Qarang-a, bu manzara qadim zamonilardagi sahnani eslatmaydimi: xonim va uning bahodiri. Makkenzi qizni o'rnidan turg'izdi va mo'ylovli lablarini uning aqiq lablariga tekkizdi – bu qiz uchun notanish, begona erkalash edi. Tosh asri po'lat asri bilan shu tariqa uchrashdi.

Skruf Makkenzi qo'ltig'ida kattakon tugun bilan yana Tiling-Tinnex ostonasida paydo bo'lganda, atrofda uning kayfiyati kabi g'ayrioddiy jonlanish sezilardi. Bolalar yelib-yugurib qo'nalg'alariga zi-yofat uchun quruq o'tin, shox-shabbalar tashir, ayollarning vag'ir-vug'uri avjiga minar, tumshaygan yigitlar to'p bo'lib olganlaricha nimanidir gaplashar, shomon uyidan vahimali afsun sadolari eshitilar edi.

Sardor ko'zları yig'idan qizargan xotini bilan yolg'iz o'tirardi. Makkenzi ular yangilikdan allaqachon xabar topganliklarini darhol tushundi. Zarinkaning rozi bo'lganini isbotlovchi munchoqli qinni ko'zga ko'rindigan joyga surib qo'ydi va dedi:

– Ey, stikslar qabilasi, los, bug'u, ayiq, kiyik va Tanananing ulug' hukmdori bo'lgan Tiling-Tinnex! Oq tanli odamni huzuringga buyuk maqsad yetaklab keldi. Ko'p oylardan buyon uning uyi bo'm-bo'sh va u juda yolg'iz edi; bu yolg'izlik uni xarob qildi, uning ayolga bo'lgan ehtiyoji kuchaydi – ayol uning uyida birga o'tirsin, ovdan qaytganda kutib olsin, o'choqqa olov yoqib, taom

pishirsin. Oq tanli odamning ko'ziga g'alati narsalar ko'rindi. Bir kuni oqshom uning ko'z o'ngida arvoх ko'rindi, qulog'iga mokasinlarning tap-tupi va bolalar qiy-chuvi eshitildi. Arvoх Qarg'a – sening ajdoding, ulug' Qarg'a, stikslar qabilasining sardori paydo bo'lib, unga so'zlay boshladi: «Oyog'ingga mokasin kiyib ol, chang'ingni taq, chanangga ko'p kunlik safar uchun yeguliklar, Tiling-Tinnexga atalgan qimmatbaho sovg'a-salomlarni joyla, chunki sen bahor quyoshi charaqlagan zamin ortida yashiringan tomonga yuzingni qaratishing, ulug' Tiling-Tinnex sari yo'l olishing zarur. Sen u yoqqa qimmatbaho sovg'a-salomlar olib borasan, keyin mening o'g'lim Tiling-Tinnex senga ota bo'la-di. Uning chodirida bir qiz bor, men sen uchun bu qizga hayot nafasini baxshida etdim. Sen bu qizni xotin qilib olasan». O, sardor, ulug' Qarg'a menga shunday dedi. Men shuning uchun ham ana shu hadyalarni oyoqlaring ostiga keltirib to'kyapman. Ana shuning uchun ham men sening qizingni xotin qilib olgani keldim.

Keksa sardor qiollardek savlat bilan mo'ynali libosiga o'ralib oldi, ammo javob berishga shoshilmadi. Xuddi shu payt bir bolakay kirib keldi va sardorni qabila kengashida kutayotganlarini aytib, qanday kelgan bo'lsa, shunday g'oyib bo'ldi.

– O, biz loslar kushandasи deb atagan, yana Bo'ri va Bo'ri o'g'li degan nom bilan ma'lum-u mashhur Oq Tanli odam! Sen bizning buyuk qavmimizdan ekaningni bilamiz; mehmonimiz bo'lganiningdan g'ururlanamiz. Keta¹ lososga juft emas. Shu bois Bo'ri ham Qarg'aga juft bo'la olmaydi.

¹ Keta – baliq turi.

– Noto‘g‘ri! – xitob qildi Makkenzi. – Men Qar-g‘anining qizlarini Bo‘ri lagerlarida – Mortemir, Trejidgo, Bernebilar bilan uchratdim, ularning uylariga skvo¹ ikki marta muz ko‘chishidan ilgari kirib kelgan. Men garchand o‘z ko‘zim bilan ko‘rmagan bo‘lsam-da, boshqa shunday voqealarni eshitganim bor.

– O‘g‘lim, aytganlaring rost, lekin ular yaxshi juft bo‘la olmaydilar, go‘yo qum bilan suvning, qor parchasi bilan quyoshning juft bo‘lmagani singari. Sen Meyson ismli odam bilan uning skvosini bilasanmi, yo‘qmi? U barcha Bo‘rilardan birinchi bo‘lib, o‘n marta muz ko‘chishidan ilgari kelgan. Tol daraxtidek uzun bo‘yli, grizli ayig‘i kabi bahaybat, kuchli, jasur bir yigit ham u bilan birga edi.

– Bu axir Meylmyut Kid-ku! – Makkenzi Shimolga dong‘i ketgan shaxsni eslab sardorning gapini bo‘ldi.

– Ha, bu o‘sha pahlavon. Sen biror marta uning skvosini ko‘rganmiding? U Zarinkanining tug‘ishgan opasi bo‘ladi.

– Yo‘q, sardor, men uni ko‘rmaganman, lekin eshitganman. Olis Shimolda yuz yillik qarag‘ay qarib, qulagan va Meyson shuning ostida qolib o‘lgan. Meyson xotinini juda sevardi, keyin uning oltini ham ko‘p bo‘lgan. Ayol oltinni, eridan yodgorlik bo‘lib qolgan o‘g‘lini olib, uzoq yo‘lga ravona bo‘lgan, yo‘l yurib, yo‘l yursa ham mo‘l yurib, qishda ham quyosh charaqlab turgan mammakatga kelib qolgan... U hozir ham o‘sha yerda yasharmish. U tomonlarda qahraton sovuqlar bo‘lmasmish, qor ham yo‘q emish, yozda yarim kechasi quyosh nur sochmasmish, qishda esa qi-

¹ Skvo – Shimoliy Amerika hindulari tilida: ayol.

yom vaqt qorong'i ham tushmasmish.

Xuddi shunda ikkinchi chopar sardorni kengashga chaqirib, ularning gapini bo'ldi. Makkenzi uni qorga uloqtirarkan, gulxan atrofida lipilayotgan odamlar ko'lankalarini ilg'adi, aftidan, bu yerda qabila kengashi bo'lyapti shekilli, bir maromda ohista kuylagan erkaklar ovozlarini eshitdi va shomon qabila kishilarining g'azabini qo'zg'ayotganini bildi. U sardorga yuzlandi:

– Gapimga qulq sol, senga yomonligim yo'q. Men sening qizingni xotinlikka olmoqchiman. Qara, mana tamaki, mana choy, katta va yaxshi jun ko'rpa, manavi esa haqiqiy miltiq, yana unga ko'p patron va ko'p o'q-dori ham qo'shdim.

– Yo'q, – rad qildi sardor, qarshisida yoyilgan katta boylikka e'tibor bermaslikka tirishib. – Hozir butun qabila bu nikohni to'xtatish uchun yig'ilib o'tiribdi.

– Sen axir ularning sardorisan-ku!

– To'g'ri, biroq yigitlarimiz qattiq g'azabda, sababi bo'rilan ularning qalliqlarini tortib olishyapti.

– Qulq sol, Tiling-Tinnex! Bo'ri ana shu tun o'tib, kunga aylanishi bilan itlarini Sharqiy tog'lar tomon, olis Yukon tomon haydaydi. Zarinka ham u bilan ketadi.

– Balki mana shu tun yarimlamasdanoq mening yigitlarim Bo'rining go'shtini itlarga tashlar va uning suyagi bahor quyoshi ko'ringuniga qadar qor ostida yotar.

Bu po'pisaga po'pisa bilan javob berish edi. U ovozini balandlatdi. Shu vaqtgacha ularni jimgina kuzatib o'tirgan sardorning keksa xotini eshikni to'sib turgan Makkenzining orqasidan o'tib, chiqib ketmoqchi bo'ldi. Shu payt tashqarida eshi-

tilayotgan ashula ovozlari tindi; o'rniga har xil ovozlarning shovqini eshitildi. Makkenzi kampirni qo'pollik bilan teri o'rindiqqa uloqtirib yubordi.

– Sendan yana bir marta so'rayapman, Tiling-Tinnex! Bo'ri jag'larini yumib o'larkan, u bilan birga qabilangning naq o'nta zabardast yigit ham abadiy uyquga ketadi, erkaklar kerak-ku, axir ov endigina boshlanyapti, yana baliq ovigacha uncha ko'p vaqt qolgan emas. Ayt-chi, mening o'limimdan senga nima naf? Elingning urf-odatlarini bilaman: senga mening boyliklarimning ozginasi tegadi. Menga qizingni bersang, butun boylik faqat seniki bo'ladi. Senga yana bir narsani aytay: bu yoqqa mening birodarlarim keladilar. Ularni sanab, sanog'iga yetib bo'lmaydi, ular yeb to'ymaydilar, keyin Qarg'aning qizlari Bo'rilar makonida bolalar tug'adilar. Mening qabilam senikidan kuchli. Buni taqdiri azal deydilar. Menga qizingni ber, bularning bari seniki bo'ladi.

Tashqarida mokasinlar qorda g'irchilladi. Makkenzi miltig'ini azot ko'tardi va belbog'idagi ikkala revolveri g'ilofini yechdi.

– Hoy, Tiling-Tinnex, qizingni menga ber!

– Qabilam bunga ko'nmaydi.

– Ber, shunda mana bu boyliklar seniki bo'ladi. Qabilang bilan esa o'zim gaplashaman.

– Bo'ri xohlaganidek bo'la qolsin. Hadyalaringni, mayli, olaman, biroq men seni ogohlantirdim-a.

Makkenzi unga sovg'a-salomlarni berdi, hatto miltiq tepkisini tushirib qo'yishni ham unutmadi, yana ko'zni oladigan guldor ro'molni ham qo'shib berdi.

– Narsalaringni yig'ishtirl – u tabriklash o'rniga qisqa buyruq berdi Zarinkanining chodiri yonidan

o'ta turib, so'ng itlarini chanaga shosha-pisha qo'sha boshladi.

Oradan bir necha daqiqa o'tib, u chanasini yetaklab, qabila kengashida paydo boldi; Zarinka Makkenzi bilan yonma-yon keldi. Makkenzi tepkilab tashlangan maydonchaning yuqori etagidan, sardorning yonidan joy egalladi. Zarinkaga o'zining chap tomonidan, bir qadam orqadan joy ko'rsatdi. Bilib bo'ladimi, biror ko'ngilsizlik yuz beradigan bo'lsa, kimdir seni orqa tomon dan pana qilib turishi kerak-ku. O'ng va so'ldan erkaklar gulxan tomon egildilar, ularning ovoz lari qadimiy, deyarli unut bo'layozgan qo'shiqqa qo'shilib, birlashdi. Buni ko'ngilga borib tegadi gan zo'r qo'shiq deb bo'lmasdi – qo'shiq g'alati, kutilmaganda o'zgarib qolar, birdan jo'rsiz, yakka ijro joylarida to'xtab, yana g'ashga tegib takror lanaverardi. To'g'rirog'i, bu qo'shiq kishini vahimaga solar edi. Maydoncha pastida shomon oldida turgan o'nlab ayol chir aylangancha raqsga tushardi. Kimda-kim marosimni sidqidildan ijro etmasa, shomon o'sha odamga qattiq dashnom berardi. Huddi qarg'a qanotiga o'xshab, qop-qora sochlari qoq beligacha yoyilib tushgan xotin lar asta orqaga va oldinga chayqalar, ularning qomatlari to'xtovsiz o'zgarib turgan ohangga mos egilib-bukilardi.

Bu zamonga aslo muvofiq kelmaydigan g'alati manzara edi. O'n to'qqizinchi asr poyoniga yet moqda, uning so'nggi o'n yilliklari ham o'zining oxirgi yillarini kechirmoqda edi, qarang, bu yerda esa ibtidoiy odam, tarixga dovr g'orda istiqomat qilayotgan, ko'lankasi olis o'tmishning xotiradan ko'tarilgan parchasi gullab-yashnamoqda. Kat-

ta-katta malla itlar hayvon terisidan libos kiygan egalari bilan yonma-yon o'tirar, qon to'la ko'zлari, nam so'yloq tishlari gulxan yog'dusida yiltillar edi. Xira qor ko'rpasiga o'rangan quyuq o'rmon sodir bo'layotgan voqealarga parvo ham qilmay, dong qotib uxlар edi. Qo'nalg'ani qurshab olgan oppoq sukunat go'yo yana qaytadan borliqni zabit etishga tayyorgarlik ko'rayotganga o'xshardi; yulduzlar xuddi Buyuk Qahraton zamonidagidek titradilar va ko'kda raqs tushdilar, shunda Qutb Ruhlari butun ufqqa o'zining yog'du sochuvchi olovli libosini yoyib oldilar.

Skruf Makkenzi ana shu manzaraning yovvoyi ulug'vorligidan lol qoldi. Bular orasida kim yo'q ekan, deya qaldirg'ochday tizilishib turgan mo'yna libosli odamlarni ko'z qiri bilan kuzatdi. Shunda uning ko'zлari onasining ochiq ko'kragini osoyishta emayotgan chaqaloqqa tushdi. Harorat qirq darajadan ham past edi. Makkenzi beixtiyor o'z xalqining nozik ayollarini esladi va miyig'ida istehzoli kulib qo'ydi. Ana shunday nozik ayollar dan dunyoga kelgan, o'zi hamda elatdoshlariga jami quruqliklar-u dengiz, barcha o'lkalar zaminidagi jonivorlar hamda insonlar ustidan hukmron bo'lish huquqi in'om etildi. U Arktika qishining qa'rida qadrdon yerlardan olisda ana shu in'om etilgan meros xitobini – hukmronlik qilish istak-irodasi, xavf-xatar, tahlikaga telbalaracha hirs qo'yish, jang ehtirosi, yo g'alaba qozonish, yo halok bo'lish ahdi-qarorini his etdi.

Qo'shiq ham, raqs ham poyoniga yetdi, shunda shomon shiddat bilan nutq irod etdi. Shomon ustalik bilan hindularning timsollarga boy asotir-u afsonalaridan tushunib bo'lmas, chalkash misol-

lar keltirib, ishonuvchan, soddadil tinglovchilarni avray boshladi. U kuchli va ishonchli dalillar bilan so'zлади. Tinchlik va bunyodkorlik timsoli bo'lmish Qarg'aga – tajovuzkorlik va buzg'unchilik timsoli bo'lmish Bo'ri – Makkenzini qarshi qo'ydi.

– Stikslar qabilasi – Jelksning, Prometey olovi-ni olib kelgan Qarg'aning naslidandir; Makkenzi esa – Bo'ri, boshqacha aytganda, iblisning o'g'li. Bu ikki kuchning azaliy urushini to'xtatishga urinish, ashaddiy g'animimizga qabilamiz qizlarini xotinlikka berish – demakki, o'taketgan xoinlik, kufrdir. Eng achchiq so'zlar, eng qabih haqorat-lar ham Makkenziga – zaharli ilon, ishonchimizga makkorlik bilan biqinib kirib olishga urinayotgan iblis elchisiga juda muloyimlik qiladi.

Shunda uning so'zlarini tinglab turgan odamlar g'ovur-g'uvur qildilar, dag'dag'a bilan shov-qin soldilar, shomon esa nutqida davom etdi:

– Birodarlarim, Jelks har ishga qodir, qudrat-lidir! Axir u emasmi isinishimiz uchun ilohiy olovni olib kelgan? Axir u emasmi biz ko'rishimiz uchun quyosh, oy va yulduzlarni osmondagi inlaridan chiqarib qo'ygan? Axir u emasmi bizni ochlik va sovuqlik ruhlari bilan kurashishga o'rgatgan? Ho-zir esa Jelks bolalaridan xafa bo'ldi, g'azabi keldi – uning qabilasidan bir siqim qoldi, shuning uchun ham Jelks ularga yordam bera olmaydi. Negaki ular Jelksni unutganlar, negaki ular noma'qlil ish qilmoqdalar va chatoq yo'llardan yurmoqdalar, o'z chodirlariga g'animilarini kiritmoqdalar va gulxanlari atrofida o'tqazmoqdalar. Axir Qar-g'a bundan keyin ham o'z bolalarining badxulqligidan ozor chekmasinmi, qayg'urmasinmi? Biroq uning bolalari qilgan qilmishlarini tushunib yetib,

Jelks sari qaytib kelsalar, shunda u zulmatdan chiqib, ularga yordam beradi. Ey mening qondoshlarim! Olov olib keluvchi o‘z xohish-irodasi dan shomonni boxabar etdi, endi sizlar ham bu xabarga quloq tutinglar. Yigitlar qizlarni o‘z chodirlariga olib kirsinlar, o‘zlari esa Bo‘riga hamla qilsinlar, toki ularning nafratlari sira so‘nmasin! Shundagina xotinlarimiz bola tug‘adilar, shunda Qarg‘a elati ko‘payadi va qudratli bo‘ladi! Shunda Qarg‘a ota-bobolarining buyuk qabilalarini Shimoldan olib chiqadi, shunda ular Bo‘rilar bilan kurashadi va ularni kunpayakun qiladi, bulturgi gulxan kuliga aylantiradi, o‘zlari esa yana butun mamlakatga hukmdor bo‘ladi. Jelks, Qarg‘a men ga shunday dedi!

Stikslar yaqin kelajakda yuz berajak xaloskorlik haqidagi xabarni eshitgach, guvillab o‘rinlari dan turib ketdilar. Makkenzi endi nima bo‘larkin, deya kutdi. Shunda atrofni «Tulki, tulki!» – degan hayqiriqlar tutdi. Hayqiriqlar tobora ko‘kka ko‘tarildi; nihoyat yosh ovchilardan biri oldinga chiqib, dedi:

– Birodarlar! Shomon dono gaplarni aytdi. Bo‘rilar naslimizni davom ettirishi kerak bo‘lgan qizlarimizni olib ketyapti, qavmimiz esa kamayib boryapti. Oramizga Bo‘rilar bostirib kelib, issiq mo‘yna po‘sitinlarimizni tortib olishayapti, o‘rniga shishadagi yovuz ruhlarni, qunduz yo silovsin terisidan emas, o‘tdan tikilgan kiyimlarni tashlab ketishyapti. Albatta, bu kiyimlar issiq bermaydi, keyin odamlarimiz tushunarsiz dardlardan qirilib ketishyapti. Mana, men – Tulkinining xotini yo‘q. Nega deysizmi? Men ikki marta qiz yoqtirdim. Menga yoqqan qizlar ikki martasida ham

Bo'rining qo'nog'iga ketib qoldi. Men zora Zalinkani berarmikan, zora Tiling-Tinnex e'tiboriga tusharmikinman, deb qunduz, los, bug'u terisini olib qo'ygandim. Mana, hozir Zarinka Bo'ri bilan ketishga tayyor, uning itlarini yo'lga chorlashga hozirlik ko'ryapti. Men faqat o'zimni gapirmayapman. Ayiq ham xuddi men hozir aytgan gaplarni aytishi mumkin. U ham Zarinka tug'ajak bolalarning otasi bo'lishni istaydi, u ham xuddi menday Tiling-Tinnexga beraman deb oz muncha terilarni asrab qo'ydimi. Men bu gaplarni hamma bo'ydoq ovchi yigitlar nomidan gapiryapman. Bo'rilar hech qachon to'ymagan. Ular hamisha och. Ular doim yog'li-yog'lilarini saylab oladi. Biz bechora Qarg'alarga esa yeb bo'lmaydigan sarqitlar qoladi.

– Mana, qarang, manavi Guklani! – Tulki andisha qilib o'tirmay ayollardan biriga qo'lini niqtadi; o'sha xotin oqsoq edi. – Qarang, Guklaning oyoqlarini, xuddi qayiqning yoni, bo'ksasi qing'irqiyshiq. Gukla, ko'rib turibsiz, o'tin yig'olmaydi, shox-shabba yig'olmaydi, ovchi otib tushirgan ilvasinni ham olib kelolmaydi. Uni Bo'rilar olarmidilar?

– Yo'q! yo'q! – deya qabiladoshlari qichqirib xitob qildilar.

– Mana, Moyri, – so'zida davom etdi u. – Yovuz ruh uning ko'zlarini g'ilay qilib qo'ygan. Hattoki chaqaloqlar ham uni ko'rsa qo'rqb ketarmish, Ayiq ham unga yo'l bo'shatib beradi. Uni-chi, Bo'rilar tanlab olarmidilar?

Yana olomon guvillagancha uning gaplarini ma'qulladi.

– Mana, bu yerda Pischet ham o'tiribdi. U mening gaplarimni eshitmaydi. Pischet hech qa-

chon xandon-xushon suhbatlarni 'eshitmagan, erining ovozini ham, o'z go'dagi guvranishini ham eshitolmaydi. U oppoq sukunatda yashaydi. Bo'rilar aqalli bir marta bo'lsa-da, unga e'tibor qaratdimi? Yo'q! Ularga sara-saralari, bizga bo'lsa sarqitlar qoladi. Birodarlar, ish bunday ketaverishi aslo mumkin emas! O'chog'imiz oldiga boshqa kelmasligi uchun bo'rilarни daf qilishimiz lozim!

Shimol yog'dusining ulkan olovli qanoti qirmizi, yashil, sariq alanga bo'lib, yorqin ko'kning u chekkasidan bu chekkasigacha yoyilib lovulladi. Shunda Tўлки boshini orqaga tashladi va qo'llarini osmonga ko'targanicha, na'ra tortdi:

– Qaranglar! Ota-bobolarimizning ruhlari oyoqqa turdi! Mana shu tun buyuk voqealar sodir bo'lajak!

U orqaga chekindi, shunda uning turtkisi bilan bir ovchi jur'atsizgina oldinga chiqdi. U boshqalardan bo'yi balandroq, keng ko'kragi xuddi sovuq bilan o'chakishganday ochiq edi. Yigit o'ng'aysizlanib, og'irligini u oyog'idan-bu oyog'iga solar, tili kalimaga kelmasdi. U tortinchoq, odamovi edi. Uning yuziga qaragan kishi qo'rqib ketardi: aftidan, qandaydir bir maxluq urib abjag'ini chiqarganga o'xshardi. Nihoyat u xuddi do'mbirani chalganday, ko'kragiga mushti bilan urdi va so'ng gap boshladidi; ovozi go'yo ummon bo'yidagi g'orga tolqinlar kelib urilgandagi kabi bo'g'iq eshitildi.

– Men – Kumush Nayza avlodidanman, Kumush Nayzaning o'g'li – Ayiqman. Hamisha jarangdor ovozim bilan silovsin, los va kiyik ovladim; ovozim suvsar tuzoqqa tushib hayqirgani singari yangraganida Janubiy tog'larni kesib o'tdim va Oq daryo qabilasidan uch kishini u dunyoga jo'natdim; chi-

nuk o'kirigi singari o'kirganida bahaybat grizliga yo'liqdim – men ayiqqa yo'l bermadim.

U kafti bilan yuzidagi dahshatli chandiqlarini siliaganicha to'xtab qoldi. So'ng gapida davom etdi:

– Men Tulki emasman. Tilim xuddi daryo kabi muzlab qolgan. Men chiroyli gapira olmayman, so'zga no'noqman. Tulki: «Shu tunda buyuk voqealar sodir bo'ladi», dedi. Xuddi bahor toshqinida daryo to'lib-toshganiday uning so'zlari og'zidan toshib chiqaveradi, lekin u amalda bunday saxovatli emas. Men bugun oqshom Bo'ri bilan olishmoqchiman. Men uning jonini olaman va Zarinka mening xonadonimda o'tiradi. Men, Ayiq, o'z so'zimni aytdim.

Atrofda chinakam qiyomat qo'pdi, biroq Makkenzi joyidan qimir etmadni. Miltiqni shunday yaqin masofada otish befoydaligini yaxshi tushungan holda u revolverlarini ishga solish uchun shaylandi – belbog'idagilarni kishi bilmas oldinga surib qo'ydi, keyin qo'lqoplarini barmoqlari uchlarigacha tushirdi. Agar unga hammasi birdaniga hamla qilsa, hech nima qila olmasligini bilardi. Yaqindagina o'zi «Bo'rilar shunchaki o'lmaydilar», deb maqtangan edi, shu gapiga sodiq qolib, jag'lari bilan g'animinining bo'g'zidan olgancha jon berishga shay turdi. Lekin Ayiq qondoshlarini to'xtatib qoldi, eng qiziqqon, jizzakilarini dahshatli musht bilan orqaga irg'itib yubordi. To'fon tindi, Makkenzi Zarinkaga ko'z qirini tashladi, bu favqulodda ajoyib manzara edi. Qiz chang'ida turgancha, butun vujudi bilan oldinga intildi, lablari sal ochildi, burun kataklari pir-pir qildi – uning bu turishi xuddi urg'ochi yo'lbarsning sakrashdan oldingi holatini eslatardi. Qiz

qabiladoshlariga qarab turar, uning qora ko'zlarida ham qo'rquv, ham norozilik ifodasi zohir edi. Uning butun borlig'i xuddi kamon ipi singari tarang tortilganidan, hatto nafas olishni ham unutdi. Qiz azbaroyi bezovta bo'lib bir qo'lini ko'ksiga bosganicha, ikkinchisida uzun qamchisini qisanicha qotib qoldi. Ammo Makkenzi unga qarashi bilan Zarinka o'ziga keldi. Qizning tarang tortilgan mushaklari bo'shashdi, chuqur nafas oldi, qaddini rostladi va Makkenziga benihoya mehr-sadoqat to'la nigohlari bilan javob qaytardi.

Bir payt Tiling-Tinnex gapirishga urindi, ammo olomonning hayqirig'i uning ovozini bosib ketdi. Shunda Makkenzi o'rtaga chiqdi. Tulki so'zlash uchun og'iz juftladi-yu, biroq shu on orqasiga tislandi, kuchli faryod tomog'iga tiqildi – Makkenzi unga bemisl g'azab, tahdid bilan o'girildi. Tulkingning mag'lubiyati qattiq qahqaha bilan qarshi olindi.

– Birodarlarim! – deya so'z boshladi Makkenzi. – Siz Bo'ri deb atagan oq tanli odam sizlarning huzuringizga ochiq ko'ngil bilan keldi. U eskimoslarga o'xshab aldamaydi. U huzuringizga do'st bo'lishni istab keldi. Biroq yigitlaringiz ko'ngillaridagini aytdilar, endi do'stona gaplarga o'rin qolmadi. Endi gapimga qulq solinglar: avvalo, sizlarning shomoningiz yovuz odam ekan, u yolg'ondan bashorat qilar ekan, u sizlarga aytgan istak-iroda – bu Olov Keltiruvchining xohish-irodasi, hukmi emas. Qarg'aning ovozini eshitish uchun uning qulqlari karlik qiladi, shomon ichidan g'arazli gaplarni to'qib chiqarib, ham mangizni laqillatdi. U hech qanday ilohiy kuchga ega emas. Sizlar o'z itlaringizni o'dirib, go'shti-

ni yeishga majbur bo'lganiningizda, mokasin yeb xom teridan qorningiz og'iganida, chollar o'lganida, kampirlar jon bergenida, onasining ko'kratgiga sut kelmay, chaqaloqlar nobud bo'lganida; yerlaringizni zulmat qoplaganida va xuddi muzda losos qirilganiday bari jonivor qirilib-bitganida; ochlik-qahatchilik sizlarga hujum qilganida – shu shomonningiz biror yordam berdimi yoki ovchilar ga omad kulib boqdimi? Yoki u qorningizni go'sht bilan siylab, to'ydirdimi? Yana qaytarib aytaman: shomonning hech qanday ilohiy kuchi yo'q. Mana men hozir uning yuziga tupuraman!

Hamma Makkenzining shomonday muqadas zotga til tekkizganidan, uni tahqirlaganidan hayratdan lol bo'lib qoldi, lekin hech kim churq etmadi. Ba'zi ayollarning o'takasi yorilib, qo'rqib ketdi. Erkaklar esa yuragi taka-puka bo'lib, endi qanday mo'jiza yuz berarkin, deya kutib turdilari. Hammaning nigohi shomon va Makkenziga qaratilgan edi. Shomon hal qiluvchi daqiqalar yetib kelganligini anglab yetdi. Endi vaziyat jilovi qo'ldan ketayotganini his qildi va shunda do'q-po'pisa qilib, la'natlar o'qishga shaylandi-yu, birdan fikridan qaytdi. Makkenzi mushtumini do'laytirdi va qahr ila chaqnagan ko'zlari bilan unga tomon qadam bosdi. Shomon istehzoli ishshayib, ortiga tisarildi.

– Nima, shomonni haqorat qilganim uchun menga balo yopirildimi? Meni yashin urdimi? Yoki osmondan yulduz tushib, halok qildimi? Tuf-ey! Men bu it bilan hisob-kitob qilib bo'ldim. Endi men sizlarga butun yer yuzida, jamiki o'lkalarda hukmdorlik qilayotgan qudratlilardan qudratli bo'lgan o'z qabilam haqida aytib beray. Avvaliga

biz yakka-yakka, bir o'zimiz ov qilamiz. So'ng ga-la-gala bo'lib ov qilamiz va nihoyat xuddi bug'ular to'dasi kabi butun o'lkani to'ldirib yuboramiz. Biz o'z chodirlarimizga kiritganlarimizgina omon qoladi, qolganlarini o'lim kutadi. Zarinka chiroyli, baquvvat qiz, u Bo'rilarga yaxshi ona bo'la oladi. Sizlar hozir meni o'ldirishingiz mumkin, lekin Zarinka baribir Bo'rilarga ona bo'ladi, negaki mening birodarlarim son-sanoqsiz, ular itlarimning izlarni olib bu yerga keladi. Mana, Bo'ri Qonuniga qulqoq tuting: agarda kimda-kim bitta Bo'rining jonini olsa, qabilangizdan o'n kishining joni ketadi. Mana shunday tovon pulini ko'p o'lkalarda to'ladilar, hali yana ko'p yerlarda to'laydilar. Endi men Tulki va Ayiq bilan gaplashib olmoqchiman. Zarinka ularning ham didiga o'tirgan, bu shundoq ko'rinish turibdi. Shundaymi? Lekin o'zingiz bir qarang – axir men Zarinkani sotib oldim-ku! Ana, Tiling-Tinnex men bergan miltiqqa suyanib turibdi, yana qiz uchun boshqa narsalar ham berdimki, ular sardor xonadonida turibdi. Shunday bo'lsa-da, men baribir yosh ovchilargaadolat qilmoqchiman. Uzundan-uzoq va'z qilib, tomog'i qurib qolgan Tulkiga beshta katta qutida tamaki bermoqchiman. Mayli, shu bilan og'zi yana moylanib, yig'inlarda hovridan tushguncha shovqin solaversin. Ayiqqa esa, men u bilan tanishganidan faxrlanaman, unga ikkita yopinchiq, yigirma finjon un, Tulkinikidan ikki baravar ziyod tamaki beraman; agarda men bilan birga Sharqiy tog'larga ketadigan bo'lsa, unga xuddi Tiling-Tinnexnikiga o'xshash miltiq ham beraman. Agar u bunga rozi bo'lmasa-chi? Juda yaxshi!

Bo'ri gapirib charchadi. Lekin u yana bir marta o'z Qonunini takrorlaydi: agarda kimda-kim bitta Bo'rining joniga qasd qiladigan bo'lsa, qabilalar-ningdan o'n kishining yostig'i quriydi.

Makkenzi iljayib, ilgarigi joyiga qaytdi, lekin uning ko'ngli notinch edi. Tun pardasi hali ko'tarilmagandi. Qiz Makkenzining yoniga kelib turdi, Ayiq pichoq bilan urishganda qanday hiyla qilishini aytib berdi, Makkenzi uning gaplariga diqqat bilan quloq soldi.

Shunday qilib, ular – Makkenzi bilan Ayiq Zarinka uchun jang qiladigan bo'ldilar. Ko'z ochib yumguncha o'nlarcha mokasin gulxan atrofidagi tepkilangan maydonchani kengaytirdi. Hammaning ko'z o'ngida shomonning mag'lubiyati haqida qizg'in bahs ketmoqda edi; ba'zilar u o'z kuchini ko'rsatadi hali, deb ishontirmoqchi bo'lsa, ba'zilari o'tgan voqealarni eslab, Bo'rining fikrlariga qo'shilardi. Ayiq maydonchaga chiqdi, uning qo'lida ruslar ishlagan qinsiz ovchilar pichog'i bor edi. Tulki hammaning diqqatini Makkenzining revolverlariga qaratdi, u bo'lsa belbog'ini yechib, ishonishi mumkin bo'lgan yagona inson – Zarinkaga taqib qo'ydi va qizga miltig'ini berdi. Qiz otishni bilmayman, degan ma'noda boshini chayqadi: bunday qimatbaho qurolni ishlatalishni u bechora qayoqdan ham bilsin.

– Agar xatar orqa tomondan keladigan bo'lsa, «Mening erim!» deb baqir. Yo'q, mana bunday: «Mening erim!»

Qiz notanish inglizcha so'zni takrorlaganida Makkenzi kulib yubordi-da, uning yuzlariдан chimchilab qo'ydi va o'zi o'rtaga borib turdi. Ayiq Makkenzidan faqat bo'yи bilan emas,

balki qo'lidagi pichog'i bilan ustun edi. Pichoq naq ikki dyuymga¹ uzun edi. Skruf Makkenzi ilgarilari ham g'animinining ko'zlariga qarashiga to'g'ri kelgandi, hozir qarshisida haqiqiy jasur erkak turganini angladi; biroq u po'lat pichoqlar yaltillashi bilan birdan jonlandi va ajdodlari da'vatiga itoat etgan tomirlarida oqayotgan qon yanada tezlashdi.

G'animi qayta-qayta uni goh gulxanga, goh qalin qorga uloqtirardi, biroq Makkenzi ham xuddi mohir bokschi singari qayta maydon o'rtasiga siqib kelardi. Hech kim yoniga tushib, unga madad bo'ladigan biror og'iz so'z aytmadni, raqibini bo'lsa olqishlar bilan ruhini ko'tardilar, sergaklantirdilar, ehtiyyot bo'l, deya ogohlantirdilar. Bir-oq Makkenzi pichoqlarning tig'lari bir-biriga tegib, jarang-jurung etganida faqat tishlarini qattiqroq qisdi. Shunda u o'z imkoniyatlarini hisobga olib, shoshilmay payt poyladi, Ayiqqa tashlandi, xavf yaqin kelganda, chekindi. Dastlab Makkenzi beixtiyor dushmanini ayadi, lekin omon qolish, jonini saqlash tuyg'usi Ayiqni o'dirishga unday boshladi. O'n ming yillik tamaddun tuyg'usi qalbidan xuddi archilgan qobiq singari sidirilib tushdi va u bir ayol zoti uchun urishib jang qiladigan oddiygina g'orda yashaydigan ibridoiy odamga aylan-di-qoldi.

U Ayiqqa pichoq bilan ikki marta hujum qildi va o'zining biror joyiga tig' tegizmay, chap bera oldi; lekin uchinchi marta – o'ziga zarba berishidan ehtiyyot bo'lish uchun ayiqning qurol ushlangan qo'lini siqib tushirmoqchi bo'ldi. Shunda Makkenzi g'animinining kishini dahshatga

¹ Dyuym – uzunlik o'lchovi, 25,5 mm.

soladigan kuchini his qildi. G'animi siqib turgan mushaklari zirqiradi, paylari, bo'g'lnlari zo'riqqa-nidan mana, hozir yorilib ketadiganga o'xshab tuyildi... Rus po'latinining tig'i esa tobora yaqinroq kelmoqda edi... U raqibining changalidan ozod bo'lishga urindi, biroq bu harakati besamar ketdi. Mo'ynali odamlar qurshovi yanada jipslashib boraverdi, so'nggi zarba yaqin qolganiga hech kim shubha qilmayotgan, ular bu tomoshani ko'rishga sabrlari chidamayotgan edi. Shunda Makkenzi usta jangchiday usul qo'lladi, o'zini chekkaga olib qochdi-da, raqibiga kalla qo'ydi. Ayiq noiloj orqasiga tisarildi, muvozanatini yo'qotdi. Makkenzi zudlikda bu fursatdan foydalandi va butun og'irligini unga tashladi, uni tomoshabinlar halqasidan nariga, bosilmagan qalin qorga irg'itib yubordi. Ayiq arang yerdan turdi-da, yana Makkenziga tashlandi.

– Ey, mening erim! – xatar yaqinlashib kelayot-ganini bildirib, Zarinkanining ovozi yangradi.

Shu payt kamonnning tarang tortilib, «shuv» etgan ovozi eshitildi, Makkenzi qochib qolishga ulgurdi, poyanagi suyakdan yasalgan nayza ular ustidan uchib, to'g'ri Ayiqning ko'ksiga borib qadaldi, u raqibi ustiga gup etib yiqildi. Makkenzi zumda o'rnidan turib ketdi. Ayiq tanasida jon asari yo'q, qimir etmay yotar, gulxanning boshqa tomonida shomon ikkinchi nayzani otishga hozirlik ko'rmoqda edi.

Makkenzi buni ko'rdi, darhol pichog'ini olib, tig' tomoni uchidan tutdi va o'sha tarafga otdi. Pichoq yashinday yaltirab, gulxan ustidan uchib o'tdi. U naq sopigacha shomonning bo'g'ziga qadaldi,

shomon gandiraklab-gandiraklab, lang'illab tur-gan cho'g'lar ustiga yiqildi.

Atrofni qiyqiriq tutdi – Tulki Tiling-Tinnexning miltig'ini qo'liga olvolib, unga patron joylashga urindi, lekin eplay olmadi, shunda Skrufning qah-qah urib kulganini eshitib, qurolni qo'lidan tushirib yubordi.

– Demak, Tulki mana bu o'yinchoqni qanday ishlatishni haliyam o'rganib olmabdi-da? Demak, Tulki haligacha ojiz ekan-da. Bu yoqqa kel! Miltiqni ber, senga o'zim otishni o'rgatib qo'yaman.

Tulki ikkilandi.

– Beri kel, deyapman, senga!

Tulki tepki yegan kuchukdek bo'shashib, unga yaqin keldi.

– Mana, qara, mana bunday qilasan, bo'ldi.

Makkenzi patronni o'z joyiga joyladi, tepkini «shaq» etkizib qo'ydi, miltiqni yelkasiga osdi.

– Tulki bu tun buyuk voqealar sodir bo'ldi, degan edi, uning gapi to'g'ri chiqdi. Chindan buyuk voqealar sodir bo'ldi, lekin ularni Tulki sodir etmadi. Nima, u haliyam Zarinkani o'z chodiriga olib ketmoqchimi? U ham shomon bilan Ayiqning izidan yurmoqchimi? Unday emasmi? Yaxshi!

Makkenzi nafrat bilan yuzini o'girib, shomonning bo'g'zidan pichog'ini sug'urib oldi.

– Ehtimol, yosh ovchilar ichida shunday qiluvchilar topilib qolar? Agar ular yana kurashmoqchi bo'salar, Bo'ri ularni ham bitta qo'ymay o'sha yoqqa jo'natadi. Xohlaydiganlar yo'qmi? Yaxshi. Tiling-Tinnex, men, mana, ikkinchi marta miltiqni senga beryapman. Agar qachonki Yukon tomonlarga boradigan bo'sang, Bo'rining eshigi sen uchun ochiq, u senga uyidan joy bera-

di va to'kin-sochin dasturxonni sen bilan baham ko'radi. Ana tun ham kunga o'tib boryapti. Men ketaman, balki yana kelib ham qolarman, yana so'nggi bor so'zimni qaytaraman: Bo'ri Qonunini yodda tuting!

U Zarinkaning yoniga keldi, stikslar esa Makkenziga bir mo'jizaviy mavjudotga qaraganday qaradilar. Zarinka chana oldidagi o'ziga atalgan joyni egalladi va itlar yo'lga ravona bo'ldi. Oradan biror daqiqa o'tgach, ular qorli g'ira-shira o'rmonga singib ketdilar. Shundagina qimir etmay turgan Makkenzi ham chang'iga oyoq qo'ydi va ularning izidan ketishga hozirlandi.

– Nahotki Bo'ri beshta katta quti tamakini tashlab ketishni unutgan bo'lsa?

Makkenzi g'azab bilan Tulkiga o'girildi, negadir birdan kulgisi qistadi.

– Men senga bitta kichkina qutida tamaki beraman.

– Bo'ri baribir Bo'rilingini qildi-da, – dedi sekininga Tulki qo'lini cho'zib.

HAYOT QONUNI

(*Hikoya*)

Keksa Koskushning butun vujudi qulqoqqa aylandi. Uning ko'zdan qolganiga ancha bo'lgan, lekin qulqlari avvalgidek sezgir, tiq etgan tovushni payqaydi. Yillar to'zonidan xira tortgan ongi esa ro'y berajak voqealarga nisbatan mutlaqo befarq. Sit-Kum-To-Xanining chinqiroq tovushi eshitildi. U itlarni chanaga bog'lar ekan, qichqirgan ko'yi ularni savalamoqda. Sit-Kum-To-Xa unga nabira bo'ladi, ammo qartaygan, hammaning yodidan chiqqan, qor ustida o'tirgan aftodahol bobosi uchun shu tobda uning bekorchi vaqt yo'q. Negaki qabila qo'nimgohni tark etishga hozirlik ko'rmoqda. Oldinda olis yo'l turibdi, kun esa sira uzayishni istamaydi. Oldinda ularni hayot va tiriklik qonuniyatları kutmoqda, zinhor-bazinhor ajal emas. Chol esa endi ajalga shu qadar yaqinki...

Koskush bir daqiqa bu fikrdan dahshatga tushdi. U qollarini cho'zib, titroq barmoqlari bilan yonginasidagi o'tin uyumini paypaslab qo'ydi. O'tin borligiga amin bo'lgach, qollarini mo'yna ostiga berkitdi va yana atrofni tinglashga tutindi.

Muzlagan bug'u terisining shitirlashi eshitildi. Demak, sardorning o'tovini allaqachon yig'ishtirib bo'lishdi. Endi uni ixcham shaklda taxlab chanalarga yuklashadi. Qabila sardori baland bo'yli, navqiron yigit bo'lib, bu mahoratlil ovchi uning

o'g'li edi. Mana, u imillab harakat qilayotgan ayollarni yalqovligi uchun koyimoqda.

Chol bu ovozni so'nggi bor eshitayotgani aniq. Jixou va Tuskenlarning o'tovlari ham yig'ishtirildi. Chol qabilaga tegishli o'tovlar sonini juda yaxshi biladi. Faqat shomon yashaydigan o'tov qoldi xolos. Mana nihoyat so'nggi o'tovni ham yig'a boshlashdi. Koskush yuklarini chanaga joylayotgan shomonning g'o'ldiragan ovozini eshitdi. So'ng qulog'iga go'dak yig'isi chalindi. Bir ayol noma'lum qo'shiqni past ovozda xirgoyi qilgani-cha, uni ovuta boshladи. Bu kichkina Ku-Ti bo'lsa kerak, o'yladi chol. Ha, bu o'sha – injiq va kasalmand go'dak. Balki tez orada uning ham ajali yetar, o'shanda tundraning muzloq zaminida unga go'r qazishadi va rosomaxlardan asrash uchun ustidan tosh bostirib qo'yishadi.

Umuman olganda, baribir emasmi? Baxtli tasodif ro'y berib, yana bir necha yil yashadi ham deylik, ammo to'q kunidan och kuni ko'p bo'lishi turgan gap. Bir kun emas bir kun o'lim otliq mangu to'ymas yuho baribir uni quvib yetadi... U yoqda nimalar bo'lyapti ekan? Ha-ya, erkaklar chanalarni qo'shib, qayishlarni mahkam tang'ib qo'yishyapti. Chol ularning ovozini eshitdi, ammo tez orada atrofni sukunat qoplaydi. Itlar ustiga yog'ilgan qamchilar zarbidan atrofga «shuv-s'huv» etgan ovozlar taraldi. Bu odamlar Koskushni birga ketish uchun chaqirishmaydi. Ular safar mashaqqatini qanchalar yomon ko'rishadi-ya... Mana, ular yo'lga otlanishdi! Chanalar birin-ke-tin sukunat bag'riga singib keta boshladи. Ular ketishdi. Koskushning hayotidan manguga g'oyib

bo'lishdi, u endi umrining so'nggi, mashaqqatli soatlarini yolg'iz qarshilaydi. Shu payt mokasina kiygan oyoqlar ostida qor g'archilladi. Kimdir qarshisiga kelib qo'llarini sekingina cholning boshiga qo'ydi. O'g'li unga qanchalar mehribon! Chol boshqa tengqurlari haqida o'yladi, ularning o'g'illari qabila bilan birga jo'nab ketishdi. Uning o'g'li esa bunaqalardan emas. Xayol uni o'tmishga boshlardi, ammo navqiron ovoz uni ayni vaziyatga qaytardi.

– Ahvoling yaxshimi? – so'radi o'g'li.

Chol javob berdi:

– Ha, men yaxshiman.

– O'tin uyumi shundoq yonginangda turibdi.

Olov gurillab yonyapti. Osmon xira tortib, sovuq tushib qoldi. Qor yog'adiganga o'xshaydi. Mana, qor uchqunlay boshladi.

– To'g'ri aytasan, qor boshlandi.

– Odamlarimiz shoshilyapti. Ularning yuklari og'ir, ochlikdan qorinlari qapishgan. Yo'l esa olis, shuning uchun ular ildam ketishyapti. Men ham ketishim kerak. Xo'sh, ahvoling yaxshimi?

– Men yaxshiman. Xuddi shoxda bazo'r ilinib turgan yaproqqa o'xshayman, to'kilishim uchun shamolning sekingina esishi kifoya. Ovozim kam-pirshoning ovoziga o'xshab qoldi, ko'zlarim esa burungidek oyoqlarimga yo'l ko'rsatmay qo'ygan. Qadamlarim og'ir, holdan toyganman. Lekin hammasi joyida...

O'g'lidan ko'ngli to'lgan Koskush boshini quyi soldi, to qorning ayanchli g'ichirlashi uzoqdan eshitilgunga qadar shu alpozda o'tirdi. O'g'li endi uning chorloviga javob qaytarmasligini u yaxshi

bilardi. Shu payt uning qo'llari shoshilinch ravishda o'tin uyumi tomon cho'zildi. Qarshisida namoyon bo'lgan abadiyat dunyosidan uni shu ojiz rishtagini ajratib turar edi. Ayni kezda uning hayoti shu bir quchoq quruq shox-shabbaga bog'liq edi. Shoxlar birin-ketin yonib, gulkanni o'chirmay turadi, bu orada esa o'lim qadam-baqadam unga yaqinlasha boshlaydi. So'nggi butoq kulga aylan-gach, ayoz o'z hukmini o'tkazishga kirishadi. Avval oyoqlari, keyin qo'llari taslim bo'ladi, nihoyat butun tanasi muzlab qoladi. Boshi tizzalari uzra egiladi va u tinchiydi.

Koskush sira nolimas edi. Chunki hayot o'zi shunaqa, u juda adolatli. U zaminga yaqin bo'lgan yerda tug'ildi, shu yerda yashadi, tabiat qonunlari esa uning uchun yangilik emas. Illo, tirik jonzotlarning barchasi bu qonunlarga bo'ysundi. Tabiat yakkalanib qolganlarga sira shafqat qilmaydi, uning butun e'tibori qabila va to'dalarga qaratilgan. Keksa Koskushning ibridoiy bilimlari bundan ortig'iga yetmas, ammo u bir haqiqatga qattiq ishonar edi. Buning isbotini u butun hayoti mobaynida kuzatib keldi. Daraxt shiraga to'ladi, yashil barglar chiqaradi, keyin xazonrezgi boshlanadi – bu aylanma harakat shu holatidagina mukammaldir. Tabiat esa har bir tirik jonzot zimmasisiga alohida bir vazifani yuklab qo'ygan. Bu vazifani bajarmaganni u halok etadi. Biroq bajarganlar-da o'limga mahkumdir. Tabiat juda loqayd, illo unga bo'ysunuvchilar bisyor, abadiyat esa bo'ysunuvchilarning emas, hukmdorning qismatiga bitilgan. Koskushning qabilasi eng qadimiy qabilalardan. U go'daklik chog'ida ko'rgan

qariyalar o'zlarigacha bo'lgan ajdodlarini zo'rg'a eslashardi. Ma'lumki, qabila mavjud ekan, mo-zorlari allaqachon unut bo'lgan ota-bobolarning itoatkorligini ham o'zida mujassam etadi. Albat-ta, o'lganlar bu hisobga kirmaydi. Ular xuddi yoz osmonidagi bulut singari ko'zdan g'oyib bo'li-shadi. Koskushni ham shunday qismat kutayotgani aniq. Bu o'rinda tabiat mutlaqo betaraf. U hayot zimmasiga yagona maqsadni yuklagan, unga yagona qonunni topshirgan. Maqsad – naslning davom etishi, qonun esa o'limdir. Aytaylik, qiz bola – tomosha qilish maroqli bo'lgan go'zal xilqat. Uning borlig'idan kuch yog'iladi, siynalari tarang, qadamlari ravon, ko'zları chaqnab turadi. Lekin uning hayotiy vazifasi hali oldinda. Uning ko'zlaridagi uchqun sekin-asta alanlaganib bora-di, qadamlari tobora ildamlashadi. U o'spirinlar-ga goh dadil, gohida ehtiyyotkorona yondashadi, hurkakligi bilan ularni mahliyo qiladi. Qiz kundan-kun chiroy ochib boradi, nihoyat biror ov-chi mehnat qilishi, ovqat pishirishi va farzandlar tug'ishi uchun uni o'z boshpanasiga olib ketadi. Lekin to'ng'ichi dunyoga kelishi bilanoq, ayolni go'zallik tark eta boshlaydi. Uning qadamlari og'ir va sokin bo'lib qoladi, ko'zlaridan rang ketib, xira tortadi. Alaloqibat, gulxan yonida o'tirgan kam-pirning serajin yuziga faqat go'daklargina quvonch bilan suykalishi mumkin. Kampir esa o'z vazi-fasini allaqachon bajarib bo'lgan. Ochlikning ilk hamlasi yoki olis safar oldidan uni tashlab keti-shadi – xuddi unga o'xshab qor ustida, mo'jazgi-na o'tin uyumi yonida qoldirishadi. Hayot qonuni shunday...

Quruq novdani avaylabgina olovga tashlarekan, Koskush yana xayolga cho'mdi. Hayot qonuni tirik jonzotlarning hammasiga birdek tegishli. Sovuq tushishi bilanoq chivinlar g'oyib bo'ladi. Mitti olmaxon jon berish uchun changalzorga kirib ketadi. Qari quyon holdan toyadi, endi u avvalgidek dushmanlaridan qocha olmaydi. Keksa ayiqning ko'zları xiralashib, harakatlari beso'naqay tortadi va bir kuni akillagan itlar to'dasi uni quvib yetadi. Koskush o'z otasini Klondaykning yuqori oqimida qanday qoldirib ketganini esladi. Bu o'sha qishda, notanish missioner ularga duo yozilgan kitobchalar va dori to'la qutini keltirgan yili sodir bolgandi. Hozir Koskush o'sha qutidagi dorilarni eslarkan, tamshanib ham qo'ymadni, uning lablari quruqshab qolgan edi. U ayniqsa «og'riq qoldiruvchi» dorini yaxshi eslaydi. Biroq missioner bir muddat qabila uchun dahmaza bo'lgan edi. U ovqat keltirmas, biroq ko'p yerdi, buni ko'rgan sayin ovchilarning g'ashi kelardi. Oxir oqibat Meyo yaqinidagi daryo bo'yida shamollab qoldi, keyin esa itlar toshlarni har tomonga sochib tashlab, uning suyaklarini uzoq talashishdi.

Koskush gulxanga shabba tashladi, so'ng yana chuqurroq o'ya toldi. Buyuk Ochlik davrida chollar gulxan yoniga suqilib, o'tmishning elas-elas xotiralarini yodga olishar, Yukonning paydar-pay uch qish mavsumida muzlamagan, so'ng uch yoz davomida muzlar erimay turgan og'ir davrlari haqida hikoya qilishardi. O'sha ochlikda Koskush onasidan ayrildi. Lososlar yoz chog'ida ham bu yerlarga kelishmadi, qish mavsumi esa bug'ularsiz kirib keldi. Hatto keksalar

ham qachonlardir shunday ocharchilik sodir bo'lganini eslay olishmas edi. Bug'ular bu yerlar ga kelmay qo'yanidan keyin yana yetti yil o'tdi. Quyonlar bolalamas, itlarning terisi suyagiga yopishgan edi. Go'daklar ojiz ingrashar, tunning tubsiz va zimiston qo'ynida jon taslim etishar, ochlik ayollar va keksalarga ham ayovsiz chang solardi. Natija shunday boldi-ki, quyosh bu joylarga qaytib kelganida, har o'n odamdan bittasigina tirik qolgan edi. Ha, bu dahshatli ochlik davri edi!

Lekin u go'sht ko'pligidan aynib qolgan dorilamon yillarni ham ko'rdi. O'sha kezлari itlar semi-rib, yalqov bo'lib qolishdi. Bu shunday davr edi-ki, erkaklar yugurib borayotgan o'ljani ko'rib turishsa-da, unga o'q uzmas, ayollar esa ketma-ket farzand ko'rishardi. O'tovlarda o'g'il va qiz bolalar emaklab yurishar, ularning shovqin-suronlari avjida edi. O'sha yillar erkaklarni shunday takabbur qilib qo'ydiki, eski adovatlarni yodga olishlariga sal qoldi. Ular Pelli qabilasini yakson qilish uchun tog' orqali janubga yo'l solishdi, ayni paytda bir guruhi Tanan qabilalarining allaqachon so'ngan gulxanlarini ermaklash uchun g'arb tomon ketib borishardi.

Qariya bolalik chog'ini, mo'l-ko'lchilik yillarda bug'uni g'ajigan bo'rilar galasini dahshat bilan kuzatganlarini esladi. O'shanda Zing-Xa ikkovi qor ustida qimir etmay yotishardi. Zing-Xa keyinchalik hech narsadan tap tortmaydigan, mohir ovchi bo'lib yetishdi. Biroq ko'p o'tmay Yukon yaqinidagi muz o'yig'iga tushib ketdi. Bahorda uni beligacha muzga botgan holda topishdi.

Darvoqe, o'sha bug'u haqida... O'sha kuni Zing-Xa ikkovi otalariga taqlid qilib ovchilar o'yinini o'ynamoqchi bo'ldilar. Muz qoplagan daryo yuzasida ular bug'u va uni ta'qib qilayotgan bo'rilalar to'dasining izlariga duch kelishdi. Izlar hali yap-yangi edi.

– Bug'u juda qari bolsa kerak, – dedi Zing-Xa. U izlarni yaxshi farqlardi. – Qari ekanligi aniq. U to'dasidan ayrilib qolgan. Bo'rilar uni sheriklaridan ajratib qo'yishibdi, endi omon qolmasligi aniq.

Bu haqiqat edi. Chunki bo'rilarining odati shunday. Ular kunni kun, tunni tun demay irillagan ko'yi o'lja izidan ta'qib qilishadi, goho ularning so'yloq tishlari o'janing shundoq qarshisida paydo bo'lib qoladi, ular oxirgi daqiqagacha uning ortidan qolishmaydi. Har ikki bolaning qonida ovchilarga xos ishtiyoq jo'sh urdi. Ovning qanday tugashini ko'rish ular uchun g'oyat qiziqarli tuyilardi.

Qizishib ketgan bolalar sabrsizlik bilan olg'a yurishar, hatto ko'zlarini uncha o'tkir bo'lмаган, izlarni yaxshi farqlay olmaydigan Koskush ham, ko'zlarini yumgan holda, kerakli joyni topa olar – qor ustidagi izlar shu qadar aniq edi. Bu izlar yaqin orada paydo bo'lgan, bolalar har qadamda yaqindagina sodir bo'lgan fojianing qonli tafsilotlarini o'qishardi. Bir joyda bug'u to'xtab qolgani ni payqashdi. Uch odam bo'yiga teng keladigan masofada qor toptab tashlangan, o'rtada bug'u ning ayri tuyoqlaridan qolgan chuqur izlar ko'zga tashlanar, atrofida bo'rilarining nisbatan sayozroq izlari ko'rinish turardi. Sheriklari o'ljaga tashlangan paytda, ba'zi bo'rilar qor ustiga yonboshlab dam olgan ko'rinaldi. Ularning tanasidan qolgan

izlar shu qadar aniq ediki, bularning hammasi voqea bor-yo'g'i bir daqiqa avval sodir bo'lgandek taassurot uyg'otardi. Bo'rilardan biri talvasaga tushgan o'janing oyog'i ostida qolib, til tortmay o'lgan chog'i, obdan tozalab g'ajilgan bir uyum suyak shunday xulosaga olib kelar edi.

Chang'i kiygan oyoqlar yurishni sekinlashtirdi. Yana bir yerda ayanchli jang manzarasi qaytarilgan edi. Qordagi izlarga qaraganda, bo'rilalar bug'u ni ikki marta qulatishga muvaffaq bo'lishgan, lekin o'ja dushmanlariga jon-jahdi bilan hamla qilganicha oyoqqa qalqqan. Albatta, keksa bug'u zimmasiga hayot tomonidan yuklangan vazifani bajarib bo'lgan, lekin jon shirin-da. Zing-Xanining aytishicha, yerga qulagan bug'uning o'zini o'nglab, oyoqqa turishini avval sira eshitmagan ekan. Lekin manavi bug'u buning uddasidan chiqqan edi.

Keyinchalik bu voqeani shomonga so'zlab berishganda, u mazkur voqea chinakam mo'jiza bo'lib, nimalargadir ishora ekani haqida g'alati so'zlarni gapirdi.

Nihoyat bolalar bug'uning so'nggi manziliga, jonivor qirg'oqqa chiqib olib, o'rmon bag'riga singib ketishni mo'ljallagan yerga yetib kelishdi. Birroq dushmanlari bug'uning ortidan qolishmagan, u orqa oyoqlarida turib, bo'rilarning ikkitasiga bir paytning o'zida hamla qilgan, ular shundoqqina qor ustida cho'zilib yotardi. Negadir sheriklari ularga tegishmabdi, chamasi, ular ta'qib yakuniga yetay deb qolganini bilishadi. Navbatdagi izlar qondan qizargan, ulkan hayvonning izlari uning qoqilib-suqilib, arang qadam tashlaganidan dalo-

lat berar edi. Nihoyat jang sahnasining ilk suronlari qulqoqqa chalindi, yo'q, bu odatiy ovlarda-
gi bir-biriga jo'r bo'lib uvlashlarga o'xshamasdi.
Bo'rilarning qisqa-qisqa, uzuq-yuluq akillashla-
ri ularning so'yloq tishlari bilan bug'uning biqi-
ni o'rtasida juda oz masofa qolganini anglatardi.
Shamolga qarama-qarshi turib olgan Zing-Xa
qorga bag'rini berib yotar, yillar o'tib, o'z qabilasi-
ning sardoriga aylangan Koskush esa uning yon-
ginasiga cho'zilgan edi. Ular yosh qarag'ayning
shoxlarini bir tomonga surib, novdalar orasidan
voqeani kuzatishdi, shu tariqa jangning so'nggi
sahnasiga guvoh bo'lishdi.

Koskush yoshlikning barcha xotiralari kabi bu manzarani ham aniq-tiniq eslar, ta'qibning so'nggi lahzalari uning so'nik nigohlarida olis o'tmish-dagidek yaqqol aks etib turardi. Vaqt o'tib, qabila sardoriga aylanganida, u o'sha voqeani ko'p mar-ta esladi. Qabila erkaklarining yo'lboschchisi va kengash oqsoqoli sifatida ko'plab buyuk ishlarni amalga oshirdi. Albatta, mushtlashuv chog'ida oq tanli odamni pichoq bilan o'dirib qo'yib, Pelli qabilasining tavqi la'natiga duchor bo'lgani bu qatorga kirmaydi.

Koskush, yoshlik chog'lari haqida yana uzoq o'yladi. Nihoyat gulkanning olovli tillari qisqara boshladi, ayoz esa zabitiga oldi. Qariya bu safar gulkanga birdan ikkita shoxni tashladi, qolgan o'tin uyumini paypaslab, o'lim ustidan yana qancha vaqt hukmronlik qilishi mumkinligini chama-lab ko'rdi. Sit-Kum-To-Xa bobosini o'ylab, ko'proq o'tin g'amlaganida, uning hayot soatlari sal uzay-gan bolardi. Axir, bu unchalik qiyin emas-ku. Le-

kin Sit-Kum-To-Xa juda beg'am qiz. Zing-Xanining nabirasi bo'lgan Bobrning o'tkir nigohlariga duch kelganidan keyin esa u ajdodlarini umuman izzat qilmay qo'ydi. Umuman olganda, yoshligida hamma ham shunaqa bo'ladi. Uning o'zi ham yoshlikning o'yinqaroq damlarida shunday yo'l tutmaganmidi?

Koskush bir daqiqa sukunatga qulq soldi. Balki o'g'lining ko'ngli yumshab, itlar bilan orqaga qaytar, qabila bilan birga keksa otasini ham biqinlari moyga to'lgan bug'ular o'lkasiga olib ketar?!

U tevarakni butun vujudi bilan tinglay boshladi, shuuri esa qizg'in yumushidan bir zumga chalg'idi. Tiq etgan tovush eshitilmas, atrofda jimjitlik hukmron edi. Bu sukunat ichra o'zining nafas olishigina eshitilib turardi. Vahimali yolg'izlik... Shu payt qandaydir jonivorning sharpasi sezildi. Cholning a'zoyi badaniga titroq yugurdi. Yordam so'ragan kabi yalinchoq bir ovoz suknatni kesib o'tdi, taajjubki, bu tovushni u avval ham eshitgandi. Ovoz shu atrofdan, yaqinginidan eshitilardi. Mo'jiza ro'y berganga o'xshardi, chunki Koskushning so'qir ko'zlar keksaygan erkak bug'uni aniq ko'rди, uning biqini tilka-pora bo'lib, qoni oqib turar, yoli hurpayib ketgan, tarvaqaylagan shoxlarini oldinga egib, jon-jahdi bilan o'zini himoya qilishga urinar edi. Koskush u yoqdan bu yoqqa lip-lip o'tayotgan kulrang gavdalarni, o't sochib turgan ko'zlar, so'yloq tishlar, so'lagi oqib turgan tillarni ham ko'rди. Sullohhlar aylana shaklida joylashib olishgan, davra ko'z ilg'amas tarzda torayib borar, vahshiy to'da a'zolari esa qori toptalgan yerda emaklashar, qulay fursat kelishini poylashardi.

Yuziga muzday tumshuqning suykalishi cholni hushiga keltirdi. U qo'lini gulxan tomon cho'zib, chala yongan o'tinni sug'urib oldi.

Ajdodlaridan meros qolgan insondan qo'rqish tuyg'usi bo'rini yalingansimon uvillab, sheriklaridan yordam so'rashga undadi. To'daning bos-hqa a'zolari unga javob qaytarishdi, bo'rilar irjaygan og'izlaridan so'lak sachratib, gulxan atrofini o'rab olishdi. Qariya yana yon-atrofni tinglashga urindi, tutab turgan o'tinni silkitgan chog'i irillagan tovushlar eshitildi, chamasi, bo'rilar taslim bo'lishni xayollariga keltirishmasdi. Nihoyat bit-tasi to'sh urib oldinga chiqdi, orqa oyoqlariga tayanib o'tirib oldi. Yoniga yana ikkita sherigi kelib qo'shildi, lekin hech biri orqaga chekinmadidi. Shu damda Koskush, hayotga bu qadar tirmashish kerak yoki kerak emasligi haqida o'ziga xayolan savol berardi. Nihoyat u aniq bir qarorga kelib, tutab turgan o'tinni qorga suqdi – olov o'chdi. Bo'rilar vahimali tovushda uvlashdi, lekin joylaridan jilishmadidi. Bir ozdan so'ng Koskush yana bir bor keksa bug'uning so'nggi jangini kuzatdi. Cholning boshi og'irlashib tizzalari ustiga osilib qoldi. Alqissa, hammasi baribir emasmi? Axir, hayot qonuni shuni taqozo etadi.

MEN ANGLAGAN HAYOT

(*Esse*)

Men oddiygina ishchi oilasida tug'ilganman. Juda yosh kezlarimdanoq o'z xayolot olamimda kuchli xohish-istiklar, shu mavjud hayotga bo'lgan beedad zavq-u shavq hamda qo'l yetmas orzular osmonini kashf qildim, ha, bu yorqin niyatlarim mening bola boshim uchun nechog'lik mahol bo'lishiga ham rozi bo'lgan holda ularga butun qalbimni fido qildim. Holbuki atrofimdag'i muhit g'oyatda achinarli, qo'pol va quruq edi. Shunday bo'lsa-da orzumand ko'zlarimni faqat yuksakka tikardim, telegramdag'i moddiy turmush lavhalarini hech ilg'ay olmasdim. Tan olishim kerakki, jamiyatdag'i mening o'rnim ancha quyida edi. Bu yerdagi hayot ruh uchun ham, tana uchun ham qabihlik hamda baxtsizlikdan o'zga narsani ravo ko'rmasdi sira, vaholanki qashshoqlik iskanjasida ruh-u tana-da barobar holda ochlikdan sillasi qurib, beayov azoblanmoqda edi.

Shu g'arib boshim uzra jamiyatning hashamatli turmush tarzi bo'y ko'rsatib, o'zini tinmay ko'z-ko'zlab turardi, birdan ichimda xuddi o'sha fusunkor saroy tomon ko'tarilib chiqish istagi paydo bo'lib qoldi. Men o'sha saroyga qarab shu past joyimdan bor kuchimni sarflab bo'lsa ham o'rmalab chiqishga allaqachon azm-u qaror qilgandim. Qasrdagi barcha erkaklar nafis kiyimda edilar, egnilarida qop-qora kostum bilan ohorli

ko'ylak, xonimlari bo'lsa jozibali liboslar og'ushida xirom bilan yurishardi. Yana bu yerda eng sara taomlar hozirlanar, to'yguningcha maza qilib yeyishing mumkin edi. Bu ovqatlarning bari bitta odamga juda ko'plik qilardi. Hammasidan ham bu joyda ruhing orom topadigandek edi. Butun aql-u xayolimni o'g'irlagan o'sha serhasham hayot muhitida, men aniq bilardimki, ruhning ozodligi, toza va oljanob fikrlash, risoladagiday umr kechirish kabi hayotning nodir tuhfalari mu-jassam edi. Bularning barini men o'zim o'qigan «Dengizbo'yи kutubxonasi» turkumidagi romanlar orqali yaxshi bilardim, albatta, kitoblardagi yovuz qahramonlar va sarguzashtsevar darbadarlarni hisobga olmaganda mazkur oliy tabaqa vakillari hamma vaqt g'oyatda teran mulohaza etishar, ravon tilda so'zlashishar, nazokatli harakatlar qiliшhardi. Muxtasar qilib aytganda, misoli quyosh chiqishini shod-u xurramlik ila kutib olganim kabi tepamda yarqirab, jilolanib turgan gulgun hayot ichida ham osudalik, ham asilzodalarga monand salobat va marhamat mavjud ekanligiga shaksiz ishondim, garchi bu kabi tushunchalar faqir qismatim uchun nomunosisib bo'lib ko'rinsa-da, biroq ular tiriklik mazmuniga xushlik hamda viqor bag'ishlashiga iqror bo'lgandim, eng muhimmi, bu hayotda odamni yashagisi kelardi.

Ammo kambag'al ishchi oilasining bolasi uchun yuqoridaq porloq tole tomon ko'tarilib chiqish oson emasdi, albatta, chunonchi biz kabi odamlar odatda xomxayollar va sarob orzular og'ushidan to o'lgunimizcha mosuvo bo'lmaymiz. Men Kaliforniyada, o'z ranchoyimda istiqomat qilar-

dim, bor jon-jahdim bilan oliv tabaqa doirasiga chiqib olish uchun mustahkam narvon qidirardim. Bolalik paytlarimdan oq pul dardida qiyinalib yashardim, o'sha asilzoda kishilarning dunyoga qanday qilib badavlat, beg'am bo'lib kelganlariga aqlim yetmay, hadeb bola ongimni azoblardim. Keyinchalik shuni anglab yetdimki, inson qancha ko'p ter toksa, u shuncha boyib ketadi, ana o'shandagina uning tirikchiligi ham 'binoyidagi-day sharoitda bo'ladi. Ushbu xulosamdan zudlik bilan hisob-kitob qilib oldim, basharti men to ellik yoshimgacha tinimsiz ter to'kib, mehnat qilsam va tuzukkina mablag' jamg'ara olsamgina mening jamiyatdagi o'rniham yuqorilashib, dunyoning lazzat hamda baxt kabi mujdalaridan bahramand bo'la olishimni tiniq idrok etdim. Shubhasiz, bu yolda qashshoqlik tushovidagi og'ir tosh singari uylanish dahmazasini ham qat'iy bir chetga surib qo'ydim.

Shunga qaramay, jonimni jabborga berib, astoydil ter to'kishimga to'g'ri kelardi. Binobarin, o'n yoshimdanoq shahar ko'chalarida gazeta tarqatib yuradigan bolakay qiyofasiga kirdim, sarsonlik va pul topish mashaqqati menga yanayam ko'proq narsalarni o'rgatdi o'shanda. Baribir atrofimdag'i borlig'imni qurshab turgan ochlik, yupunlik va miskinlik balosidan hech qutulib ketolmasdim, tepamda esa hamon oromijon jannat bog'i meni o'ziga tinmay chorlab turardi, shunda xayolimda boshqa narvon topish fikri uyg'ondi. Yangi narvon – biznes ńarvoni edi. Xo'sh, men nima uchun arzimagan mayda chaqalarimni ham ming azob bilan hukumatning loy ko'chalaridan qidirib yurishim

kerak ekan, ikki donagina gazetani besh sentga olib, keyin ularni atigi o'n sentga pullash orqali katta mablag' toplashim mumkinmikan? Yangi o'ylab topganim biznes narvoni bo'lsa boshqa gap, bu fikrim o'zimga chunonam yoqib tushdi, darhol sochlarmi oldirdim-da, omadi chopgan savdogar shahzoda qiyofasida uzoq safarga otlandim.

Chig'anoq qaroqchilari shahzodasi

Afsus! Ko'rinishimni o'zgartirib chakki qilibman! O'n olti yoshimga to'lib ulgurmasimdanoq «shahzoda» ham bo'ivoldim endi. Lekin bu unvon bir gala kallakesar hamda o'g'rilar to'dasi tomonidan berilgandi, ana o'shalar menga xuddi shu laqabni yopishtirib qo'yishdi: «Chig'anoq qaroqchilari shahzodasi». Ammo o'sha damda men bu biznes narvonining birinchi zinasiga qadam qo'yishga muvaffaq bo'lgandim. Endi men mustaqil kapitalist edim. O'z qayig'im, chig'anoq ovlash uchun hamma uskunalarga erishgandim. Safarda hamrohlik qilishi uchun bop bir sherik ham tanlab olgandim. Qayiq egasi hamda kaptani sifatida qo'lga tushirgan o'ljamizning uchdan ikki qismi mening hamyonimga tushar, uchdan bir qismi esa sherigimga qolardi, lekin bechora miq etmay xuddi men kabi mehnat qilar, joni va ozodligini tahlikaga qo'yishga hamma vaqt shay turardi.

Biroq qismatimiz sho'r ekan, arang ko'tarilganim narvonning birinchi zinasi ham tez orada barbob bo'ldi. Bir oqshom xitoylik yaramas baliqchi-

lar hujumiga uchradim. Qayig‘imdagi jamiki to‘r va arqonlarim menga anchaginaga tushgandi. Bu rostakam o‘g‘irlik edi, ammo shunga amin bo‘ldimki, biznesning oshkora yuzi mana shunday ekan aslida. Haqiqiy biznes go‘yoki qarzi borday odamzotning bor mulkini yulg‘ichlarcha tortib olarkan, xoinlarcha ishonch bilan yoki orqasida turgan senator va oliy sud boshliqlarining yelkalariga suyangan holda ish tutarkanlar. Lekin men ham o‘zimga yetguday haqparast edim. Ular bilan mening oramdagи yagona farq ham shu jihat bo‘lsa kerak. Yulg‘ichlarga qarshi qurol ishlatishga majbur bo‘ldim.

Ammo o‘sha tunda yonimdagи hamrohim bitta bo‘lgani uchun qaroqchilarga qarshi bas kela olmadim, sherigim landovurlarcha qayiq yoniga katta gulxan yoqdi va buning oqibatida butunlay qayiqni xarobaga aylantirib yubordi. O‘sha kecha hech qanaqa mulkim ham, mablag‘im ham qolmadi, qaytanga biz saqlab qolmagan to‘r va arqonlarimizga iflos qaroqchilar ega bo‘lib olishdi. Chorasiz qoldim, kutilmagan inqiroz aqlimni dovdiratib qo‘ydi, kissamda qolgan oltmish besh dollar bilan qanday qilib kun kechirishimni bilolmay tang ahvolda edim. Vayron bo‘lgan qayig‘imni yakordalik holatida tashlagancha boshqa qaroqchilar kemasiga o‘tirib, Sakramento daryosi tarafga hujumga ketdim. Omadsizlikni ko‘ringki, bu safarimda ham yana bezorilar to‘dasi bilan to‘qnash keldim, ular yangi qayig‘imni ham talon-toroj qilishdi. Bosqinchilar hamma narsamni o‘marib ketishdi, hattoki langargacha chang solishdi; keyinchalik esa noiloj taqdirga tan berib, quruq qol-

gan qayig'imni arzon-garov pulga sotib yubordim. Bir amallab chiqib olgan biznes narvonimning bиринчи зинасидан ана шу тарзда toyib ketdim va qaytib hech qachon biznes narvoni to'g'risida xayol qilmaslikka ahd qildim.

Og'ir mehnat qo'ynida

Shundan keyin so'qir qismatim meni nihoyatda berahm kimsa qo'lida shafqatsizlarcha ezg'iladi. Misoli jallod zodagonlar muskul dor bilaklarimdan pul ishlab, o'z nafslari uchun farovon yashashni yo'lga qo'ydilar, holbuki mening peshonamga bu kabi yashash sira-sira nasib qilmasdi. Hayot boshimga bir-biridan mashaqqatli kunlarni soldi, avvaliga dengizda yugurdak, portlarda yuk tashuvchi bo'lib ishladim, so'ngra konserva zavodi, fabrika-yu korxonalarda kuchim ketdi; ustiga-ustak maysazorlarni o'rdim, gilam tozaladim, deraza yuvdim. Biroq shuncha qilgan mehnatlarimga yarasha haq ololmadim. Konserva zavodi direktorining yasatilgan izvoshda yayrab ketayotgan qiziga alam bilan tikilardim, u mening muskullarim tufayli rohat qilib borardi, o'sha izvosh aravasi ham rezina shinalari ustida faqat mening quvvatim sababligina joyidan qo'zg'ala olardi, ha. Fabrika xo'jayinining nufuzli kollejga qatnaydig'an o'g'liga boqib turib, yana bir karra o'kinardim, u ham baquvvat muskullarim turtib turgan mana shu bilaklarim orqasidan ta'lim olardi oliy kollejida, uning maza qilib ulfatchiligi kayf-u safo qilib yurishlarida mening ham hissam anchagini edi.

Bitoq men bulardan aslo g'azablanmadim. Axir bu hodisalarining bari o'yin-ku. Hayot-ku bu axir. Hayot o'yinidagi kuchli taraf esa hozircha ular edi. Mayli, dedim o'zimga o'zim, hechqisi yo'q, men ham ojiz emasman, menam kuchliman. Ammo men jamiyatdagi o'z o'rnimni ular singari boshqalarning peshona terisi evaziga emas, aksincha top-toza va halol qo'llarim bilan yaratmoqchi edim. Mehnatsiz hayot halokat demak edi men uchun, og'ir ishdan qochmas, mehnatni juda sevardim. Tobora tez, tobora qattiqroq ishlab, oxir-oqibat jamiyatga hattoki tirgovich ham bo'la olardim.

Shunda taqdir biroz kulib boqqanday bo'ldi, orzu-xayollari xuddi menikiga o'xshash bir ish beruvchi bilan ro'baro' kelib qoldim. Halol ter to'kishga mendagi ishtiyoy qechog'lik baland bo'lsa u mendan-da qolishmaydigan mehnatsevar edi. O'zimcha tijoratni o'rganayapman-da, deb o'ylab yurgandim. Aslida esa har ikkalamiz uchun ham bir o'zim mehnat qilayotgan ekanman, haqiqatda bo'lsa, u meniyam haqqim bo'lgan ellik dollarni indamay cho'ntagiga urib qolayotgan ekan, ikki kishi uchun ter to'kayotgan ishimga esa men oyiga qirq dollargina olar, ba'zan buyam qo'llimga o'ttiz dollar bo'lib tegardi. Bu razil kimsa meni o'lguday ishlatdi. Odam dengiz chig'anog'i-ni yaxshi ko'rib yeyishi mumkin, ammo haddan ortiq chig'anoq ham darrov ko'ngilga uradi. Ortiq ish degan do'zax azobini ko'rgim kelmay qoldi. Axiyri u yerdan qochib ketdim. Endi eshikma-eshik sarg'ayib, ko'chalarda tilanchilik qilib sarson bo'ldim, butun boshli Qo'shma Shtatlarni

tentiragancha yalangoyoq kezib chiqdim, xaroba kulbalar va zax qamoqxonalarda a'zoyi badanim chirib ketguday bo'lib, yomon qiyaldim..

Uvol bo'lgan quvvatim

Qismatimga kambag'al bo'lib tug'ilish bitilgan ekan, na chora, mana hozir, umrimning avji barq urgan chog'i – o'n sakkiz yoshimda bu alamni yana-da teran, yana-da o'kinch bilan his etardim. Men tamomila jamiyatning eng xilvat yerto'lasida qolib ketgandim, nochorlik hamda notavonlik qurbaniga aylangandim mutlaq, hatto hasrat qilishga ham arzimaydigan noxush vaziyat bechorasi edim. Butun jism-u jonim bilan tubsiz jarlik qa'rida ingrar, jamiyat taraqqiyotining tomir-tomirlariga chirma-shib ketgan tartibbuzarlik, parokandalik va chirkin qonunlar botqog'idan qutulolmasdim. Hayotning yana bir haqiqati shu ekan, ko'zlarim bu haqiqatga ters qarayolmadi. Omadsizligim va baxtsizligim oqibat o'z orzularimga xiyonat qilishga, ulardan yuz o'girishga majbur etdi, ko'rganlarim va anganganlarim shu bo'ldiki, oliymaqom tabaqa vakillarini qurshab turgan yorqin shu'la gardishi endi dilimga g'addor, bir qo'rqinchni solib qo'ydi. Men hatto orzu qilishga-da qo'rqib qoldim. O'zim nafas olayotgan mukammal taraqqiyot doirasidagi eng oddiy, eng oshkora qoidalarni aniq ko'rib turardim. Hayot aslida bir boshpana va bir kosa yovg'ondan iborat jarayon ekan, xolos. Qorin va uy g'amida esa odamlar bor narsalarini pullar edilar. Savdogar oyoq kiyimi, siyosatchi odamgarchilagini, so'zsiz ba'zi bir davlat vakillarini hisobga olmaganda, ular hatto o'z

e'tiqodlarini-da zig'ircha andishasiz indamay sotib yuboraverardilar; umuman olganda, hamma bozorda va bu bozorda inson nafsoniyatigacha sotilari edi. Sotuvchilik yo'lida ayollar ham harakatga tushib qolishdi, ular torko'chalar ichida yoxud xilvat go'shalarda oppoq tanalaridan istaganlaricha foydalanishar, afsuski, bilmas edilarki, ular makruh lazzatlari bilan ayollikning muqaddas va ezgu maqomini-da yer bilan bitta qilib poymol etishardi. Hayot misoli faqat sotiladigan mollar do'koniga o'xshab qolgandi, hamma odamlar sotishar va sotib olishardi. Yolg'iz mehnatninggina sotiladigan moli bitta: u ham bolsa kuch edi, xolos. Jadallahib borayotgan taraqqiyot bozorida birgina og'ir mehnatning bahosi yo'q edi. Uning tanho mulki kuchli muskullar va yana shu muskullar edi faqat.

Ammo bu yerda muhim bo'lgan katta tafovut ham bor edi. Sotib yuborilgan oyoq kiyimlar va yo e'tiqod, boringki, nafsoniyat ham o'zlarini yangilab, qayta yaralish imkoniyatini topa olardilar. Ular beqaror, o'zgaruvchan oddiy narsalardir. Birroq odamning kuch-quvvati bu boshqa masala, ketgan kuchni yana qaytarib, uni yangilab bo'lmaydi. Poyabzal tijoratchisi oyoq kiyimlarini pullagani bilan u yana o'z savdosini yurgizib ketaveradi. Lekin qora ishchining baquvvat muskullari vaqt o'tishi bilan borgan sayin yupqalashib, to-bora kuchsizlashib boraveradi. U qancha mehnat qilsa shuncha ko'p kuchini yo'qotadi. Bechora nima ham qilsin, yagona davlati mana shu g'udrush qo'llari bolsa, boshqa nimayam qila olardi, o'tayotgan har bir kuniga muskul dor bilaklarini qurbon qilgancha tirikchiliginи bir amallab o'tka-

zishdan bo'lak iloji yo'q edi uning. Nogahon joni osongina uzilib qolmasa, sho'rlik mehnatkash-larning umri to adog'igacha shu zaylda mehnat va mehnat bilan o'tib ketardi. Bordi-yu kuchdan qolguday bo'lsa, noiloj kulbasi derazalarini yopib, o'zini achchiq kulfat izmiga topshirishdan bo'lak chorasi qolmasdi. Qora ishchining muskullari inqirozga uchragan on unda hayot nishonasi-dan ham hech qanday belgi qolmaydi, bemajol va behol ruhda jamiyatning o'sha chirkin yerto'la-siga yiqlib tushib, baxtiqaro holida jimgina o'lib ketaveradi.

Oradan biroz vaqt o'tib, xuddi sotilajak mollar singari inson miyasi qudratini, mulkini kashf et-dim. Odamning ongi esa uning bilaklaridan mut-laqo farqli bo'lgan bebaho boyligi hisoblanardi. Ong «sotuvchisi» esa dastlabki davrni endigma ellik – oltmish yoshga kirganidagina boshlagan bo'ladi, uning haqqi ham boshqa mablag'lardan ko'ra borgan sari ko'tarilib boraveradi. Bechora qora ishchilar kabi qirq besh – ellik yoshlarda-yoq ishga yaroqsiz bo'lib qolmaydi. Jamiyatning zax yerto'lasida yashab kelarkanman, butun umrimni shu xarob yerda o'tib ketishiga zinhor rozi bo'lolmasdim. Bu joydagi quvurlar va usku-nalar umuman yashash talabiga javob bermas, hamma yog'i isqirtlikka botib ketgan, havosidan esa umuman nafas olib bo'lmasdi. Toleyim ku-lib, istiqbolim gullaganida bormi, jamiyatning muhtasham mehmonxonalarida yashay olmagan taqdirimdayam istagan narxda o'zimbop birorta boshpana sotib olgan bo'lardim. To'g'ri, u yer-da ham yashashning o'ziga yarasha ma'suliyyati

bo'lardi, albatta, biroq jilla qursa erkin nafas olishim uchun loaqal toza havodan bahra olish baxtiga erishardim. Shunday qilib, ortiq bilaklarim-dagi kuch-quvvatimni behuda sarf etmay, endi aql «sotuvchisi» bo'lishga qaror qildim.

Isyonchi jamiyatshunos

Mazkur qarorimdan so'ng belimni mahkam bog'lab, ilm ketidan shiddat bilan quvishga kiringdim. Kaliforniyaga qaytib kelib, kitoblarimni ochdim. Aql va miya «savdogari» bo'lib shakllanarkanman, o'z-o'zidan shaxsimni jamiyatshunos qilib tarbiyalashim muqarrar bo'lib qolgandi. Bir qator kitoblar ichidan ongimda o'zim yaratgan jamiyatga oid tushunchalarning ilmiy rejasini tuzib chiqdim. Shaksiz, mendan avval o'tgan va menning tafakkurimdan-da shuurlari o'tkir bo'lgan kimsalar ham bu xil nazariyalarga e'tibor qaratgan bo'lishlari mumkin. Biroq men o'z nazarimda insoniyat uchun bag'oyat kerakli bo'lgan ulkan qoidalarni yaratmoqda edim. O'zimni jamiyatshunos bo'lib yetishayotganimni payqardim.

Aslida jamiyatshunos degani bu isyonchi odamlar demakdir men uchun, shu sababdan ular hozirgi davr sharoitini tubdan o'zgartirib, kelajak yillar uchun yaxshi bir tuzumni barpo qilishni ko'zlardilar. Men ham ular kabi haqiqiy jamiyatshunos va ularday chinakam isyonchi bo'lib qolgandim. Bir qancha dunyoqarashi keng isyonchilardan tarkib topgan ishchilar guruhiga qo'shilib oldim va ilk marotaba ong bilan yashashni boshdan kechirdim. Bu yerda men o'tkir mulohazalar

va chuqur idrokka to'la mushohadalardan voqif bo'ldim, kuchli, aqli yuksak, mehnatkash odamlar bilan topishdim. Muqaddas ibodatxonalarda quruqdan-quruq safsata sotib, vozlik qilayotgan va'zxonlar-u dorilfunun ostonasini oyoqosti qilayotgan bilimsiz professorlarni ham o'z qobiliyatlari hamda chuqur ilmlari bilan mot qiladigan shunday kuchli doira vakillarini topdim, ular bor shijoatlari bilan odamzotni cheksiz botqoqlik changalidan qutqarib qolishga harakat qilardilar.

Mana shu haqgo'y odamlar orasida men insonga xos bo'lgan iliq e'tiqodni, orzuparastlikni, xudbinlikdan chekinishni, bor illatlarni rad qilib, mehnat uchun jafokashlikni, ruhning bor saoda-tini anglab yetdim.

Bu yerdagi hayot halol, pok va jonli kechardi. Nahotki yer yuzida mana shunday hayot ham mavjud bolsa, g'aroyib, shonli; qayta tirliganim-dan nechog'lik baxtiyor edim!.. Nihoyat izlay-izlay topganim bag'oyat buyuk qalblar bilan ham-nafas yashayotgandim, zotan bu dillarning ruhi g'aram-g'aram pullar-u millionlab aqchalar ustidan masrur, beparvo uchib o'ta oladi, biroq jami jahon tevaragidagi iqtisodiy tanglik borasida ular zinhor sukut saqlamaydilar, qahatchilikda halok bo'layotgan bolakaylar faryodidan quloqlarini berkitib olmaydilar. Hayot naqadar go'zallahib ketdi, ana olijanoblig-u ana oliyhimmatlik, ana qahramonlik qudrati, endi kunlarim quyosh nuriga cho'milgan holda, tunlarim yulduzlar shu'lassi ichra charog'on o'tardi; bir dam ko'z oldimdan mislsiz qyinoqlarga to'la, bir-biridan o'tli, bir-biridan og'riqli kechgan qora kunlarim o'ta boshla-

di, nahot bir odam bolasiga shuncha zulm, shuncha ko'rgilik yog'ildi, berahmlik qurboni bo'ldi u, ammo oqibat sho'rlik baribir o'sha yovuz muhitdan, achchiq hayot iskanjasidan qutulib chiqdi va hamma-hamma ko'rganlarini ortga tashladi. Men ahmoq bo'lsa o'sha mudhish balolarning barini rohat-farog'atga erishish yo'lidagi arzimas zahmatlar deb tushunibman va o'sha zahmatlar meni bir kunmas bir kun jamiyatning baland shohsupasiga ko'tarib chiqadi, deya xomtama bo'libman, behuda ro'yo ortidan chopibman. Kaliforniyadagi rancho-yimga kelib endi o'zgacha mulohazalar bilan «Dengizbo'yи kutubxonasi» romanlarini qaytadan multolaa qilishni boshlagan kuni mdanoq xayolimdag'i ko'p quruq dahmazalarni, to'g'rirog'i, ro'yolarning barini chiqariib tashladim. Shundagina butkul amin bo'ldimki, ichimda to shu kunlarimga qadar saqlab kelgan o'sha xomxayollarning barchasini o'z idrokim bilan tamoman barbod qilibman.

Anglash

Ong «sotuvchisi» sifatida ancha omadim keldi. Jamiat bor eshiklarini mening istiqbolimga lang ochib berdi. Ana endi bemalol, to'g'ri muhtasham mehmonxononalarga kirib borar, qo'l tek-kizishim mumkin bo'limgan narsalarini behadik ushlay olardim, biroq, biroq tezda yuragimni yana sovuqqonlik, bu xil turmushdan ixlossizlik, bezganlik hislari qurshay boshladi. Men oliymansab janoblar bilan bitta dasturxonada ovqatlanar, ularning serhasham ayollari va qizlari bilan birga taom yerdim. Tan olaman, bu kibor xonimlar

did bilan kiyinishgan, yaxshilab bezanishgan edi, ammo sodda bir hayrat bilan shu narsani nogoh kashf qilib topdim, mening asl tabaqamdag'i qora ishchi ayollarning ham badani shu xonimlarni-ki bilan bir xilda edi. Mana, polkovnikning sertamanno xotini bilan oddiygina ishchi Judi O'Gredining tanalari bitta tusda ekan, faqat xonimning yaltiroq liboslari uni yashirib turardi, xolos.

Aqlimni lol qilgan narsa faqat bu emasdi. Rost, maloikalarday ko'rinishga urinayotgan bu boylikka o'ch ayollar, pulsevar erkaklar chiroyli tilda so'zlashar, fikrlarini ravon ifodalay olishardi; ammo shunday bo'sayam.ular yashayotgan hayot lavhalari nihoyatda rasvo, yemaklari harom edi, o'zları esa o'lguday xudbin edilar! Qilib qo'ygan ozginagina xayr-sahovat ishlarini ham ming martalab og'iz ko'pirtirib maqtanishar, holbuki, egnilaridagi bebaho kiyimlari, qimmat taqinchoqlari, og'izlaridagi shirin taomlari kichkina ishchi bolakaylarning peshona terisi orqasidan, nechog'lik og'ir mehnat evaziga kelayotganini bilishmasdi. Bu kabi asoslar xayolimdan o'tarkan, birdan Judi O'Grediga tanadosh mana bu xonimlar to'satdan insofga kelib, go'yo qonga bo'yalgan ko'ylaklari va tilla taqinchoqlarini ustilaridan yulqib olishib, qattiq darg'azab bo'lgan qiyofalari jonlanib ketdi negadir, men emas, go'yoki endi ularning o'zları uvollik va zavollik to'g'risida va'z o'qishar, jamiyatning zax yerto'lalarida halok bo'layotganlar qismatiga dil-dillaridan achinishardi. Biroq real hayotda bu lavha hech qachon akslanmasdi, albatta, olti yoshli bolakayning har tunda o'n ikki soatlab qora terga botib ishlayotgan taqdiri bilan

ularning bir mirilik ishi yo'q edi, aslida mening hayotimni kulfatga aylantirayotganlar ham shular – Judi O'Gredidan bir pog'ona ham yuksakda turmaydigan kalondimog' xonimchalar edi.

Yaxshisi, ular bilan mening ham ishim bo'lma-gani ma'qul edi. Men orasta kiyangan, asilzoda, aqli ko'rinaridigan erkaklar bilan tanishishga ki-rishdim, ularning orzu-o'yłari ham xuddi ko'ri-nishlari kabi tiniq, asl va jonli bo'lishi kerakday edi nazarimda. Jamiyatning eng baland kursilarini egallab o'tirgan bir guruh voizlar-u siyosatchilar, biznesmenlar-u professorlar hamda noshirlar bi-lan ulfatchilik qilib yurdim. Ular bilan birga ovqat yer, birga sharob ichar, bitta mashinalarda yu-rar va shu asnoda ularni o'rganib ham borardim. To'g'ri, kiborlar orasida rostdanam aqli, asilzo-dalarni uchrattdim ham, biroq ular benihoya kam edi, bo'lganlari ham u qadar jo'shqin emasdilar. Goho shu qadar ongim xiralashib ketardiki, hatto ikkala qo'llimdag'i barmoqlarim hisobidan adashib ketardim. Baribir bu xil omma vakillarining bari chirik muhit ichida jonlana olmasdilar, harom turmush bag'riga butunlay qorishib ketishgandi, faqat ahyon-ahyonda asilzodalarcha madaniyat qirralarini namoyon qilib qo'yishardi, xolos, le-kin shunchaki edi bular. Ayniqsa men tanishib olgan universitet professorlarining gaplarini aytib o'tmasam bo'lmasdi, ularning fikricha, «ko'p aqli bo'lishdan hech foyda yo'q edi».

Jaholat urushlariga g'oyalari qarshi bo'lgan Tinchlik Shahzodalari deb ataluvchi «qahramonlar»ni uchratganimda, balki endi fikrlarim o'zgarib ketar, deb o'ylagandim, ammo keyin bildimki, bu «tinch-

liksevar» kishilar o'z fabrikalaridagi ish tashlashga chiqqan xodimlarini kiprik qoqmay otib yuboraverishar ekan. Yanayam dahshatlisi, o'z olchoqligi bilan shafqatsizlarcha, tuturiqsiz vaysagan odamning qo'rqinchli hikoyasi bo'ldi, o'sha yovuz kimsa har yili tug'ruqxonalardagi chalajon go'daklarni o'g'irlab, ularni o'ldirar, evaziga kelgan mo'may da-romaddan qornini qappaytirib yurar edi.

Men yo'linda uchragan har bir klublar-u uy-lardagi, mehmonxonalardagi odamlar bilan ham-suhbat bo'laverdim, sanoat fabrikalarining zar-hal kursilarida yastanib o'tirgan boshliqlari bilan yuzma-yuz keldim va hayron qoldim, nega bu boshliqlar shuncha oz fursat ichida bunchalik boyib ketishdiykin? Bir tomondan ulardagi aqlni, ya'ni biznes tuyg'usining yaxshigina rivojlanganini ko'rdim. Yana ularning ruhiyatlarini ham tushunib qoldim, bizneslari nol bo'lgan kun ularning ham paytavalariga qurt tushib, tipirchilab qolishardi.

Mana bu oriqqina, kibor qiyofadagi qo'g'ir-choq-maniken fabrikasi va turli asbob-uskuna-lar korporatsiyasining direktori maxfiy ravishda beva ayollarni va yetimlarni o'g'irlab kelardi. Eng sara nashriyotlarni egallab olgan mana bu janob bo'lsa o'zini go'yoki adabiyot homiysi kabi tutar, shaharchadagi barcha bosmaxonalarni ham o'zi-niki qilib olgandi. U o'sha nashriyotlarida tibbiyot bo'yicha maslahatlar chop etishdan hayiqmas-di-yu, ammo yonidagi bir varaq qog'ozga o'zining naqadar xudbin va olchoq ekanligini yozishga jur'at qilolmasdi.

Qarshimdagi bu janob esa, allaqancha ishchi va asboblarga ega odam, haromdan haq olish-

da ustasi farang, haqiqatni aytganda, tarbiyasiz bir xo'jayin; manavi hokim bilan oliy sud hakami ham xuddi shunday; uchalasi ham bitta tovoq-dan luqma yeishardi. Idealizmning go'zalliklari hamda Yaratganning marhamati to'g'risida jon kuydirib so'zlayotgan janob esa hozirgina biznes ishida o'z do'stlarini sotib kelgandi. Ibodatxonalar dahosiga aylanib qolgan mana bu kishi bo'lsa o'zini behad saxovatpesha qilib ko'rsatishga tarad-dudlanardi hadeb, holbuki uning xususiy magazinlarida kuniga o'n soatlab ishlaydigan bokira qizlarni ochlikdan sillasi qurigancha chunonam ishlatar, keyin esa to'ppa-to'g'ri fohishaxonalarga ravona qilardi. Oliy ta'lim boshqarmalaridan biring boshtag'i esa daromad solig'i bo'yicha sudda yolg'on guvohlik berib, ikki nafar begunoh nochorni nohaqdan-nohaq o'limga ro'baro' qilgandi.

Hamma joyda ahvol shu edi: jinoyat va xiyonat, xiyonat va jinoyat – jo'shqin odamlar bor edi-yu, ammo ular chinakamiga na pok va na oljanob edilar, illo pok va oljanoblari esa jo'shqin va haq-parast emasdilar. O'rtada notavon ulkan olomon ham turardi, ular na oljanob va na jo'shqin edilar, oz-moz halol edilar, xolos. Ehtimol hech kimni ayblab bo'lmas ham, jamiyat holatini uzil-kesillik yoxud ehtiyotkorlik bilan mutlaq bir yoqli qilib bo'lmaydi, bu beqaror va betizgin jarayon, lekin ayni damdag'i axloqsizlik, sharmisorlik, yuzsizlik hamda olchoqlik kabi illatlarga-da aslo sustkashlik bilan yo'l qo'yib bo'lmasdi. Zotan hali haqsevar, vijdonli, oliyhimmat insonlar tirik ekanlar, xiyonat va jinoyat dunyosi uchun foydali bo'lgan bor amallarni tag-tomiri bilan yo'qotib tashlash zarur edi.

Va nihoyat shuni anglab yetdimki, men jamiyatning bu singari hashamatli saroyi ichida yashashni istamas ekanman. Miyam juda og'rib ketgandi. Aqlan va ruhan bemorga aylanib qolgandim. Banogoh o'zimga safdosh, fikrdosh va qoldosh do'stlarim yodimga tushdi, yuzsiz voizlar-u vijdonsiz professorlardan ko'ra yuragimga o'zimning o'sha ongli, halol ishchi o'rtoqlarim azizroq edi, o'sha quyosh nuriga chulg'angan kunlarim, o'sha yulduzlar charaqlagan fayzli tunlarim xotiramni yoritdi, menga o'zim izlagan rostakam saodatni ato etadigan, mehr-u muhabbat hamda xokisor hayot nafasi ufurib turgan jannatiy go'shamni behad sog'indim. Yolg'iz shu sog'inchgina kuygan dilimga tunganmas harorat bag'ishlab turardi. Kelajakka boqarkanman, endi meni oldinda hamisha yaraqlab, hamisha porlab turuvchi qutlug' kunlarim kutayotganiga astoydil umid qildim.

O'zlikka qaytish

Shunday qilib, o'zim tug'ilib o'sgan oilaga, soddagina ishchilar davrasiga qaytdim. Ortiq tepega ko'tarilish to'g'risida o'ylamay qo'ydim. Bir paytlar o'zini ko'z-ko'zlab boshim uzra tovlangan mahobatli saroy shu tobda ko'nglimga hech qanday havas o'tini solmadi. Qasr ichidagi botqoqlik, chirkin muhit – aqlimni kirgizdi. Zotan endi o'z qollarim bilan, shu muskul dor bilaklarim bilan, shu qoldosh, fikrdoš do'stlarim yonida yelkama-yelka turib, hammamiz birgalikda, o'zimizning muhtasham saroyimizni quramiz. Biz yaratgan

qasr ichida aslo chirik hayot sarqitlari, tiriklayin yerga ko'milgan jonlar nolasi, vahshatli xudbinlig-u badbin tushunchalar hukm surmaydi. Biz eng avvalo zax yerto'lalarni yaxshilab tozalaymiz va u yerda odamzot uchun yangi bir yashash makonini yaratamiz, u makonda hech qanday hasham, hech qanday jimjimali bezaklar bo'lmaydi, hamma xonalari musaffo va charog'on bo'ladi, **biz** nafas oladigan havoda esa poklik, olijanoblik, halollik harorati ufurib turadi hamisha. Axir chinakam hayot nafasi shunday bo'lmaydim?

Mana, men anglagan hayot.

Ertangi kundan shunday beadog' baxtiyor damlarni tiladim va ishondimki, tokim inson o'z nafsidan ko'ra nimanidir yuqoriq qo'yib, o'sha yuksak orzusi yo'lida kurasha boshladimi, shubhasiz, u albatta baxtli bo'ladi. Odam bolasining ana o'shanday saodatmand onlariga bog'langan ishonch tuyg'ularimni dilimga mahkam qilib tugib qo'ydim. Yana shunga amin bo'ldimki, ruhiy oromijonlik hamda xokisorlik hamma vaqt irkit mechkaylik, olchoqlik, tubanlikni zabit eta oladi. Mening esa bor e'tiqodim, bor mehr-u muhabbatim alaloqibat oddiy mehnatkash odamlar uchun fido bo'ldi. Zero, bir fransuz kishisi aytgani kabi: «Davr mashinasи doimo yog'och kovush ostida sado bergaydir, moylangan oyoq kiyim esa baribir toyib ketgusidir».

OQ SUKUNAT (*Hikoya*)

– Karmen yana ikki kun sudralishgayam yaramaydi.

Meyson muz parchasini tuflab tashlarkan, sho'rlik jonivorga bepisand qarab qo'ydi. Keyin itning panjalari orasida qotib qolgan muz bo'laklarini tishi bilan tozalay boshladи.

– Jimjimador laqabli qancha itlarga duch kelganman, odatda ular hech narsaga yaramaydilar, – u o'z ishini tugatib, itni nariga itardi. – Ular zaiflashadilar va oxir-oqibat harom qotadilar. Sen oddiygina Kasyar, Sivash, Xaski laqabli itlar bilan qandaydir ko'ngilsizlik yuz bergenini sira eshitganmisan? Hech qachon! Shukumga bir qaragin...

Ancha uzoqlashib qolgan ko'ppak birdan o'qday uchib egasiga sapchidi va baquvvat tishlari bilan Meysonning bo'g'ziga chang solmoqchi bo'ldi.

– Xayolingga nima keldi, a?

Boshiga qamchi dastasi bilan tushirilgan qattiq zarba itni qorga qulatdi. U bezovta qaltirar, so'yloq tishlari orasidan sarg'imtil so'lak tomchilar edi.

– Shuning uchun ham Shukumga qara deyapman-da, u xato qilmaydi. Garov boylashim mumkin, bir haftaga qolmay u Karmenni holdan toydiradi.

– Men bo'ssam, – so'zlandi Meylmyut Kid muzlab qolgan non bo'lagini gulxan ustida aylantirar

ekan, – garov o'ynaymanki, manzilga yetib bor-masimizdan burun Shukumni so'yib yeymiz. Sen bunga nima deysan, Ruf?

Hindu ayol qahvani Sovutish uchun idishga muz bo'lagini tashlar ekan, avval Meylmyut Kid-ga, so'ng eriga qaradi. So'ogra itlarga nazar soldi, biroq lom-mim demadi. Negaki, vaziyat shundoq ham ma'lum edi. Qarshilarida boshqa yo'l qolma-gandi. Ular yana ikki yuz mil yo'l bosishlari kerak. Ovqatlari ko'pi bilan olti kunga yetadi. Itlarga esa beradigan yegulikning o'zi yo'q...

Ikki ovchi va ayol gulkanga yaqin o'tirib nochor-larga xos tarzda nonushta qila boshlashdi. Itlarni chanadan bo'shatishmadi, bu shunchaki qisqa muddatli tanaffus edi, jonivorlar odamlar og'zida-gi har bir luqmani adovat bilan kuzatishardi.

– Ertadan boshlab nonushta ham yo'q, – dedi Meylmyut Kid. – Keyin itlardan ko'z uzmaslik kerak. Ular bizga bo'ysunmay qo'yishdi. E'tiborsiz bo'lsak, payt poylab tashlanib qolishlari hech gap emas.

– Men esa bir paytlar uslubchilar tashkilotini boshqarib, yakshanba maktablarida dars ber-ganman.

Nima uchundir bu mavzuda so'z ochgan Mey-son mokasinlarini¹ tomosha qilganicha o'ya cho'ngandi. Ruf unga qahva uzatib, xayollar changalidan ozod etdi.

– Xudoga shukr, hozircha bizda choy bor. Men hovlimizza, Tennessida, choyning qanday o'sishi-ni ko'rghanman. Ayni paytda issiqqina jo'xori noni uchun nimalarni bermasdim-a? Qayg'urma, Ruf,

¹ Mokasin – hindularning teridan ishlangan oyoq kiyimi.

yana ozgina qoldi, shundan so'ng ochlikdan qutulasan, mokasin kiyib yurishga ham hojat qolmaydi.

Bu so'zlardan keyin ayol ortiq xo'rsinmay qo'ydi. Ko'zlarida oq tanli xo'jayiniga bo'lgan muhabbat uchqunlari porlay boshladi. Meyson u duch kelgan birinchi oq tanli odam, unga ayol siymosida qandaydir yoqimsiz hayvonni emas, o'zgacha bir xilqatni ko'rish ham mumkinligini anglatgan birinchi erkak edi.

– Ha, Ruf, – eri ikkovlarigina tushunadigan tilda davom etdi, – tez orada biz bu yerlardan qu tulamiz, oq tanli kishining qayig'iga o'tirib olamiz-da, Sho'r suv bo'ylab suzib ketamiz. Ha, bu yoqimsiz, ayqirgan suv – misoli suvdan bunyod bo'lgan tog'lar gohi yuqoriga, goh pastga silji-yotgandek tuyiladi. Bu suv behudud, unda uzoq suzishga to'g'ri keladi! O'n uyqulik, yigirma, yo'q, qirq uyqulik yo'l, – aniq hisoblash uchun Meyson kunlarni barmog'ida sanardi, – hamma vaqt suvni, yoqimsiz suvni ko'rasan. Keyin katta dun-yoga yetib boramiz, odamlar ko'p, yozgi botqoq pashshalari singari hamma teng. Kulbalar shu qadar balandki, o'n, yo'q, yigirmata qarag'ayni ustma-ust qo'ygandek! Eh-he!

U so'z topolmay jimb qoldi. Va shafqat so'ragandek Meylmyut Kidga boqdi. So'ng hafsala bilan yigirmata qarag'ayni qanday qilib ustma-ust joylashtirish mumkinligini qo'llarida ko'sata boshladi. Meylmyut Kid istehzoli kului, Rufning ko'zları hayrat va baxtdan chaqnab turardi. Ayol erim hazillashyapti deb o'ylagan va bu iltifot sho'rlik ayol qalbini to'lqinlantirayotgan edi.

– Keyin esa qutiga o'tirib olamiz va... jo'nab ketamiz. – Meyson so'zlariga izoh bergen kabi bo'sh

krujkani havoga otdi va chaqqonlik bilan ilib olib qichqirdi: – Mana, bir zumda yetib keldik! Ey, ulug' shomonlar! Sen Fort – Yukonda yurasan, men Arktik-Sitida bo'laman. Oramiz yigirma besh uyqulik yo'l. O'ttamizda uzun arqon, men arqoning bir uchidan ushlab olib, senga gapiraman: «Allo, Ruf, qalaysan?» Sen javob berasan: «Senmis-san, erginam?» Men «Ha» deyman. Sen yana gapi-rasan: «Non pishirolmayapman, soda qolmabdi». Shunda men javob beraman: «Qaznoqni qaragin, un qopining orqasida turgan edi. Xayr». Sen qaz-noqqa borasan va keragicha soda olasan. Va bu paytda sen Fort Yukonda, men esa Arktik-Sitida bo'lamiz. Shomonlar shunday qudratli!

Ruf bu sehrli ertakni tinglab, shunday samimiy jilmaydiki, erkaklar kulaverib dumalab qolishdi. Bir-birlarini g'ajishga urinayotgan itlarning shov-qini olisdagi mo'jizakor o'lda haqidagi hikoyani bo'lib qo'ygan edi. Ular itlarni ajratishga urinayotganlarida ayol chanalarini birlashtirishga ulgur-gan, yo'nga tushish uchun hamma narsa shay edi.

Meyson qamchini epchillik bilan sermadi, itlar sekin harakatga tushib arqonni torta boshlagach aylantirgich tayoqni mahkamlaladi. Shu tarzda muzga yopishib qolgan chanalar joyidan qo'zg'ala boshladi. Ruf ikkinchi chana bilan erining ortidan borar, Meylmyut Kid esa unga yordamlash-gan ko'yi saf oxirida harakatlanar edi.

Ho'kizni ham bir zarb bilan o'rnidan qo'zg'atishga qodir bo'lgan bu baquvvat va shafqatsiz odam itlarni qamchilamas, ularni qo'lidan kelgancha avaylashga urinardi, bu esa Shimol sayohatchi-larining odatlariga mos kelmasdi. Bir safar Meyl-

myut Kid bechora jonivorlarning ahvoliga qarab, hatto yig'lab yubordi.

– Qani, olg'a, oqsoqlar! – ming'irlab qo'ydi u og'ir chanalarni qo'zg'atish uchun qilingan behuda urinishlardan so'ng.

Nihoyat uning bardoshi munosib taqdirlandi, og'riqdan biroz itoatkor bo'lib qolgan itlar o'z safdoshlarini quvib yetish uchun harakatga tushdilar.

Suhbat tindi. Mashaqqatli safar yo'li bunga imkon bermas edi. Shimol bo'ylab yurish – og'ir, halokatli mehnat. Bunda faqat orsizlarcha sukut saqlab yo'l qiyinchiliklarga dosh bergen yoki o'zi uchun yangi so'qmoqni kashf eta olgan insongina baxtlidir.

Dunyoda yangi yo'l ochish kabi odamni holdan toydiradigan yumush bo'lmasa kerak. Keng, to'qima chang'ilalar har qadamda yemiriladi, oyoqlar tizzagacha qorga botadi. Ana undan so'ng oyoqni ehtiyotkorlik bilan sug'urib olish zarur. Tik yo'ldan dyuymning arzimas bo'lagicha chetga chiqish ham kulfat keltiradi. Negaki hali channing yuqori qismi qordan forig' bo'lмаган. Bu holda oldinga bir qadam tashlaysan va eng kamida yarim yard chuqurlikdagi ikkinchi oyog'ingni ko'tarishga urina boshlaysan. Birinchi bo'lib yo'l ochayotgan odam esa, hatto shungacha chang'ilalarini bir-biriga urib olmagan va xiyonatkor qorga ishonib bor bo'yi bilan qulamagan bo'lsa-da, yuz yarddan keyinoq holdan toyib yiqlidi.

Bunda kun bo'yi biror marta itlar oyog'i ostida qolmagan odamgina toza vijdon va g'urur bilan uyqu qopiga kirishga loyiq edi. Buyuk Shimol so'qmog'i bo'ylab yigirma besh uyqulik yo'l bosgan kishiga esa hatto Ilohlar ham havas qilishardi.

Kun shomga tutashdi. Oq sukunat zalvaridan ezilgan yo'lovchilar tushkun va jim tarzda yo'l ocha boshladilar. Tabiatda insonga o'zining foniylarini anglatishning turli usullari mavjud: suv sathining beto'xtov ko'tarilib-pasayishi, bo'ron vahshati, qo'rqinchli yer silkinishlari, osmon artelleriyasining vahmali guldiraklari. Biroq eng kuchlisi, eng qayg'ulisi – Oq sukunat va uning beparvoligidir. Qimirlagan jon ko'rinxmaydi. Havo sayqal berilgan mis' kabi tiniq, bunda hatto ojiz shivirlagan ovoz ham shakkoklik bo'lib tuyiladi va inson hatto o'z tovushidan ham qo'rqedir.

Tiriklikning bu yagona zarrasi, o'lik dunyoning xayoliy sahrosi bo'ylab harakat qilarkan, o'zining bor-yo'g'i ojiz bir qurt ekanini anglaydi va o'z jasoratidan qo'rquvga tushadi. Bunda o'z-o'zidan tushuniksiz fikrlar tug'iladi. Tiriklik sirlari o'z ma'nosini izlaydi. Inson shuurini O'lim, Yaratguvchi va Yorug' Dunyo qarshisidagi qo'rquv hissi, ayni paytda – tirilish umidi, hayot va umriboqiylik qayg'usi, zanjirband ongning behuda urinishlari ishg'ol qiladi! Demak, inson qachonlardir o'z Yaratuvchisi bilan yuzma-yuz qoladi.

Kun shomga tutashdi. Bu yerda daryo o'zani keskin burilgan edi, Meyson tuyulishni kesib o'tish uchun chanasini tor burunga tomon boshladi. Biroq itlar qancha urinmasin, tepalikka ko'tarila olishmasdi. Ruf va Meylmyut Kidning bor kuchlari bilan itarishlariga qaramay, chanalar nuqul ortga sirpanib ketardi. Yana bir alamli urinish... Badbaxt, ochlikdan sillasi qurigan jonivorlar so'nngi kuchlari bilan tortildilar. Beto'xtov urinishlardan so'ng chanalar qirg'oqqqa chiqib oldi. Lekin

kutilmaganda yo'lboshchi it o'ng tomonga tortib ketdi, chana esa Meysonning chang'ilariga borib urildi. Natija juda qayg'uli edi. Meysonning oyog'i chiqib ketdi, arava qayishiga o'ralashib qolgan itlardan biri qorga quladi, chanalar esa xomutlarni ergashtirganicha pastga sirpanib borar edi.

Qamchining qars-qurs etgan ovozi eshitildi, kaltakning ko'pi yiqilib qolgan itning chekiga tushdi.

– Bo'ldi qil, Meyson! – oraga tushdi Meylmyut Kid. – Bechora shusiz ham jon beray deb turibdi. To'xtab tur, hozir menikilarni qo'shamiz.

Meyson u gapirib olguncha kutib turdi – uzun qamchi aybdor it atrofida o'ralib aylana hosil qilgandi. Bu Karmen edi. U shikoyat qilgansimon angilladi, qorga yotib oldi, so'ng qiyinchilik bilan yonboshiga ag'darildi.

Bu yo'lovchilar uchun og'ir, mashaqqatli daqiqa edi: it jon beryapti, ikki do'st o'zaro janjallashmoqda. Ruf ularga navbatи bilan yalingansimon boqardi. Biroq ko'zlarida achchiq ta'na aks etib tursa-da, Meylmyut Kid o'zini vazmin tutar, itning oldida cho'kkalab olganicha qayishlarni kesar edi. Yo'lovchilardan hech biri og'iz ochmadi. Chanalarни birlashtirishdi. Ular tepalikka chiqib olishgan edi. Yana yo'lga tushishdi.

Karmen so'nggi kuchini to'plagan ko'yи eng orqada sudralardi. Itning yurishga layoqatli yetsa uni otib tashlashmaydi, unda hayot uchun oxirgi imkoniyat qoladi; u ham bo'lsa qo'nimgohga yetib kelish, bu yerda esa ehtimol odamlar los ovlashar...

O'z qilmishidan pushaymon, biroq qaysarligi bois buni tan olishni istamayotgan Meyson oldin-

da borar va yuz berajak xatar haqida o'ylamasdi. Ular qalin butazorni oralab pastqamlikka yetib kelishdi. Yon tomonda, ellik futcha narida keksa qarag'ay qad rostlab turardi. U bir asrdan buyon shu yerda turar va taqdir bir asrdan buyon unga, bir paytning o'zida Meysonga ham kutilmagan intiho hozirlayotgan edi.

Meyson mokasinining bo'shashib qolgan iplarini bog'lash uchun bir muddat to'xtadi. Chanalar harakati tindi, itlar jimgina qor ustiga ch'zildilar. Tevarakda mudhish jimjitlik hukmron, qor qoplagan o'rmon uzra jon asari sezilmashdi. Sovuq va sukunat yurakni muzlatar va bir zum tabiatning titroq shivirlarini bo'g'ib qo'yardi.

Birdan havoga xo'rsingansimon sas taraldi. Ular avvaliga buni eshitishmadi, lekin tez orada bu sas ruhsiz sahrodag'i harakat nishonasi ekanini ilg'ab qolishdi. Mana, yillarning cheksiz jabr-usitamlari va qor zalvari ostida bukilgan ulkan daraxt o'zining hayot fojiasidagi so'nggi rolini o'yndi. Meyson qasir-qusur ovozlarini eshitdi, yon tomonga sakramoqchi bo'ldi, biroq qaddini rostlashga ham ulgurmadi – yelkasiga zarb bilan urilgan daraxt butun tanasini bosib tushdi.

Kutilmagan xatar, oniy ajal – Meylmyut Kidularning har ikkisi bilan ham tez-tez to'qnashardi! Daraxtning igna barglari hali qimirlab turar, u esa ayolga ko'rsatma berib, do'stiga yordamga yetib kelishga ulgurgan edi. Hindu ayol hushdan ketib yiqlmadi yoxud o'zining oq tanli opa-singillari singari besamar ko'z yoshlarini to'kmadi. Meylmyut Kidning ilk so'zlarini eshitgandayoq, erining ingrashiga qulqoq tutgan holda tanasining butun og'irligini tayanch moslama vazifasini ba-

jaruvchi tayoq ustiga tashladi. Meylmyut Kid esa bolta bilan daraxtni chopcha boshladi. Daraxtning muzlagan tanasiga urilgan po'lat quvnoq jarangladi, Meylmyut Kidning zo'riqqan, og'ir nafasi bolta zarbasi bilan birga eshitilardi..

Nihoyat Kid yaqindagina inson shaklida bo'lgan ayanchli qoldiqlarni qor ustiga qo'ydi. Biroq ayolning yuzidagi unsiz motamsarolik va uning nadomat-u umidvorlikka to'lgan ko'zlari do'stining qiyinalishlaridan ko'ra dahshatliroq edi. Bir necha so'z aytildi, xolos. Shimol aholisi so'zning behudaligi va hamma vaqt harakatda bo'lishning tengsiz qiymatini boshqalardan oldinroq anglashadi.

Naq oltmis besh daraja sovuqda insonning qor ustida uzoq yotishi mumkin emas. Ular chana-naga bog'langan arqonlarni kesib olishdi, sho'rlik Meysonni hayvon terisiga o'rabi, shox-shabbalar dan yasalgan to'shak ustiga yotqizishdi. Gulxan alanga oldi. Yoqilg'i uchun o'sha, baxtsizlikka sabab bo'lgan daraxt ishlatildi. Gulxan tepasiga ibtidoiy usulda parda o'rnatildi: dag'al kanop mato bo'lagini issiqlikni yaxshi ushlab turishi va pastga qaytarishi uchun tarang tortib bog'lashdi. Bu fizik usulni odamlar tabiatning o'zidan o'rgangan va faqat ulargagina xos edi.

O'lim to'shagida yotib ko'rmaganlar uning chorlovini tez ilg'ashadi. Meysonning butun tanasi shikastlangan edi. Bu bir qarashdayoq ma'lum edi: o'ng qo'li, beli va umurtqasi singan, oyoqlari ishdan chiqqandi, ichki a'zolarining ezilgani ham ehtimoldan yiroq emasdi. Har zamonda ingrab qo'yishigina bechoraning hali tirik ekanidan drak berardi.

Hech qanday umid yo'q edi, biror narsa qila olmasdilar. Beshafqat tun sekin yaqinlashmoqda edi. Ruf uni o'z millatiga xos tarzda sokin bir tushkunlik ila qarshilar, Meylmyut Kidning bug'doymrang yuzidagi ajinlar esa ko'paygan edi. Mohiyatan olib qaraganda, boshqalarga nisbatan kamroq jabr ko'rgan odam Meyson edi. U allaqachon xayolan Sharqiy Tennessida, Buyuk Tumanli tog'larda yurar va o'z bolaligini qaytadan yashayotgan edi. Quloqlariga allaqachon unutilgan janubiy shaharning ta'sirchan ohanglari eshitilardi. U alahlar, ko'lda cho'milgani, yenot oviga borgani, tarvuz o'g'irlash uchun yelib-yugurganlari haqida gapirar edi. Bu ovozlar Rufga tushuniksiz alahsirash bo'lib tuyilar, biroq Kid hammasini anglab turar, Meysonning har bir so'zi uning yuragini ezardi – bu tuyg'uni uzoq yillar hamma narsadan mosuvolikda yashagan, har lahzada sivilizatsiyaning chorlovini eshitib turgan insongina his qilishi mumkin.

Olim bo'sag'asidagi odam tong payti hushiga keldi, Meylmyut Kid esa uning pichirlashlariga yaqinroqdan quloq solish uchun engashdi:

– Eslaysanmi, biz Tananda qanday uchrashgan edik. Bu yilgi shovush davrida shu voqeaga ham to'rt yil bo'ladi... O'sha kezlari men Rufni unchalik sevmasdim, u shunchaki yoqimtoga edil... Shuning uchun unga maftun bo'ldim. Keyinchalik esa butunlay bog'lanib qoldim. U yaxshi rafiqqa edi, og'ir damlarda hamisha yonimda bo'lardi. Bu esa bizning ishimizda juda muhim, o'zing bilasan, bu borada unga teng keladigani yo'q... Eslaysanmi, u Bug'i shoxi qoya-

siga qanday suzib kelgan, suv yuzasiga beto'xtov urilayotgan o'q yomg'iri ostidan bizni qanday qutqargan edi? Nuklukaytodagi ocharchiliknichi? U muz ustida qanday yugurardi, bizga xabar yetkazish uchun qanchalar shoshilar edi-ya? Ha, Ruf menga ba'zi ayollardan yaxshiroq rafifa bo'ldi. Sen mening oldin ham uylanganimni bilarmiding? Senga bu haqda aytmovmidim? Ha, shtatlarda, hali uyda ekanimda, oilali inson bo'lishga urinib ko'rganman. Bu yerlarga kelib qolishimning sababi ham shunda. Axir men birinchi rafiqam bilan birga ulg'aygan edim. Unga ajralish imkonini berish uchun ham jo'nab ketdim. U istaganiga erishdi. Ruf boshqa masala. Men bu yerdagi ishlarimni bitirib, kelgusi yili u bilan birga jo'nab ketmoqchi edim. Biroq endi bu haqda so'zlashga kech bo'ldi. Rufni orqaga, o'z qabilasiga jo'natib yuborma, Kid. U yerda unga juda og'ir bo'ladi. O'ylab ko'r, to'rt yilga yaqin vaqt ichida biz bilan loviya, dudlangan go'sht, non va quritilgan mevalarni yeb yashasa-yu, keyin yana baliq va bug'u go'shtiga moslashgan hayot tarziga qaytsa! Anchayin yengil turmush tarzi borligi haqida bilish, unga ko'nikish, keyin esa eskicha hayotiga qaytish juda og'ir bo'ladi. Unga g'amxo'rlik qil, Kid... Nima uchun senga aytyapman... ey yo'q... axir sen hamma vaqt ayollardan uzoqroq yurasan. Men haligacha bu yerlarga nega kelib qolganingni bilmayman. Unga rahming kelsin, uni Shtatlarga iloji boricha tezroq jo'natib yubor. Biroq vatanini sog'insa, qaytishiga yordam ber.

Farzand... U bizni yanada yaqinlashtiradi, Kid. Umid qilamanki, u o'g'il bo'ladi. Bir o'ylab ko'r-

gin-a, Kid. U mening pushti kamarimdan yaratadigan jon. Uning bu yerlarda qolishi mumkin emas. Agar qiz bola bolsa... yo'q, bunday bo'lishi mumkinmas. Menga tegishli terilarni sot. Ular uchun anchagina pul olishing mumkin. Tashkilotda ham ulushim bor. Ishlarimizni yo'lga qo'y. Umid qilamanki, bizning talabnomamiz o'zini oqlaydi. Bolamga yaxshi ta'lim ber, eng muhimi, Kid, u hech qachon bu yerlarga qaytmasin. Bu joylar oq tanli odam uchun emas.

Mening qo'shig'im tugadi, Kid. Baxtli tasodif holatida ham uch yoki to'rt kun qoldi xolos. Sizlar ketishingiz kerak. Siz olg'a ketishingiz shart! Yodingda tut, ular mening rafiqam va o'g'lim... Ey Xudoyim, faqat o'g'il bo'lsin! Yonimda qolmanglar. Men jo'nab ketishingizni buyuraman. Jon berayotgan odamga qulq solinglar!

– Menga uch kun muhlat ber, – o'tindi Meylmyut Kid. – Balki ahvoling biroz o'nglanar, axir hammasi qanday tugashi hozircha noma'lum-ku!

– Yo'q.

– Faqat uch kun.

– Ketinglar.

– Ikki kun.

– Ular mening rafiqam va o'g'lim, Kid.

– Bir kun.

– Yo'q! Buyuraman!

– Jillaqursa bir kun muhlat ber. Biz bir amallab ovqat topamiz. Balki men los ovlarman.

– Yo'q! Xo'p, mayli... bir kun, ortiq bir daqiqa ham so'rama. Ha, yana, Kid, yolg'izlikda jon berishimga yo'l qo'yma. Birgina o'q, faqat bir martagina tepkini bosish kifoya. Tushundingmi? Buni

yodingda tut. Eslab qol! Mening zurriyodim, men uni ko'rolmayman... Rufni yonimga chaqir. Men u bilan xayrlashmoqchiman. Unga o'g'limiz haqidagi o'ylashi kerakligini, jon berishimni kutib o'tirmasligini aytaman. U sen bilan birga ketishga ko'nmaydiganlar toifasidan emas. Alvido, do'stim, alvido! Kid, to'xta... boyagi joyni chuqurroq qazish kerak, uqdingmi? Men u yerda har safar qirq sentdan to'plab qo'yardim. Yana bir narsa, Kid...

Meylmyut Kid jon berayotgan, g'ururini jilov-lagan insonning so'nggi iqrorlarini ilg'ab olishga urindi:

– Meni kechir... nima uchunligini bilasan-a. Carmen uchun!

Ko'z yoshi to'kayotgan ayolni erining yonida qoldirgan Meylmyut Kid parkasini egniga ilib, chang'ilarini kiydi va miltig'ini yelkalagan ko'yi o'rmon ichkarisiga kirib ketdi. Bu uning beshafqat Shimol bilan birinchi to'qnashuvi emasdi, biroq hech qachon uning zimmasiga bu qadar mashaqqatli yumush yuklanmagan edi. Umuman olganda, bu oddiy arifmetika edi: uch umr bittasiga, ya'ni o'limi muqarrariga qarshi. Biroq Meylmyut Kid ikkilanmoqda edi. Uni Meyson bilan besh yillik do'stlik rishtasi bog'lab turardi. Ular qidiruvlar va qarorgohlarda, so'qmoqlar va daryo bo'y lab qilingan safarlarda, ovda, ochlik paytlarida, tosh-qin mahali yelkama-yelka turib qarshi olingan o'lim xavfi chog'ida ham birga edilar. Munosabatlari shunchalik mustahkam ediki, Ruf oralarida paydo bo'lgan ilk kundanoq u qalbida ayolga nisbatan g'alati rashk hissini tuygan edi. Endi esa bu munosabatni o'z qo'llari bilan uzishi lozim.

U samodan unga bitta, birlgina losni jo'natishni o'tina boshladi. Biroq hayvon mamlakatni tark etganga o'xshardi. Meylmyut Kid kechqurun holdan toyganicha quruq qo'l va yuragidagi og'ir yuk bilan qaytib keldi. Itlarning qulqoni batang qiladigan darajadagi vovullashi va Rufning chinqirgan ovozi uni tezroq yurishga undar edi.

Meylmyut Kid qo'nimgohga yetib kelganida, hindu ayol atrofida irillayotgan to'daning hujumini bolta bilan qaytarayotgandi. Itlar, xo'jayinlarining temir qonunini buzib, ovqat zaxirasi ga tashlangan edilar. Kid miltiq qo'ndog'i bilan o'qtalganicha yordamga shoshildi, shu on tabiy tanlanishning qadimiy fojiasi o'zining ibridoiy shafqatsizligi ila namoyon bo'ldi. Miltiq va bolta navbati bilan ko'tarilib tushar, goh mo'ljalga tegib, goh tegmasdi. Itlar to'lg'anib o'zlarini har tomonga tashlashar, ko'zlarida g'azab o'ti yonar, irjaygan jag'lari orasidan so'lak tomchilar edi. Inson va hayvon hukmronlik uchun jazava bilan kurashar edi. Ko'p o'tmay, mag'lub bo'lgan itlar yaralarini yalagan ko'yi yulduzlarga arz etgansimon uvlab gulxan yonidan uzoqlashishdi.

Qoqbaliq zaxirasi talon-toroj qilingan edi, oldindagi ikki yuz chaqirimdan oshiq yo'l uchun besh funtga yetar-yetmas un qolgandi. Ruf eri yoniga qaytdi, Meylmyut Kid esa boshi bolta zarbidan majaqlangan itlardan birini halollab, hali sovib ulgurmagan go'shtni bo'laklay boshladi. Keyin go'sht bo'laklarini ishonchli joyga berkitdi, teri va ichak-chavoqlarni esa o'ldirilgan itning sobiq do'stlari oldiga tashladi.

Tongni yangi tashvishlar bilan qarshi oldilar. Ochlik changaliga tushgan itlar bir-birlarini g'ajis-

shardi. Bu vahshiy to'da kutilmaganda hali ham hayotga intilayotgan Carmen ustiga tashlandi. Bu safar qamchining ayovsiz zarbalari ham naf ber-madi. Har safar qamchi ko'tarilganida itlar angilla-gancha yerga qapishib olishardi. Biroq to'da tarqal-ganda Karmendan na bir bo'lak teri va na suyak qolgandi.

Meylmyut Kid yana xayolan Tennessida yur-gan, uzuq-yuluq so'zları bilan hamrohlarini ne-largadir undayotgan Meysonning alahlashlariga quloq tutgancha ishga kirishib ketdi.

Yaqinginalarida qarag'aylar qad rostlab turar-di, Meylmyut Kid ishini tezda tugalladi. Ruf uning ovqat zaxirasini itlardan saqllovchi ibtidoiy yukxo-na yasashini kuzatib o'tirar edi. U ikkita daraxt-ning shoxini yergacha egiltirdi va bug'u terisidan eshilgan arqon bilan bir-biriga mahkam bog'ladi. So'ngra, itlarni qamchi bilan bo'y sundirib, arava-ga qo'shdi. Unga bechora Meyson o'rab qo'yilgan teridan bo'lak hamma narsani joylashtirdi. Meyl-myut Kid do'stining tanasini arqon bilan tang'idi, arqonning boshqa uchini esa qarag'ayning tepe shoxiga bog'lab qo'ydi. Zarur bo'lgan paytda pi-choqni bir marta sermashning o'zi kifoya edi. Qarag'aylar lahzada qad rostlab Meysonning tanasi-ni balandga ko'tarar edilar.

Ruf itoatkorona tarzda erining so'nggi tilagiga quloq tutar, sho'rlik ayolni itoatga o'rgatishning hojati yo'q edi. U hali qizaloqlik chog'idayoq erkak kishi oldida, butun tiriklik hukmdori qarhisida ta'zim qilar edi. Ruf eridan so'nggi bor bo'sa ola-yotgan paytda Kid uni yupatishni lozim ko'rmadi. Bu odat uning xalqiga begona edi. Keyin esa ayol-ni oldindagi chanaga boshlab keldi va chang'ilari-

ni kiyib olishiga ko'maklashib yubordi. Ruf so'qir odam singari ixtiyorsiz tarzda yo'g'on xoda ustiga joylashdi, qamchini sermab itlarni haydaganicha yo'lga tushdi. Shundan so'ng Kid hamon behush yotgan Meyson oldiga qaytdi. Ruf allaqachon ko'z-dan g'oyib bo'lgan, u esa gulxan yonida do'stining o'limini kutar va ajalning tezroq kelishini so'rab iltijo qilardi.

Oq sukunat ichra alamlı o'ylar bilan yolg'iz qolmoq oson emas. Zulumot sokinligi muruvvatli, u go'yo insonni ko'z ilg'ammas hissiyotlar ila ilitib himoya qilayotganga o'xshaydi. Biroq po'lat tusli osmon ostida beparvo yastanib yotgan Oq suku-nat sovuq va shafqatsiz edi.

Oradan ikki soat vaqt o'tdi hamki, Meyson hamon tirik edi. Kun yarmida, hali usqda quyosh ko'rinxay turib osmon yorishdi, biroq tez orada atrof yana qorong'ulikka burkandi! Meylmyut Kid og'ir majburiyat yuki ostida Meysoning tepasi-ga kelib chor tomonga alangladi. Oq sukunat uni tahqirlayotganga, ustidan ayovsiz kulayotganga o'xshardi. Uning yuragini qo'rquv hissi chulg'adi...

Lahza o'tmay qisqa o'q ovozi yangradi. Meyson yuksakka, o'zining samoviy qabristoniga ko'tarildi. Meylmyut Kid esa itlarni jon-jahdi bilan qam-chilagan ko'yi qorli sahro uzra yelib ketdi.

HAYOTGA MUHABBAT

Ular oqsoqlanib soyga tomon tushib borardilar. Hamrohlardan biri, oldinda borayotgani toshloq yerda qoqilib gandiraklab ketdi. Ikkalasi ham charchab holdan toygan va tishni-tishga qo'yib taqdirga tan bergenliklari yuzlaridan ko'rinib turardi – bu uzoq vaqt chekkan qiyinchiliklari oqibati edi. Orqalaridagi qayish bilan tortib bog'langan og'ir yuklari yelkalarini ezardi. Ikkalasida ham bittadan miltiq. Ikkalasi ham bukchayib ko'zlarini yerdan uzmay borardilar.

– Qani endi yashirib qo'ygan joyimizdag'i o'qlardan hozir ikkitaginasi bo'lsa, – deb qo'ydi ulardan biri.

Azbaroyi madorsizlikdan ovozi zaif chiqdi. U juda behafsala gapirdi. Toshlarga urilib, ko'piklanib oqayotgan sutdek oppoq suvga endi oyoq bosgan sherigi esa unga javob bermadi.

Ikkinchisi ham sherigi orqasidan suvga tushdi. Suv muzdek sovuq bo'lishiga qaramay ular oyoq kiyimlarini yechmadilar. Suv shu qadar sovuq ediki, oyoqlari barmoqlarigacha uvishib qoldi. Ba'zi joylarda suv tizzadan kelardi. Shunda suv shitob bilan urganda, ular o'zlarini tutolmay, gandiraklab ketardilar.

Orqada kelayotgan yo'lovchi silliq toshga tiyganib ketib, yiqilishiga oz qoldi, og'riqdan qattiq ixrab yubordi, ammo yiqilmadi. Boshi aylandi, shekilli, munkib ketib, xuddi havodan madad

so'raganday, bo'sh qo'lini oldinga cho'zdi. O'zini o'nglab oldi-da, oldinga qadam bosdi, lekin yana toyib ketib, yiqilishiga sal qoldi. Shundan keyin, to'xtab sheringiga qarab qo'ydi: u esa orqasiga ham qaramay, hamon oldinga intilayotgan edi.

Birpas qimirlamay turdi, keyin:

– Menga qara, Bill, oyog'imni chiqarib oldim, shekilli! – deb qichqirdi.

Bill oyoqlarini sudrab, sutdek oppoq suvdan kechib borardi. U orqasiga biror marta ham qayrib qaramadi. Sherigi uning orqasidan qarab turardi. Uning yuzi avvalgidek hech narsani ifoda qilmasa-da, ko'zlarida yaralangan bug'u singari chuqur qayg'u ifodasi aks etdi.

Mana, Bill qarshi qirg'oqqa o'tib oldi-da, kallovlanib yurib ketdi. Suvning o'tasida turgan hamrohi undan ko'zini olmay qarab turdi. Uning lablari shu qadar titrar ediki, o'siq sariq mo'ylovi uchib-uchib ketardi. U tilining uchi bilan qovjiragan lablarini bir yalab oldi-da:

– Bill! – deb qichqirdi.

Bu falokatga yo'lliqqan odamning jon achchig'i-dagi qichqirig'i edi, ammo Bill qayrilib ham qaramadi. U esa ilgarilab ketgan sheringining orqasidan uzoq vaqt qarab turdi: sheringi lapanglab, oqsoqlanib, qoqinib-suqilib, tepalikda ko'ringan egri-bugri chiziqlar tomon asta-sekin ko'tarilib borardi. Bill to tepalikni oshib, ko'zdan g'oyib bo'lguncha, sheringi orqasidan qarab turdi. Shundan keyin u tarafdan ko'zini uzdi-da, Bill ketgandan keyin yolg'iz o'zi qolgan yerni bir-bir ko'zdan kechirib chiqdi.

U butun og'irligini bir oyog'iga solib turib, soyatini oldi, soat to'rt edi. So'nggi ikki hafta ichida

u hisobni yo'qotib qo'ydi: iyulning oxiri yoki avgustning boshlari bo'lganligi sababli quyosh shimal-g'arbda bo'lishi kerak edi. U janub tomonga qaradi. Mana shu ko'rimsiz tepalik orqasida, allaqayerdadir, Katta Ayiq ko'li bor, xuddi o'sha tomonda Kanada sahrosidan mudhish Shimoliy Qutb doirasi o'tadi, deb o'ylab qo'ydi. U turgan soy Kappermayn daryosining irmog'i, Kappermayn esa shimol tomonga oqib, Koronatsiya ko'rfazi-ga, Shimoliy Muz dengiziga quyiladi. Uning o'zi u yerlarga hech qachon bormagan, lekin buning hammasini Gudzon ko'rfazi kompaniyasining xaritasida ko'rgan edi.

U o'zi yolg'iz qolgan joyini yana bir marta ko'zdan kechirdi. Tevarak-atrof jimjit, ko'rimsiz edi. Na daraxt, na buta, na o't-o'lan ko'rindi - po-yonsiz va dahshatli sahrodan boshqa hech narsa yo'q. Uning ko'zlarida qo'rquv ifodalari ko'rindi.

- Bill! - deb pichirladi. - Bill! - deb takrorladi u yana ketidan.

Poyonsiz sahro go'yo qudratli kuchi bilan bosayotganday, o'zining mudhish sokinligi bilan ezayotganday bo'ldi: u loyqalanib oqayotgan soy o'rtasida cho'qqayib o'tirib qoldi. U xuddi bezgak tutayotgandek qaltirab ketdi, shu payt miltig'i shalp etib suvga tushdi. Bu uni o'ziga kel-tirdi. U qo'rquvni yengib, es-hushini yig'di, keyin qo'lini suvga tiqib, piypasladi-da, miltig'ini topdi. So'ng mayib oyog'iga og'irlik kamroq tushsin deb, yukni chap yelkasiga oldi-da, og'riqdan basharasini burishtirib, juda ehtiyyotlik bilan asta-sekin qirg'oqqa tomon yurdi.

U to'xtamay yuraverdi. Og'riqqa sira parvo qilmay, Bill oshib o'tgan tepalik ustiga shosha-pisha

dadil chiqaverdi. Tepalikka chiqib qarasa, vodiyda hech kim ko'rinmadi. Uni yana qo'rquv bosdi, keyin qo'rquvni yengib, qopini chap yelkasiga yana ham ko'proq surib, oqsoqlanib-oqsoqlanib pastga tusha boshladi.

Vodiyning pasti suv bilan qoplangan edi. U har qadam bosganda suv sachrar, nam chimliqdan oyog'ini har ko'targanda, shalop-shulip etgan tovush chiqardi. U Billning izidan yurishga intilib, ko'loblarni aylanib o'tar yoki chimliqlarda xuddi orol singari cho'qqayib turgan toshlar ustidan borardi.

U yolg'iz qolgan bo'lsa ham yo'ldan adashmadi. Yana bir oz yurgandan keyin atrofini pastakkinna, nimjon, quruq pixta va archalar o'rab olgan kichkina Titchinichili ko'liga yetib borishini bilar-di, bu ko'lning nomi mahalliy tilda «Kichik og'ochlar o'lkasi» degan ma'noni anglatardi. Shu ko'lga bir ariq kelib quyiladi, suvi ham loyqa emas. Ariq bo'ylarida qamish o'sadi. Buni u yaxshi eslaydi – lekin u yerda daraxt yo'q. Shu yerdan g'arbga tomon boshqa bir ariq oqadi, shu ariq yoqalab u Diz daryosiga qadar boradi. Xuddi o'sha yerda to'nkarib, ustiga tosh bostirib qo'yilgan qayiqni topadi. U qayiqning ostida miltiq o'qi, qarmoq, qarmoq iplari, kichik bir to'r, umuman, ovqat to-pish uchun zarur bo'lgan narsalarning hammasi yashirib qo'yilgan. Bundan tashqari, o'sha yerda oz bo'lsa ham un, bir parcha go'sht, loviya bor.

Bill uni o'sha yerda kutib turadi, keyin ikkisi Diz daryosi bilan Katta Ayiq ko'liga boradilar, undan keyin ko'ldan o'tib janubga, to Makkenzi daryosiga yetib olguncha, janubga qarab borave-radilar. Janubga, hamma vaqt janubga qarab

boraveradilar, qish esa ularni quvib boradi. Tez oqar soy va jilg'alar muz bilan qoplanadi, sovuq tushadi, ular esa janubga, Gudzon ko'rfazidagi faktoriyalardan biriga yetib oladilar, u tomonlarda baland-baland azamat daraxtlar o'sadi va oziq-ovqat ham istagancha topiladi.

Zo'rg'a sudralib borayotgan yo'lovchi mana shular haqida o'ylar edi. Lekin yurish qanchalik og'ir bo'lmasin, Bill uni yolg'iz tashlab ketmaydi, degan fikrga ishonish undan ham qiyin edi. Bill hech shubhasiz uni narsalar yashirilgan joyda kutib o'tiradi. U shunday deb o'yashi kerak, aks holda bundan keyin kurashni davom ettirishning hech hojati yo'q – unda oyoqni cho'zish-u, o'lib qo'ya qolishdan boshqa iloj yo'q. Quyoshning xira gardishi shimoli-g'arb tomonga sekin-asta yashirinayotgan qishdan qochib, janub tomonga qo'yiladigan har qadamini bir necha bor hisoblab chiqdi. U narsalar yashirilgan joydagi va Gudzon kompaniyasining omboridagi oziq-ovqat zaxirasini qayta-qayta o'z xayolidan kechirdi. Ikki kundan beri u tuz totgani yo'q, lekin undan ilgari ham to'yib ovqat yemagan edi. U tez-tez egilib, rangsiz botqoq mevalarini uzib og'ziga solar va chaynab yutib borardi. Mevalar juda sersuv, suvi ichiga ketib, og'zida faqat taxir va qattiq urug'larga qolardi. Bu mevalar qorin to'yg'izmasligini u bilardi, shunday bolsa ham ularni sabr bilan chaynar, chunki umid achchiq haqiqat hilan hisoblashishini istamas edi.

Soat to'qqizlarda u oyog'ining katta barmog'ini o'tkir tosh qirrasiga urib oldi. Charchoq va darmonsizlikdan gandiraklab, yiqlilib tushdi. Bir yon-

boshiga ag'nab, anchagacha qimirlamay yotdi. Bir ozdan keyin orqasidagi qop qayishini yelkasidan chiqarib, ixrab-ixrab o'tirib oldi. Hali uncha qorong'i tushganicha yo'q edi, g'ira-shirada toshlar orasini paypaslab, quruq xas-cho'p yig'a boshladi. Bir tutam xas-cho'p yig'ib, o't yoqdi, keyin qozonchaga suv solib, burqsib yonayotgan o'tga qo'ydi.

U qopini ochib hammadan burun gugurtlarni sanab ko'rdi. Hammasi bo'lib oltmis yetti dona gugurt cho'pi bor edi. U yanglishgan bo'lmay, deb gugurt cho'pini uch marta sanab chiqdi. Gugurtni uch bo'lakka ajratib, har bir bo'lagini bir qog'ozga o'radi. Bir bo'lagini bo'sh hamyonga solib qo'ydi, ikkinchisini ohori to'kilgan shapkasingning astariga tiqdi, uchinchisini esa ko'kragiga yashirib qo'ydi. Shundan keyin uni birdan qo'rquv bosdi: uch bo'lak gugurtni yana qaytadan ochib sanab ko'rdi. Gugurt cho'plari avvalgidek oltmis yetti dona edi.

Oyoq kiyimini o'tga tutib quritdi, mokasini julduri chiqib ketgan, yopinchiqdan tikilgan paypoqlari teshik, oyoqlari bo'lsa qontalash bo'lib ketgandi. To'pig'i shishib, xuddi tizzasidek yo'g'on bo'lib ketgandi. U yopinchiqlardan birining chetidan uzun qilib yirtib oldi-da, to'pig'ini mahkam siqib bogladi. Keyin yana bir necha parcha yirtib, mokasin va paypoq o'rnini bosar deb, oyog'iga aylantirib o'radi-da, qaynagan suvdan ichib oldi, soatni buradi, so'ng yopinchiqqa o'ranib yotdi.

U dong qotib uxladi. Tun oqqach, sharq-shimoldan quyosh ko'tarildi, to'g'rirog'i, o'sha tomondan tong yorisha boshladi, chunki quyosh yuzini quyuq tuman qoplagan edi. Soat oltida u chalqancha holda uyqusidan uyg'ondi, kulrang

osmonga qaradi va och qolganini sezdi. Tirsagiga suyanib, qaddini ko'targan edi, qulog'iga qattiq pishqirgan tovush eshitildi. Qarasa, unga hushyorlik va qiziqish bilan bir bug'u qarab turibdi. Bug'u undan ellik qadamcha narida turardi. Shu ondayoq tovada jizillab qovurilayotgan bug'u go'shtining hidj dimog'iga urilgandek, o'zi go'sht mazasini totgandek bo'ldi. Beixtiyor o'qi yo'q miltig'ini olib o'qtaldi, tepkisini bosib yubordi. Bug'u cho'chib bir chekkaga tashlandi va tuyoqlarini tapillatib qochib ketdi.

U so'kinib, miltig'ini uloqtirib tashladi, ixrab-ixrab o'rnidan turishga urinib ko'rdi, ancha uringandan keyin zo'rg'a turib oldi. Bo'g'lnlari xuddi zanglab qolgandek qaddini rostlash yoki bukish juda mashaqqatli edi. Odamga o'xshab tik turib olish uchun rosa bir daqiqacha urindi.

U chog'roq bir tepalik ustiga chiqib, atrofga nazar tashladi. Bo'z rang chimliq dengizdan boshqa hech narsa – na daraxt, na biron buta – hech narsa ko'rmasdi. Osmon bo'z rangda edi. Quyosh na nur sochadi, na yilt etgan shulasini ko'rsatadi. U, shimol qayoqda ekanini, kecha kechqurun bu yerga qaysi tomonidan kelganini eslay olmadi. Lekin u yo'ldan adashmagan edi. Buni u yaxshi bilardi. U tezda Kichik og'ochlar o'lkasiga yetib oladi. U o'lka shu yaqin orada, chap tomonda bo'lishi kerak, ehtimol xuddi mana shu ko'rini turgan tepalikning narigi tomonidadir.

U tepalikdan qaytib tushib, yo'lga otlandi. Tugunini tugdi, uch bo'lak qilib yashirgan gugurtlari turibdimi, yo'qmi, deb paypaslab ko'rdi, lekin sanab o'tirmadi. U bug'uning terisidan tikilgan

xaltachaga qarab turib, xayol surib qoldi. Xalta uncha katta emas, ichidagi narsalari bilan bir hovuch kelardi. Lekin og'irligi o'n besh qadoq bo'lib, boshqa yukning og'irligidan qolishmasdi – uni mana shu tashvishga solardi. U xaltani bir tomonga surib qo'yib, boshqa narsalarni o'ray boshladи. Keyin xaltachaga qaradi-da, uni shartta qo'liga oldi, xuddi sahro uning qo'lidan oltinni tortib olayotgandek, atrofga xo'mrayib qaradi. Yana o'rnidan turib yo'lga tushganda, boshqa narsalar qatori xaltacha ham uning orqasida edi.

U chapga burildi. Ahyon-ahyonda to'xtar va botqoq mevalaridan terib yer edi. Uning oyog'i butunlay qotib qoldi, o'zi borgan sari kuchliroq oqsar, lekin oyoq og'rig'i qornidagi og'riq oldida hech gap emasdi. Ochlik azobi uni ko'proq qiynar, qornidagi og'riq esa unga ich-ichdan azob berardi. Endi u Kichik og'ochlar o'lkasiga yetib olish uchun qaysi tomonga yurishni bilmasdi. Mevalar uni ochlik azobidan qutqarolmas, til va tanglaylari ni lovullatib achitardi. Kichikroq bir soylikka yetib borganda, toshlar orasidan qanotlarini qoqib, qirqirlashib bir to'p oq kaklik ko'tarildi. U kakliklarga qarab tosh otdi, lekin tegizolmadi. Keyin u yukini yerga qo'yib, xuddi chumchuq poylagan mushukdek, kakliklarning orqasidan pusib-o'rmalab bora boshladи. Shimi o'tkir tosh qirralarga tegib yirtilib ketdi, tizzalaridan oqqan qon qonli iz qoldirib borardi. Lekin ochlik azobi shu qadar kuchli ediki, u boshqa hech qanday og'riqni sezmasdi. U chimliqlar ustidan o'rmalab borar, kiyimlari shalabbo bo'lib ketgan, badarni sovuqdan dir-dir titrardi-yu, lekin u faqat ovqat haqida o'y-

lar, boshqa hech narsani sezmasdi. Atrofidan ha deganda pir etib uchib ketayotgan kakliklarning qir-qiri endi uni massara qilayotgandek tuyildi. U kakliklarni so'kib qo'ydi-da, ularga qarab qichqirmoqqa boshladи.

Bir gal u kaklikka juda yaqin kelib qoldi, qush chamasi uqlab yotgan bo'lsa kerak. U qush toshlar orasidagi uyasidan pirillab uchib chiqmaguncha, uni ko'rmadi. Kaklik bexosdan pirillab chiqib qolganiga qaramay, odam chang soldi. Qo'lida qushning uchta pati qoldi. U uchib ketayotgan qush orqasidan uzoq qarab turdi, kaklik go'yo uning boshiga katta halokat keltirgandek, odam ko'nglida qushga nisbatan cheksiz nafrat uyg'on-di. Keyin orqasiga qaytib, yukini ko'tarib oldi.

Choshgohda u bir botqoqqa yetib keldi, bu yerda ov ko'proq edi. Xuddi unga o'chakishganday, oldidan yigirmatacha bug'u o'tib ketdi, ular shunday yaqindan o'tdiki, miltiq bilan bermalol otib olsa bo'lardi. Bug'ularni quvlagisi keldi, quvlasa ushlab olishiga juda ishonardi. Uning oldidan kaklik tishlagan bir qora tulki ham o'tib ketdi. U qichqirib yubordi. Shunday qattiq qichqirdiki, cho'chib ketgan tulki o'zini bir chetga urdi, ammo kaklikni og'zidan tushirmadi.

Kechqurun u qamishlar orasidan oppoq ohak-dek loyqalanib oqayotgan ariqcha yoqalab borardi. Bir qamishning ostidan mahkam ushlab, xuddi piyozga o'xshagan bir narsani sug'urib oldi. Qamishning tomiri yumshoq bo'lib, chaynaganda qars-qars ovoz chiqarar edi. Lekin mazasi taxir, xuddi chalchiqzor mevasiga o'xshagan sersuv bo'lib, och qorinni to'yg'izmasdi. U yukini yerga

tashladi-da, xuddi kavsh qaytarayotgan molga o'xshab kavshana-kavshana qamishlar orasidan o'rmalab ketdi. U juda charchagan, bir oz orom olgisi, yotib uxlagisi kelardi, lekin Kichik og'ochlar o'lkasiga yetib olish orzusi, undan ham zo'rroq bo'lgan ochlik azobi unga tinchlik bermasdi. U bunday uzoq shimolda qurt va qurbaqa bo'lmasligini bilsa ham, chuqurchalardan qurbaqa axtarar, oyoqlari bilan yerni titkilab, qurt qidirar edi.

U har bir ko'lmakni sinchiklab qaradi. Nihoyat qosh qorayganda, bir chuqurda bittagina baliq suzib yurganini ko'rib qoldi. U qo'lini yelkasigacha suvga tiqdi. Lekin baliqcha qo'lidan sirg'alib chiqib ketdi. U baliqni ikki qo'llab tutmoqchi bo'lib suvni loyqalatib yubordi. Esi-dardi baliq bilan bo'lib, hayajondan suvga tushib ketdi, beligacha suvga botdi. Suvni shunday loyqalatib yubordiki, baliqni ko'rib bo'lmay qoldi. Shundan keyin u suvning tinishini kutib turdi.

U yana baliqni tutish bilan ovora bo'ldi, suvni yana loyqalatib yubordi. Ortiq kutishga toqati qolmadi. Yukka qo'shib bog'langan paqirchanli oldi-da, chuqurdagi suvni chetga olib to'ka boshladi. Avvaliga u zo'r berib ishladi, usti-boshi shalabbo bo'lib ketdi, shoshganidan suvni chuqurga shunday yaqin to'kar ediki, suv yana qaytib chuqurga oqib tushardi. So'ngra u qo'lining titrashi va yuragining qattiq urishiga qaramay, xotirjam ishlashga qaror qildi. Yarim soatdan keyin chuqurchada bir hovuch ham suv qolmadi. Birroq baliq yo'q bo'lib qolgandi. Uning ko'zi toshlar orasidagi bir yoriqqa tushdi. Baliq shu yoriqdan katta bir chuqurga o'tib ketibdi, u chuqurda suv

shu qadar ko'p ediki, uning suvini bir kecha-yu
bir kunduzda ham tamom qilib bo'lmasdi. Yoriq
borligini ilgari bilganida, hammadan burun uni
tosh bilan berkitib qo'ygan bo'lardi, shunda baliq
uning qo'lidan qochib qutulolmasdi.

Odam chalchiq yerga o'tdi-da, alamiga chida-
yolmay yig'lab yubordi. Boshda sekin-sekin
yig'ladi. Keyin atrofni o'rab olgan shafqatsiz cho'l-
ni uyg'otmoqchi bo'lganidek ovozining boricha
ho'ngrab yig'layverdi. A'zoyi badani titrab, uzoq
yig'ladi.

U o't yoddi. Qaynagan suvdan ancha ichib, bir
oz isidi, yotish uchun tosh ustiga kechagidek joy
qildi. Yotishdan avval gugurtning ho'l, quruqligini
tekshirib ko'rdi va soatini burab qo'ydi. Yopinchiq
ho'l va muzdek edi. Og'riqdan oyoqlari o'tday yo-
nar, lekin u faqat ochlik azobini sezар edi, xolos.
Kechasi har xil ziyofatlar, mehmondorchiliklar va
dasturxonga tortilgan turli noz-ne'matlarni tushi-
da ko'rib chiqdi.

U sovuq qotib uyg'ondi, tobi qochgandi. Quyosh
ko'rinnmasdi. Yer-u ko'kning bo'zrang tusi yana
ham quyuqlashgan, qattiq shamol esar, birinchi
qor tepaliklarni oppoq libosga burkagan edi. U o't
yoqib suv qaynatguncha havo yana ham quyuq-
lashgandek, yana ham sovuqlashgandek tuyildi.
Laylak qor yog'a boshlagan edi. Qor avvaliga yer-
ga tushishi bilan eriyverdi, lekin bora-bora ko'pa-
yib, yer betini qoplab oldi-da, quruq xas-cho'plar-
ni ho'l qilib, o'tni o'chirdi.

Bu unga yukini ortmoqlab, boshi oqqan to-
monga qarab yo'lga chiqish uchun signal boldi.
U endi Kichik og'ochlar o'lkasi haqida ham, Bill

haqida ham, Diz daryosi sohilida qayiq ostiga yashirilgan narsalar haqida ham o'ylamasdi. Uning xayoliga ovqatdan bo'lak narsa kelmasdi. Ochlik uni aqldan ozdirdi. U qayoqqa ketayotganini ham o'ylamay qo'ydi. Unga endi ikki dunyo bir qadam bo'lib qolgandi. Ishqilib tekis yerda yursa bolgani edi. Yo'lda ketarkan, u mazasi achchiq bir o'simlik topdi, giyohdan qancha topsa, hammasini edi. Lekin bu giyoh juda oz ekan, u yerga yoyilib o'sganidan, qor tagida qolgan edi.

Shu kecha u o't yoqmadi, suv ham qaynatmadidi, yopinchiq ichiga kirib oldi-da, ochligicha yotib qoldi. Qor asta-sekin sovuq yomg'irga aylandi. Yuziga yomg'ir tomchilari tushayotganini sezib tez-tez uyqusidan uyg'onardi. Tong otib, yana qu-yoshsiz, bulutli kun boshlandi. Yomg'ir tingan. U endi ochlik to'g'risida o'ylamay qo'ygandi. Qorni sal-pal og'rirdi xolos, ammo bu og'riq unga unchalik azob bermasdi. Uning fikri bir oz ravshanlashdi. Endi u yana Kichik og'ochlar o'lkasi haqida, Diz daryosi bo'yiga yashirib qo'yan narsalar haqida o'lay boshladi.

U yirtiq yopinchiqdan qolgan qismini yana uzunasiga yirtib, shilinib qontalash bo'lib ketgan oyog'ini bog'ladi, chiqqan to'pig'ining lattasini yangiladi-da, yana yo'lga tushishga hozirlandi. Yukni ko'tarib olishdan oldin bug'u terisidan tikilgan xaltaga uzoq tikilib turdi-yu, yana xaltani o'zi bilan olib ketdi.

Yomg'ir qorni eritib yuborgandi, tepalarning cho'qqilarigina oqarib turardi. Quyosh ko'rinish qoldi, bundan foydalanib yo'lovchi dunyoning to'rt tomonini belgilab oldi, yo'ldan adashgan-

ligi aniq bo'ldi. So'nggi kunlarda chap tomonga ko'proq ketib qolgan bo'lsa kerak, endi u to'g'ri yo'lga tushib olish uchun o'ng tomonga qarab yura boshladи.

Ochlik azobi unga kor qilmay qolgan edi-yu, lekin u o'zining holdan ketganini sezdi. Dam olgani tez-tez to'xtar, yerdan meva terar va qamishlar ni tomiri bilan sug'urib olardi. Uning tili qaqrab, shishib ketdi. Og'zida ham achchiq va bemaza ta'm bor edi. Hammadan ko'proq uni yuragi bezovta qilardi. U bir necha qadam bosmasdan, yuragi duk-duk urib ketar, qinidan chiqib ketay deb dukkillab ura boshlardi-da, nafasi bo'g'ilib, boshi aylanar, o'zidan ketib qolay derdi.

Tush paytida u katta bir chuqurda ikkita tanga baliq suzib yurganini ko'rib qoldi. Chuqurning suvini quritib bo'lmasdi. Lekin u o'zini ancha bosib olgandi, paqirchasi bilan baliqlarni tutib oldi. Baliqlar jimjiloqdek-jimjiloqdek edi. Lekin uning uncha ovqat yegisi yo'q, qorin og'rig'i ancha passaygandi. U, baliqlarni xomligicha og'ziga solib, hafsala bilan chaynay boshladи. Ishtahasi bo'lmasa ham, ovqat yeyishga o'zini majbur qildi, chunki yashamoq uchun ovqat yeyish zarurligini yaxshi bilardi.

Kechqurun u yana uchta tanga baliq tutdi, ikkitasini yeb, uchinchisini ertalabga olib qo'ydi. Quyosh onda-sonda uchrab turgan xashaklar ni quritgandi, u suv qaynatib ichib, bir oz isidi. O'sha kuni u o'n mildan ortiq yo'l bosolmadi. Ertasiga yuragi qattiq urib, besh milga yaqin yo'lni bosib o'tdi. Qorni ortiq og'rimay qo'ydi. Endi u notanish yerlardan borardi, bug'ular tez-tez uchrar,

hatto bo'rilar ham ko'rinib qolardi. Uning qulog'i-ga ularning uvillagani tez-tez chalinardi. Bir marta u pusib yo'lni kesib o'tayotgan uchta bo'rini ko'rib qoldi.

Yana tun kirdi. Tongda u bir oz o'ziga kelib, xalting qayishini yechdi-da, ichidagi oltinni yerga to'kdi. Oltinni bab-baravar ikki qismga bo'ldi. Bir bo'lagini lattaga o'rab, uzoqdan yaxshi ko'rinib turadigan bir tepalikka, toshlar orasiga yashirib qo'ydi. Ikkinchchi qismini yana xaltaga solib, og'zini bog'ladi. Keyin u bitta-yu bitta yopinchig'ini yirtib, oyoqlarini o'radi. Lekin u hamon miltig'ini tashlamasdi, chunki Diz daryosi bo'yida yashirib qo'yilgan narsalar orasida patronlar bor, axir.

Bugun hamma yoqni quruq tuman qopladi. Shu kuni u yana ochlik azobini tortdi. Yo'lov-chi juda zaiflashib qolgan, tez-tez boshi aylanar, vaqtı-vaqtı bilan hech narsani ko'rmay qolardi. U endi tez-tez qoqilar, yiqlar edi. Bir marta u kaklik uyasi ustiga yiqlib tushdi. Uyada endigina tuxumni yorib chiqqan kaklik polaponlari bor ekan. U shoshib-pishib ularni tiriklayin og'ziga sola boshladи. Polaponlarining suyaklari uning tishlari orasida xuddi tuxum po'stlog'i singari qasirlar edi. Ona kaklik uning tepasida charx urib aylanib, achchiq-achcniq faryod qilardi. Odam miltiq qo'ndog'i bilan kaklikni urib tushirmoqchi bo'ldi, lekin qush chap berib qochdi. Keyin u kaklikka tosh ota boshladи, qanotini sindirdi. Kaklik yaralangan qanotini sudrab, bir tomonga qarab qochdi. Odam uning orqasidan quvlashga tushdi.

Kaklik bolalari uning ishtahasini yana ham ochib yubordi. U kalovlanib, oqsoqlanib, goh kak-

likka tosh otib bo'g'iq tovush bilan qiyqirar, goh har yiqilganda chidam bilan o'rnidan turib, qovog'ini solib, indamay qadam tashlar edi, boshi aylanganda hushidan ketmaslik uchun ko'zlarini ishqalar edi.

Kaklik orqasidan quvib borayotib, pastlikda – ho'l chimliqdagi odam iziga ko'zi tushdi. Bu izlar uniki emasligi ravshan edi. Billning izlari bo'lsa kerak. Lekin u to'xtab turolmasdi, chunki kaklik tobora undan uzoqlashar edi.

U qushni quvlayverib charchatdi, lekin o'zining ham tinkasi quridi. Kaklik yonboshiga ag'darilib og'ir-og'ir nafas olib yotardi, lekin odam ham o'n qadamcha berida entikib yotar, qushga yetib olishga sira ham madori qolmagandi. Odam bir oz dam oldi, lekin qush ham nafasini rostlagandi. U qo'l uzatish bilan qush tipirlab qochdi. Yana quvishga tushdi. Qosh qorayib, qush ko'zdan g'o-yib bo'ldi. Odam juda charchaganligidan madori qurib qoqildi va orqasidagi yuki bilan yiqildi-da, yuzlari shilinib ketdi. U anchagacha qimirlamay yotdi, keyin yonboshiga ag'darilib, soatini burab qo'ydi-da, tong otguncha shu holatda yotib qoldi.

Yana tuman bosdi. Yopinchiqning yarmisi oyoqni o'rashga ketdi. Billning izini u qaytib topolmadi. Endi unga baribir edi. Ochlik uni timmay olg'a haydardi. Bordi-yu... Bordi-yu, Bill ham adashib qolgan bo'lsa-chi? Tushga borib u juda ham holdan toydi. U yana oltinni ikkiga bo'ldi. Bu gal o'lchab o'tirmay, yarmisini yerga to'kib qo'ya qoldi. Kechga borib, yopinchiqning yarmini, paqircha va miltiqni olib qolib, oltinning hammasini yerga to'kib tashladi.

Uning miyasini har xil fikrlar chulg'ab olgandi. Tasavvurida miltiqda xuddi bir o'q bordek, u esa buni ko'rmay qolgandek edi. Shu bilan bir vaqt-da miltiqda o'q yo'qligini yaxshi bilardi. Lekin bu xomxayol uni sira tinch qo'ymasdi. Pirovardida miltig'ini qarab, o'qning yo'qligiga ishonch hosil qildi. Hafsalasi shunchalik pir bo'ldiki, go'yo u haqiqatan ham o'q borligini kutgan edi.

Yarim soat o'tdi. Keyin miyasiga yana o'sha fikr keldi, u bu fikrni miyasidan chiqarib tashlayolmadi-da, o'zini bir oz ovutish uchun miltig'ini yana tekshirib chiqdi. Ahyon-ahyonda miyasi ishlamay qolar, o'zi esa jonsiz narsadek beixtiyor kalovlanib borar edi; g'alati xayollar va bema'ni tasavvurlar uning miyasini qurtday kemirar edi. Lekin u tez o'ziga kelardi, chunki ochlik uni hamma vaqt haqiqatga qaytishga majbur qilardi. Bir marta uning ko'z oldida shunday bir ajib manzara paydo bo'ldiki, hushidan ketib qolishiga sal qoldi. Uning oldida bir ot turardi. Ot! U ko'zlariga ishonmadi. Ko'z oldi jimirlashib, atrofni tuman bosganday bo'ldi. U zo'r berib ko'zini ishqaladi, ko'z oldi ravshanlanganda qarasa, qarshisida ot emas, kattakon bir targ'il ayiq turibdi. Ayiq unga o'grayib-o'grayib qarardi. U miltig'ini yelkasidan oldi-yu, shu ondayoq esini yig'di. Miltiqni qo'yib, munchoq qadalib tikilgan qinidan pichog'ini sug'irdi. Uning oldida go'sht va hayot turardi. Bosh barmog'i bilan pichoqning tig'ini tekshirib ko'rdi. Pichoqning tig'i ham, uchi ham o'tkir edi. U hozir ayiqqa tashlanib, uni o'ldiradi. Lekin uning yuragi xuddi xavfdan ogohlantirayotgandek, duk-duk ura boshladi. Keyin birdan yura-

gi qinidan chiqar darajada sakrab ketdi; miyasi xuddi iskanjaga olgandek qattiq og'ridi, ko'z oldi qorong'ilashdi.

Hozirgina jo'sh urib turgan botirlilik o'rnini qo'rquv egalladi: u shu qadar zaif tortib ketdiki, ayiq hujum qilsa, nima bo'ladi? U mumkin qadar haybatliroq bo'lib ko'rinish uchun qaddini rostladi, pichoqni qo'liga olib, to'g'ri ayiqning ko'zlariga tikildi. Yirtqich lapanglab oldinga bir qadam bosdi, ikki oyog'ini ko'tarib o'kirib yubordi. Odam qochganda, ayiq uning orqasidan quvgan bo'lardi. Lekin odam qo'rquvni bosib, o'rnidan, qimirlamadi; u ham yirtqich hayvonday dahshat bilan o'kirib yubordi, bu o'kirik qo'rquv ifodasi edi, chunki qo'rquv yashash uchun kurash bilan chambarchas bog'liqdir.

Ayiq undan qo'rqlay tik turgan mana shu sirli maxluqdan hayiqib, o'kirdgancha bir tomonga chekindi. Lekin odam o'rnidan qimirlamadi. U xavf o'tib ketguncha qaqqayib turaverdi, keyin xuddi bezgak tutgandek, titrab-qaqshab ho'l chimliqqa yiqildi.

U bir oz o'ziga kelib, qo'rquv ichida yana yo'lga tushdi. U endi ochlikdan o'lishdan emas, balki hayot uchun kurashning so'nggi intilishlari so'nguncha yirtqich hayvonlar panjasida o'lib ketishdan qo'rqlardi. Atrofida bo'rilar izg'ib yuribdi.

Bo'rilar ikkita-ikkitadan, uchta-uchtadan bo'lib, tez-tez uning yo'lini kesib o'tishardi. Lekin ular odamga yaqin kelishmasdi. Ular juda ham ko'p emasdi. Bundan tashqari, ular qarshilik ko'rsatmaydigan bug'ularni ovlashga o'rganishgan edi, ikki oyoqli g'alati maxluq esa chang solib qolsa ham, tishlab olsa ham ajab emasdi.

Kechga borib u yerda sochilib yotgan suyaklarni ko'rib qoldi. Bo'rilar xuddi mana shu yerda o'ljani ovlagan edi. Bir soat ilgari bu bug'ucha sakrab-sakrab, ma'rab yurgandi. Odam top-toza qilib qo'yilgan, yarqiroq qizg'ish suyaklarga qarab turdi. Suyaklarning rangi qizg'ish edi, chunki undagi hayot hali so'nmagandi. Kechqurunga borib, ehtimol, uning taqdiri ham shunday bo'lar. Hayot shunaqa, hayot bevafo va bebaqo. Lekin hayot alam chektiradi, o'limda esa qiyinalish yo'q. O'lmoq uxlamoqdir, o'lim orom olmoqdir. Bo'lmasa nima uchun u o'lishni istamaydi?

Lekin u uzoq o'ylab o'tirmadi. Ko'p o'tmay u cho'kka tushdi-da, suyaklarni kemira boshladи, suyaklarga qizg'ish tus berib turgan hayotning oxirgi nishonalarini so'rmoqqa tutindi. Go'shtning o'tmishdan qolgan xotira singari bo'lib tuyilgan sezilar-sezilmas mazasi uni o'zini yo'qotar dajada hayajonga soldi. Suyakni tishlari orasiga olib, g'ajiy boshladи. Goh suyak sinar, goh uning tishi sinardi. Keyin u suyakni tosh bilan yanchib, ochko'zlik bilan yuta boshladи. Shoshilganidan toshni barmoqlariga urar, ammo qancha hovliqmasin, nima uchun og'riqni sezmayotirman, deb ajablanib qo'yardi.

Qor va yomg'irli kunlar yetib keldi. U endi qachon yotib, qachon yo'lga tushganini eslay olmasdi. Vaqt ni surishtirmay, kechasi ham, kunduzi ham yo'l bosdi, yiqilgan yerida dam oldi, undagi so'nayotgan hayot uchquni alangalandi deguncha yana oldinga qarab o'rmaladi. Odam endi hayot uchun kurashmay qo'ydi. Undagi hayotning o'zi o'lishni istamas, shuning uchun ham uni ilgariga

haydardi. U ortiq azob chekmasdi. Uning asablari uyushib qolgan, miyasi esa g'alati xayollar, shirin tushlar bilan to'la edi.

U yo'lda borarkan, bitta qo'ymay yig'ishtirib olgan suyaklarni tinmay so'rар va chaynar edi. U ortiq tepaliklarga ko'tarilmas, ariqlarni kechib o'tmasdi, u endi keng vodiyyadan oqib o'tayotgan anhor yoqalab borardi. Uning ko'ziga xayoliy manzaralar ko'rindi. Uning tani bilan joni birga borardi-yu, shunday bo'lsa ham, ular bir-birlari dan ajralgandek edi: ularni bir-birlariga bog'lab turgan hayot rishtasi shu qadar ingichka edi.

Bir kuni u yassi tosh ustida yotganida hushi o'ziga keldi. U uzoq vaqtgacha qimirlamay yotdi. Quyosh saxiylik bilan nur sochib, uning ayanchli badanini isitar edi. U ming azob-uqubat bilan bir yonbosbiga ag'darildi. Pastda katta sokin bir dar yo oqib yotardi. Bu daryo odamga notanish edi: bu uni ajablantirdi. U notanish daryoning oqimi ni shoshmasdan, sovuqqonlik bilan to ufqqa qadar kuzatdi-da, daryoning uzoqda yarqirab turgan dengizga quylayotganini ko'rdi. Shunday bo'lsa ham bu narsa uni sira hayajonlantirmadi. «Qiziq, – deb o'yladi u. – Ko'zimga shunday ko'rinyaptimi yoki miyam aynib qoldimikin». Dengiz o'tasida langar tashlab turgan kemani ko'rganda bu fikrning to'g'ri ekanligiga yana bir bor ishondi. U bir zumga ko'zlarini yumib yana ochdi. Qiziq, «sha narsalar yana ko'rindi. Bunga ajablanmasa ham bo'lardi. Miltig'ida patron bo'limganidek, mana shu sahroning qoq o'tasida dengizning ham, kemaning ham bo'lishi mumkin emasligini bilardi u.

Orqadan xirillagan bir tovush eshitildi, bu xo'r sinishmi, yo'talmi – bilib bo'lmas edi. G'oyat zaiflik

va karaxtlikni zo'rg'a yengib, u ikkinchi yonboshiga ag'darildi. Yaqinida hech narsa ko'rinnadi. U sabr bilan kuta boshladi. Yana xirillagan va yo'tal tovushi eshitildi. Yigirma qadamcha narida o'tkir qirrali ikki toshning orqasidan bir bo'rining kulrang boshi ko'rindi. Uning qulqlari boshqa bo'rilarniki singari tik emas, ko'zlar xira va qon quyilgan, boshi solingan. Bo'ri kasal bo'ssa kerak: u tinmay aksa urar va yo'talar edi.

«Hech bo'limganda bunisi haqiqatdir» deb o'yaldi u va sarob pardasi bilan qoplanmagan, haqiqiy dunyoni ko'rish uchun boshqa yonboshiga ag'darildi. Lekin dengiz hali ham ilgarigidek uzoqda yaltirab turar, kema ham aniq ko'zga chalinardi. Ehtimol, bu rostdan ham haqiqatdir. U ko'zlarini yumib o'lay boshladi. Pirovardida hamma narsa ayon bo'ldi. U sharq-shimolga qarab yurgan va Diz daryosidan uzoqlashib, Kappirmayn daryosi vodiysiga kelib qolgan. Sokin oqayotgan shu daryo Kappirmayn daryosining xuddi o'zginasi. Yaltirab turgan dengiz Shimoliy Muz dengizi. Bu kema kit ovchilarining kemasi bo'lib, Makkenzi daryosi dengizga quyiladigan joydan sharq tomonga ancha ketib qolgan. Bu kema Koronatsiya ko'rfazida turibdi. U bir vaqtlar ko'rgan Gudzon ko'rfazi kompaniyasining xaritasini esladi-yu, shunda bor gap ravshan va tushunarli bo'lib qoldi.

U yerga o'tirib oldi-da, eng zarur ishlar haqidagi o'ylab ketdi. Oyoqlarini o'rabi bog'lagan yopinchiq parchalari titilib ketganidan oyoqlari shilinib qip-qizil go'sht bo'lib qolgandi. Eng so'nggi yopinchiqni ham ishlatib bo'lgan. Miltiq bilan pichoq yo'qolgan. Qalpog'i ham tushib qolibdi, qalpoq bi-

lan birga astariga yashirilgan gugurt ham yo'qol-gandi, lekin qog'ozga o'rab, hamyoniga yashirib qo'ygan gugurt hali ham turibdi. U soatiga qara-di, soati yurib turar va o'n birni ko'rsatardi. Soat-ni burab turgan bo'lsa kerak.

U xotirjam, aqli joyida edi. Juda ham holdan toyganiga qaramay, og'riqni sezmas, ovqat yegisi ham kelmasdi. Ovqat haqida o'ylashni ham xoh-lamasdi. U nima qilmasin, hammasini idrok huk-mi bilan qilardi. U, shiminining pochasiidan to tiz-zasigacha yirtib oldi-da, to'pig'ini o'rab bog'ladi. Chelakchasini nima uchundir tashlamagan edi. Kemaga qarab yo'l solishdan avval suv qaynatib ichish kerak, bu safarning juda og'ir bo'lishini u oldindan bilardi.

U juda sekin qimirlar, shol odamdek qaltirar edi. Quruq xashak yig'moqchi bo'ldi-yu, lekin o'rnidan turolmadi. Bir necha marta o'rnidan turishga urinib ko'rdi, bo'lmagach, emaklab ketdi. Bir gal hatto kasal bo'rining oldiga juda yaqin borib qoldi. Bo'ri istar-istamas o'zini chetga oldi va zo'rg'a tilini qimirlatib, tumshug'ini yaladi. Uning tilli sog'lom bo'rinishidek qizil emas, kulrang, sarg'ish bo'lib, yelim singari quyuq shilliq bilan qoplangan. Odam qaynagan suvdan ichdi-da, de-yarli kuch-quvvatdan qolgan bo'lsa ham, o'rnidan turishga, hatto yurishga ham madori yetishini his qildi. Daqiqa sayin to'xtab dam olardi, bazo'r qadam tashlar, bo'ri ham uning orqasida xuddi shu yo'sinda sudralib borardi.

Qorong'i tushib, yarqirab turgan dengiz zulmat ichiga g'arq bo'lganda, u oraliqdagi masofa ko'p emas, to'rt milga qisqarganini anglatdi.

Tun bo'yи kasal bo'rinining yo'talishi va ba'zan bug'u bolalarining ma'rashi eshitihb turdi. At-rofda hayot qaynamoqda, u kuch-quvvatga to'la, sog'lom hayot. Odam esa orqasidan kasal bo'ri ergashib kelayotganini, uning o'limidan umidvor ekanligini tushunar edi. Ertalab turib qarasa, bo'ri unga g'amgin va ochko'zlik biian tikilib turibdi. Bo'ri dumini qisib, xuddi tinkasi qurigan it kabi boshini quyi solib turardi. Bo'ri sovuq shamolda qaltirar, odam xirillagan tovush bilan unga so'z qotganda, tishini tirjaytirib, irillar edi.

Ufqdan yorqin quyosh ko'tarildi. Odam choshgohga qadar yiqilib-surilib yaltiroq dengizda turgan kemaga qarab yurdi. Tushdan keyin u bir izga duch keldi. Bu boshqa bir odamning izi bo'lib, u odamning emaklab yurgani bilinib turardi. «Ehtimol bu Billning izidir» deb o'yladi u xotirjam. Unga baribir edi. To'g'risi, u hech narsani sezmay, hech narsadan hayajonlanmay qo'yan edi. U hatto og'riqni ham his qilmasdi. Qorin bilan asablari go'yo mudrab qolgandek. Lekin hali so'nmagan hayot uchquni uni olg'a boshlardi. U juda charchagan, lekin sira o'lgisi kelmas edi. Shuning uchun ham u atrofdan meva terib yer, baliq ovlar, suv qaynatib ichar va olazarak bo'lib, kasal bo'rini kuzatar edi.

U o'rmalab o'tgan boshqa odamning izidan borardi. Ko'p o'tmay, o'zidan oldingi odamning manziliga yetib keldi. Ho'l chimliq ustida kemi-rib tashlangan suyaklar va bo'rinining iziga kó'zi tushdi. Yerda xuddi o'zinikiga o'xshash, o'tkir tishlar tortqilab yirtgan bug'u terisidan tikilgan xalta yotardi. Bunday og'ir yukni ko'tarishga

madori kelmasa ham kuchsiz barmoqlari bilan qopni yerdan ko'tarib oldi. Bill oltinlarini so'nggi daqiqalarga qadar tashlamagan edi. Ha-ha-ha! U hali Billning ustidan masxara qilib kuladi, tirik qoladi va xaltani yarqirab turgan dengizdagi kemaga olib ketadi. U xuddi qarg'aning qag'illashiga o'xshagan bo'g'iq ovozda dahshatli qilib kulardi. Kasal bo'ri ham unga jo'r bo'lib xirillagan tovush bilan uvilladi. Odam darhol jim bo'ldi. Agar mana shu suyaklar Billniki bolsa, shu toza kemirilgan, qizg'ish suyaklar Billniki bolsa, qanday qilib uning ustidan kulyapti-ya!

U yuzini o'girib oldi. Nima qilsin, Bill uni tashlab ketdi, lekin u Billning oltinlarini olmaydi, uning suyaklarini kemirmaydi. Agar mening o'rnimda Bill bo'lganda shunday qilgan bo'lardi, deb o'ylab qo'ydi va kalovlanib yo'lga tushdi.

U kichkina bir ko'lga duch keldi. Baliq yo'qmi-kan deb chuqurchaga engashib qaradi-yu, xuddi ilon chaqqandek seskanib o'zini orqaga tashladi. Suvda u o'z aksini ko'rib qoldi. Basharasi shu qadar qo'rqinchli ediki, bu diydasi qotib qolgan odamning ko'ngliga vahima soldi. Ko'lchada uchta baliq suzib yurardi, lekin ko'lcha kattagina bo'lib, suvni quritishga uning qurbi yetmasdi. U baliqlarni chelakcha bilan tutishga urinib ko'rdi, keyin bu fikrdan qaytdi. Olgudek charchaganidan suvga yiqilib, cho'kib ketaman, deb qo'rqi-di. Cho'kib ketishidan qo'rqiб u qumloq sohilda yog'och xodalar ko'p bolsa ham, sol yasab, dar-yodan suzib ketishga jur'at qilolmadi.

O'sha kuni u kemagacha bo'lgan masofani uch milga qisqartdi. Ertasiga esa ikki mil yo'l bosdi.

Endi u xuddi Billga o'xshab o'rmalab borardi. Beshinchi kun kechqurun kemaga yetish uchun yana yetti mil yo'l qolgan edi; endi bir kunda bir mil yo'l bosishga ham madori qolmadi. Erta kuzning iliq kunlari hali tugamagan edi, u esa goh o'rmalar, goh hushidan ketib yiqilardi, kasal bo'ri esa yo'talib, aksa urib, uning orqasidan qolmay sudralib borardi. Odamning tizzalari qip-qizil go'sht bo'lib ketgan, tovonlari bundan ham batтар edi. Ko'ylagidan yirtib olib tizza va tovonlari ni o'rab bog'lagan bo'lsa ham orqasidan chimliq va toshlar ustiga qonli iz qoldirib borardi. U bir marta orqasiga qayrilib qarab, bo'rining ochko'zlik bilan qonli izlarni yalayotganini ko'rib qoldi. Agar bo'rini bir yoqlik qilmasa, holi nima kechishini juda yaxshi bilardi. Shundan keyin hayotda uchrashi mumkin bo'lgan kurashlarning eng shiddatlisi boshlandi: emaklab borayotgan kasal odam, uning orqasidan sudralayotgan kasal bo'ri – ikkisi ham chala o'lik holda bir-birini poylashib, sahrodan sudralib bordilar.

Bo'ri sog' bo'lganda, odam bunchalik qarshilik ko'rsatib o'tirmagan bo'lardi, lekin mana shu badburush, deyarli o'laksa bo'lib qolgan razil maxluqning qorniga tushishini o'ylasa, ko'ngli aynir edi. U yana alahlay boshladi, yana ko'ziga allanimalar ko'rina boshladi, bu safar uning o'ziga kelishi ancha qiyin bo'ldi.

Bir marta xuddi qulog'i ostida kimdir tez-tez nafas olayotganini eshitib, hushiga keldi. Tepasida turgan bo'ri o'zini orqaga tashladi va qoqilib ketdi-da, nimjonligidan yiqilib tushdi. Bu juda kulgili edi, lekin odam kulmadi. U hatto qo'rqmadidi ham. U endi qo'rqish nimaligini ham sezmay

qolgan edi. Uning ongi bir muddat ravshanlashdi, u o'ylab ketdi. Kemaga qadar endi ko'pi bilan to'rt mil yo'l qolgandi. U tuman bosgan ko'zlarini ishqalab, kemani juda ravshan ko'rdi, yarqirab turgan dengizni kesib o'tayotgan oq yelkanli qa-yiqchani ham ko'rdi. Lekin bu to'rt millik masofani bosib o'tishga holi qolmagan edi. Odam buni bilardi, shuning uchun ham bezovtalanmadı. Yarim mil ham yo'l bosa olmasligiga aqli yetardi. Shunday bo'lsa ham yashashni istardi. Shuncha azob-uqubatlardan keyin o'lib ketish bema'nilik bo'lardi. Taqdir undan juda ko'p narsa talab qilardi. Joni halqumiga tiqilganda ham u o'limga bo'ysunishni istamasdi. Ehtimol, bu aqlsizlik edi, lekin u o'lim changaliga tushib qolgan bo'lsa ham, uning changalidan qutulib chiqish uchun jon-jahdi bilan kurashaverdi.

U ko'zlarini yumib, bor kuchini to'pladi. Xuddi to'lqin singari uning vujudini bosib olayotgan alahsirashga yon bosmaslik uchun o'zini tetik tutishga urinardi. Bu to'lqin o'qtin-o'qtin ko'tarilib, uning ongini xiralashtirardi. Ba'zan u chorasisz tipirchilab, o'zini bilmay qolar, keyin yana bir amallab hushini yig'ar edi.

U qimirlamasdi, chalqancha yotganicha kasal bo'rining xirillagan tovushi tobora yaqinroq eshitilayotganiga qulq soldi. Bo'rining nafasi juda yaqindan eshitila boshladi-yu, qurshab qolgan til xuddi shildiroq qog'oz singari uning yuzini timdalladi. Qo'llari yuqoriga cho'zildi, barmoqlari xuddi changak singari bukildi, lekin mehnati zoye ketdi. Tez va ishonch bilan harakat qilish uchun kuch kerak, unda esa kuch yo'q.

Bo'ri sabrli edi, lekin odam undan ham sabrli-roq edi. U hushdan ketib qolmaslikka urinib, ayni paytda bo'rini poylab, yarim kun qimirlamasdan yotdi. Bo'ri uni yemoqchi edi, qo'ldan kelsa, odam ham bo'rini yemoqchi edi. Vaqt-vaqt bilan u hushidan ketib qolar, shunda u uzoq-uzoq tushlar ko'rар edi; lekin tushida ham, o'ngida ham mana hozir bo'ri tili bilan meni yalaydi, deb kutib yotardi.

Nafas tovushini eshitmadi, lekin bo'ri uning qo'lini yalayotganligini sezib o'ziga keldi. Odam kutib yotdi. Bo'ri uning qo'lini tishlari orasiga olib kuchining boricha tishladi, keyin u shuncha vaqt kutgan g'animatiga qattiqroq tirmashdi. Lekin odam ham shu paytni sabrsizlik bilan kutgandi, uning tishlangan qollari bo'rining jag'ini qisdi. Bo'ri bazo'r o'zini himoya qilardi, odam bir qo'li bilan uning jag'ini qisdi, ikkinchi qo'lini bilan bo'rining tomog'idan bo'g'a boshladi. Besh daqiqadan keyin odam o'zining butun og'irligi bilan bo'rini bosib tushdi. Bo'rini bo'g'ib o'ldirish uchun kuchi yetmasligini bilib, tishi bilan bo'rining tomog'iga yopishdi, uning og'zi yungga to'ldi. Yarim soat o'tdi, odam o'z tomog'iga issiq qon quyilayotganini sezdi. Xuddi uning og'ziga eritilgan qo'rg'oshin quyilayotgandek, uni yutish bir azob edi. Lekin u o'zini chidashga majbur qildi. Keyin odam chalqanchasiga ag'darildi-da, uyquga ketdi...

Kit ovlovchi «Bedford» kemasida ilmiy ekspe-ditsiya a'zolari bor edi. Ular kema palubasida turib, qirg'oqda g'alati bir maxluqni ko'rib qolishdi. Bu maxluq qum ustida zo'rg'a o'rmalab dengiz tomonga kelardi. Olimlar buning nima ekanligini

bilolmadilar, tabiatshunos bo'lganliklari uchun qayiqchaga o'tirib qirg'oqqa suzib ketdilar. Ular tirik bir maxluqni ko'rdilar, lekin uni odam deb bo'ladi mi?! U hech narsani eshitmas, hech narsani tushunmas, qum ustida ulkan qurt singari buralar edi. U oldinga deyarli siljimas, lekin orqasiga ham qaytmasdi, buralib-buralib oldinga qarab harakat qilar va soatiga yigirma qadamdan yo'l bosardi.

Uch hafta o'tgandan keyin u «Bedford» kemasida karavotda yotgan holda ko'z yoshlarini oqizib, o'zining kimligi va qanday mashaqqatlarni boshidan kechirganini hikoya qilib berdi. U onasi, serquyosh janubiy Kaliforniya apelsin daraxtlari va gullar orasiga ko'milgan uyi haqida poyma-poy gapirib berdi.

Bir necha kun o'tgandan keyin u olimlar va kapitan bilan birga kayut-kompaniyada o'tirar edi. U ovqatning mo'lligidan quvonar, boshqalarning og'ziga tushib yo'q bo'lib ketayotgan har bir luqma uni zo'r tashvishga solardi. Uning aqli joyida, lekin stol atrofida o'tirgan odamlarga nafrat bilan boqardi. Ovqatning tamom bo'lib qolishidan qo'rqib, bezovta bolardi. U hadeb oshpazdan, xizmatchi boladan, kapitandan ovqat zaxirasini surishtirardi. Ular yuz martalab tasallli bersalar ham ishonmas, o'z ko'zi bilan ko'rgani ovqat omboriga tez-tez tushib turardi.

Kemadagilar uning o'nglanayotganini sezib qoldilar. U kun sayin semiraverdi. Olimlar bosh chayqab turli taxminlar qilishardi. Unga ovqatni kamroq bera boshladilar, lekin shunda ham semirib, qorin sola boshladi.

Matroslar bunga kulishardi, ular gap nimada ekanligini bilishardi. Olimlar uning orqasidan poylab, sirni bilib oldilar. Ertalab nonushtadan keyin u bakka chiqar va matroslarga xuddi tilanchiday qo'l cho'zardi. Matros kulib, unga qoqnon berardi. U ochko'zlik bilan nonni olar va xuddi oltinga ko'zi tushgan xasisdek, uni qo'lltig'iga urardi. Boshqa matroslar ham yo'lini topib, uni quruq qo'ymasdi.

Olimlar indamay uni o'z holiga qo'yib qo'yidilar va unga bildirmay karavotini tekshirdilar. Karavotning osti qotgan non bo'laklari bilan to'la edi. Lekin uning miyasi joyida bo'lib, u faqat, yana och qolguday bo'ssam degan gumon bilan chora ko'rardi, xolos. Olimlar bu kasallik tez o'tib keta-di, degan fikrda edilar. Haqiqatan ham «Bedford» kemasi San-Fransisko gavaniga langar tashlamasdanoq bu kasallik o'tib ketdi.

TUN FARZANDI

(Hikoya)

Atrofni qorong'ulik chulg'agan bo'lsa-da, havo dim edi. Bunaqasi hatto San-Frantsiskoda ham kamdan-kam bo'ladi. Eski Alta-Ino klubining ochiq derazasidan ko'chaning g'ovur-g'uvuri shundoqqina qulinqqa chalinadi. Ichkarida poraxo'tlikka qarshi kurashish va agar unga barham berilmasa, shahar jinoyatchilarga to'lishi to'g'risida bahs ketardi. Bashariyatning tubanliklari, xusumatlari, axloqiy buzuqliklariga har turli misollar keltirildi. Oxirida kimdir o'tgan kungi voqeani yodga oldi va o'sha mash'um kunning tunida ringda o'ldirilgan mashhur navqiron bokschi O'Brayen nomini hech kim tildan qo'ymadidi. Bu ism ichkardagilarni jonlantirib yubordi. O'Brayen to'g'ri so'z, xushxulq yigit edi. Ichmas, chekmas, so'kinmas va yosh ma'budlar singari ko'rkar edi. Hatto ringga ham ibodat kitobchasi bilan ko'tarilardi. Kitobcha kiyimxonadan, paltosining cho'ntagidan chiqdi... vafotidan so'ng.

U shunday beg'ubor va xushsurat edi-ki, go'yo odamni tark etib, o'rnida tuyqus keksalik paydo bo'lganda uni beixtiyor o'ziga rom etadigan yoshlilikning timsoli edi. Bu kecha biz ushbu umrning bahoriga intildikki, orzu kela solib, barchamizni deraza ortida g'azab-la shovqin solayotgan shahardan olislardagi o'zining sultanatiga olib ketdi.

Barduel bizga o'qib bermoqchi bo'lgan Toroning misralarida bunday kayfiyatning yellari birmuncha esib turardi. Lekin aynan u emas, taqirbosh, xo'ppasemiz Trifden kechamizning xayoliy qahramoni sifatida namoyon bo'ldi. Avvaliga uning hikoyasini eshitib o'zimizdan, ovqatdan so'ng necha stakan viskining boshiga yetdi ekan, deb so'radi, biroq keyin bu haqida o'ylamay ham qo'ydik.

– Bu voqeа ming sakkiz yuz to'qson sakkizinchи yilda bo'lgandi, o'shanda o'ttiz beshda edim, – so'z boshladi Trifden. – Bilib turibman, xayollarингизда chandalab ko'ryapsizlar... Nimayam derdim, haqiqatdan yuz o'girolmaysan – hozir qirqdan o'tdim, afti-angorimga qarab esa o'n yil ko'proq berish mumkin. Shifokorlar ham aytishyaptiki... jin ursin, bu oq xalatlilarni!

U tagi chuqurroq stakanni og'ziga olib kelib, hovurini bosish uchun asta simirdi.

– Ammo men yosh edim... qachonlardir. Ha, o'n ikki yil avval sochlarim siyqa emas, quyuq, o'zim esa baquvvat, kelishgan, xipcha edim. Eng uzun kun ham men uchun g'oyat qisqa tuyilardi. Sen eslaysanku, Milner, biz sen bilan anchadan beri osh-qatiqmiz. O'zing ayt, zap azamat emasmidim?

Milner bosh silkidi. U Trifden kabi tog' muhandisi bo'lib, Klondaykda rizqini terib yurardi.

– Sen haqsan, qariya, – dedi Milner. – O'sha oqshom qandaydir tannoz muxbir to'polon ko'targanida o'rmon kesuvchilarni boplab ta'zirini bergenning sira yodimdan ko'tarilmaydi. U paytda Slevin safarda edi, – batafsilroq tushuntirdi bizga Milner, – uning ish boshqaruvchisi o'zining gumashtalarini Trifdenga ro'baro' qilgandi.

– Endi esa ahvolimga qaranglar, – dedi alam-nok Trifden. – Oltin vasvasasi meni ne ko'ylarga soldi. Cho'ntagimda necha millionlar borligi yolg'iz Yaratganga ayon, qalbim esa bo'm-bo'sh, tomirlarimda bir tomchi-da qaynoq qon oqmaydi. Endi men naq meduzaman – bir tog'ora sovuq il-viragan xamir... Vuy-y!

Uning ovozi qaltirab ketdi va yana tasalli uchun viskiga talpindi.

– U vaqtlar ayollar mendan ko'z uzishmasdi. Hozirgacha oila qurmaganim g'alati ko'rindi... Hammasi o'sha qizni deb... Aynan o'sha haqda so'zlab bermoqchiman. Men uni oq tanlilar istiqomat qiladigan jami maskanlardan ming mil – balki, undanda uzoqroqdir – olislarda uchratdim. U menga hozirgina Barduel o'qib bergen Toroning misralaridan – ilohlar, yorug' kunda dunyoga kelganlar hamda qora tunda tug'ilgan maloikalar dan parcha keltirgandi.

Bular Golstedga o'rnashib olganimdan so'ng yuz berdi. Golsted soyi qanchalik oltin to'la o'ra ekanligi xayolimga ham kelmagandi. Qoyatog'dan Katta Bandiko'l orqali sharqqa «yurish» qildim. Shimolda Qoyatog' nafaqat tog' tizmasi, balki o'tib bo'lmas chegara, devordir. Qadimda darbadar ovchilar bu tog'dan kamdan-kam o'tishgan, ammo bunday yuragi butunlarning aksari yo'lda-yoq bandalikni bajo keltirishardi. Shuning uchun ham bu mashaqqatli yo'l hisoblanar va men ushbu yo'lni bosib o'tishga bel bog'ladim. Bunday jasurlikdan har kim faxrlansa arziydi. Hozir ham hayotimdagি boshqalardan ko'ra shu ishimdan ko'proq g'ururlanaman.

Men o'zga olamga tushib qolgandim. Uning be-poyon kengliklarini hali birov tekshirmagan, bি-
ror oq tanli odam oyog'i tegmagan, hindu qabilalari esa bu yerlarda o'n ming yillar ilgarigi ibtidoiy
sharoitda kun ko'rishardi... Negaki ular o'shanda
ham hozirgidek oq tanlilar bilan ba'zi-ba'zi hol-
lardagina savdo munosabatlariga kirishishardi.
Vaqti-vaqti bilan alohida hindu guruhlari shu
maqsadda tog'dan o'tishardi. Lekin Gudzonov
ko'rfazi Kompaniyalariga ham manzilga yetib, bu
joylarni egallash nasib etmadı.

Endi qizga qaytaylik. Men agar Kaliforniyada
bo'lganida daryo hisoblanadigan, nomsiz, birorta
xaritaga kiritilmagan soy bo'ylab yuqoriga ko'ta-
rildim. Ko'z o'ngimda goh baland tosh devorlar bi-
lan o'ralgan, goh yalang xushmanzara vodiy na-
moyon bo'ldi. Yaylovlardagi o't-o'lalnlar odambo'yı
cho'zilgan, maysazorlar gullarga burkangan, har-
har yerdagi qoraqarag'aylarning shox-shabbalari
tarvaqaylab ketgandi. Yelkalariga zalvarli yuklar
ortilgan itlarim batamom kuchdan qolishdi, pan-
jalari qontalash bo'lib ketdi. Men qanday bo'lmasi-
sin hindular qo'nalg'asini izlashga tushdim. Ular-
dan chana va it haydovchilarni yollab, birinchi
qor bilan yo'lda davom etish umidida edim.

Meni kuzning oxiri bo'lsa-da bu yerlarda gullar-
ning ochilib turgani hayron qoldirdi. Chamasi,
men subarktik Amerikaning qayeridadir, Qoya-
tog'dan yuqoriroqda turgandim, haqiqatda esa
hamma yoqda boshdan-oyoq yashil gilam to'shal-
gandi. Qachon bo'lmasin bu o'lkalarda oqlar pay-
do bo'ladi va bu dalalarga bug'doy sepishadi.

Nihoyat, gulxan tutuniga ko'zim tushdi, itlar-
ning akillashini eshitdim va qo'noqqa yetib bor-

dim. Bu yerda taxminan, besh yuztacha hindu bo'lib, go'shtni surlashga mo'ljallangan ustunlar sonidan kuzgi ov mavsumi omadli kelganini tu-shundim. Xuddi shu yerda uni – Lyusini uchrat-dim. Uni shunday chaqirishardi. Hindular bilan faqat imo-ishora orqali gaplasha oldim. Meni ul-kan vigvamlar – gulxan yonib turgan tarafi ochiq chodirga boshladilar. Vigvam olovrang bug'u terisidan edi. Ichkarida ozodalik va saranjomlik hukm surardi. Bunday sarishtalikni hali bironta hindu chaylasida ko'rmagandim. Yotar joy yan-gi kesilgan qoraqarag'ay shoxlariga to'shalgandi: bir quchoq mo'yna ustidan oppoq parqudan tay-yorlangan yopinchiq solingandi. Bundayin yopin-chiqni birinchi ko'rishim edi. Uning ustida oyoqlarini chalishtirgancha Lyusi o'tirardi. Qorachadan kelgan, yong'oqrang. Uni qiz deb atadim. Yo'q, u ayol edi, shukuhli, kamolotga erishgan bug'doy-rang amazonka. Ko'zları esa moviy edi. Ha, mana o'shanda meni nima sehrlagan: uning ko'zları, ko'm-ko'k nigohlarida daryo moviyligi-yu, samo ko'kligi qorishib ketgandi, go'yo. Ayniqsa, ularda quyosh nurlariga cho'mmagan qaynoq xushchaq-chaqlik jilvalanar, ularda chuqur insoniylik bi-lan birga... qanday tushuntirsam ekan... cheksiz nazokat bor edi. Tag'in nimani aystsam ekan? Bu moviy ko'zlarda donishmand-faylasuf xotirjamligi yanglig' otashin azobni ham, g'am-anduhni ham, osudalikni ham o'qidim.

Birdan Trifden hikoyasini to'xtatdi.

– Birodarlarim, sizlar, balki, meni ortiqcha ichib qo'ydi, deb o'ylayotgandirsizlar. Aslo! Bu kechlikdan keyin beshinchisi. Men mutlaqo hush-

yorman va tantanavor ruhdaman. Axir, hozir men bilan o'tmishdagi baxtiyor yoshligim gaplashyapti. Ayni zamondagi «qariya Trifden» emas, yoshligim tasdiqlamoqdaki, bu ko'zlar bir paytlar men ko'rgan eng ajib ko'zlar edi: shunday xotirjam va shu bilan bir vaqtda ma'yus, dono va sinchkov, ko'hna va jo'shchin, mamnun va iltifotli. Yo'q, do'stlarim, ularni tasvirlagani so'z topolmayman. Kelinglar, yaxshisi, u haqida gapirib bera qolay, o'zlarining tushunib olaverasizlar...

Lyusi o'rnidan qo'zg'almay, qo'l uzatdi: «Yot kishi, – dedi u, – siz uchun xursandman».

Qo'pol shimoli-g'arb lahjasini bilasizlarmi? Qay ahvolga tushganimni faraz qilaveringlar. Men oq tanli ayol kishini uchratdim, lekin uning lahjası... Dunyoning narigi burchagida oq tanli ayolga duch kelish ajoyib, biroq, Xudo xayringni bergur, uning lahjası ko'ngilni g'ash qilar, qulqoni buzuq ohangdek batang qilardi. Baribir ayol jozibali edi. Qulqon soling, o'zlarining amin bo'lasizlar.

U ishora qilgandi shu zahotiyoy hamma chiqib ketdi. Hindular unga qabila boshlig'iga bo'ysunganday so'zsiz bosh egishardi. U erkak hindularga men uchun chodir tikishni va itlarimga g'amxo'rlik qilishni buyurdi. Buyruq bajo keltirildi. Ular hatto mokasinimning bog'ichiga ham qo'l tekkizishmadidi. Ular bu ayolda itoat etish kerak bo'lgan sardorni ko'rishardi. Bu yerdidan ming mil narida yovvoyilar qabilasini oq tanli ayol boshqarmoqda, degan o'ydan larzaga keldim.

«Yot kishi, – dedi u, – o'ylashimcha, siz bu vodiyaga qadami yetgan ilk oq tanlisiz. O'tiring, gurunglashamiz, keyin esa taomga. Qayoqqa yo'l oldingiz?»

Yana uning talaffuzi g'ashimga tega boshladi. Bunga e'tibor qilmanglar. Ishontirib aytamanki, parqu yopinchiqqa cho'kib, bu dilbar ayolga qu-loq bergancha o'zim ham buni o'ylamay qo'ydim.

Bu vodiya bir haftacha bo'ldim. U yoqlarda qolishni uning o'zi taklif etdi. It, chana va haydov-chilarni va'da qildi. Uning chodiri boshqalarnikidan alohida, daryoning yuqori qirg'og'ida bo'lib, bir nechta hindu qizlar uning xizmatida edi. Biz u bilan suhbatlashardik, tinmay suhbatlashardik, bu to birinchi qor tushib, chana yurgizishga imkon bo'limguncha davom etdi. Lyusining aytishi-cha, u chegarada tug'ilgan ekan, qashshoq ko'ch-manchilar oilasida. Bilasizlarmi, ularning hayoti qanaqa: mehnat, mehnat, boshi-keti ko'rinxmay-digan qora mehnat...»

«Men olamning go'zalligini payqamasdim, – so'z boshladi Lyusi. – Bunga vaqtim yo'q edi. Bilardim, u yonimda, kulbamiz atrofida, ammo non pishirishim, supurib-sidirishim, har xil yumushlarni bajarishim kerak edi. Gohida o'lgudek erkinlikni istardim, ayniqlsa, bahorda, qushlar navosi aql-dan ozdirayozganda. Yaylovlarda oyoqlarim shabnamdan ivimaguncha yugurgim, o'rmonga kirib, uzoq-uzoqlarga ketgim, dovonga chiqib, u yerdan olislarga tikilgim kelardi. Daralarda, ko'llar bo'yida sang'ishni, qunduzlar, olachipor gulmohilar bilan do'stlashishni, olmaxonlar, quyonlar, turli jonorlar orqasidan pisib borib, ularni kuzatishni, sir-asrorlaridan voqif bo'lishni xohlardim. Menga shunday tuyillardiki, garchi vaqtim bo'lganida ham maysalar ustida yotib, jonzotlar biz odamlar bilmagan narsalar haqida pichirlashayotganiga quloq solgan bo'lardim».

Trifden stakanini toldirmagunlaricha kutib turdi.

– Bir safar esa shunday degandi: «Meni yovvoyi hayvonlardek oy nurida, yulduzlar hamrohligida tunlari daydish istagi qiyndi, zulmatning muz-dek baxmali badanimni erkalashi uchun ortim-ga qaramay yugurgim kelardi. Qaysidir oqshom, og‘ir, jazirama kunduzdan so‘ng – shu kuni nimaga qo‘l urmay, ishim yurishmadi – butunlay holdan toydim. Otamga ahyon-ahyonda tunlari sayr qilgim kelayotganini bildirdim. U ajablanib menga baqrayib turdi-da, ikki dona xapdori berdi va joyimga yotib, miriqib uqlab olishimni maslahat berdi. Shundan buyon o‘z istaklarimni birovga ishonmayman».

Ularning xo‘jaligi og‘ir ahvolga tushib, oila kambag‘allikka yuz tutdi va ular Sietlga ko‘chib o‘tishdi. U yerda Lyusi ish kuni asrga tatigulik va mehnati og‘ir, tinkani quritadigan fabrikadan ish topdi. Bir yil o‘tib, arzon restoranga ofitsiant bo‘lib ishga kirdi.

«Azaldan, – dedi bir kuni menga Lyusi, – xayol-parastroqman. Lekin qozon-tovog‘u fabrika va arzon-garov restoranlarda xayolparastlikka o‘rin bor deb o‘ylaysizmi?»

O‘n sakkizga tolganda Junoda restoran ochmoqchi bo‘lgan kishiga turmushga chiqdi. U kishining ozroq jamg‘armasi bo‘lib, Lyusiga boyvachchadek ko‘ringandi. Lyusi uni sevmasdi – buni doimo ta’kidlardi, ammo qiz charchagandi, mashaqqatli mehnat joniga tekkandi. Buning ustiga Juno Alyaskada joylashgan. Lyusi bu mo‘jizaviy o‘lkaga ko‘chib o‘tishga jon-dili bilan rozi

bo'ldi. Biroq umidlari sarobga aylandi. Eri arzon restoran ochdi. Tez orada Lyusi uning nima sababdan uylanganini anglab yetdi: maqsad – tekin xizmatkorga ega bo'lish ekan. Lyusi barcha yumushlarni – mijozlarga xizmat ko'rsatishdan tortib idish-tovoq yuvishgacha bir o'zi bajarishiga to'g'ri keldi. Qolaversa, kun bo'yи jiz-biz qilardi. Shu tarzda to'rt yil yashadi.

Iflos qovoqxonaga bandi qilingan va naqd to'rt yil mobaynida zahmat chekishga majbur bo'lgan bu yovvoyi, ibtidoiy sezgiga moyil, ozodlikka tashna o'rmon mavjudotini ko'z oldingizga keltiraver-ninglar!

«Hammasi shunchalar ma'nisiz ediki, – dedi u. – Kimga kerak bunaqa hayot? Men nima uchun dunyoga keldim? Nahot yashashning ma'nosи ishlash, ishlash va yana ishlash bo'lsa? Yotganiningda ham charchagan bo'sang, uygonganingda ham charchoqni his qilsang, kunlar bir-biriga ikki tomchi suvdek o'xshash bo'lsa, bundan nima naf?» Ba'zi riyokorlardan mangu hayot haqida eshitgan bo'lsa ham o'zining yerdagi hayoti boqiylikning garovi bo'lishiga ishonmasdi.

Ideal hayot orzusi uni tinch qo'ymasdi. U bir qancha kitoblarni o'qib chiqqan bo'lsa-da, aynan qaysilarini, bilmayman, «Dengiz bo'yи kutubxonasи» turkumidagi romanlar bo'lsa kerak, ular ham orzularini oziqlantirardi, xolos.

«Gohida, – derdi Lyusi, – oshxonadagi dim havodon boshim shunday aylanardiki, agar musaffo havodon bir sippormasam, hushimdan ketayozardim. Derazadan boshimni chiqarib, ko'zimni yumardim va tasavvurimda ajib manzaralar paydo bolardi.

Shunday tuyillardiki, asta yurib ketyapman, atrofimda esa sukunat, ozodalik: na chang, na g'ubor. O'tloqlarda jilg'alar shildirab oqadi, qo'zichoqlar chopqillab yurishibdi, sabo gullarning muattar hidini barchaga ulashayapti, borliq quyosh nurlariga cho'mgan. Sigirlar tizza bo'yи suvga tushib olishgan, soyda qizlar cho'milishyapti, badanlari oppoq, nafis. Xayolimda Arkadiyadaman. Bu o'lka haqida qaysidir kitobda o'qigandim. Balki orzu qilardim, yo'lning muyulishida birdansovutlari quyoshda yaltirayotgan ot mingan ritsar yoki qorday oppoq otda malika peshvoz chiqar. Nariroqda qandaydir qasrning minoralari gavdalanadi. Yoki keyingi burilishda nuqradek tiniq, favvorali afsonaviy saroyni ko'raman deb, o'y surardim... Ko'zimni ochgach esa oshxonaning bo'g'iq nafasi tag'in dimog'imga urilar, Jeykning, erimning ovozini eshitishga majbur edim: «No'xotni nega suzmayapsan? Kun bo'yи kutib o'tiramanmi?» Sohir o'y-orzular! Ehtimol, mast arman-oshpaz janjal ko'tarib, oshxona pichog'ini bo'ynimga tiraganda, men esa temir hovoncha bilan boshiga tushirganimda, ammo undan avval qo'llimi qizib turgan pechda kuydirib olganimda ularga hammadan ko'ra yaqinroq turgandirman.

Men behalovat, quvnoq hayotni, chiroyli bu-yumlarni orzu qilardim... ammo xayolimga tez-tez shunday fikr kelardiki, peshonamga baxt bitilmagan, qismatim faqat pishir-kuydir-u qozon-tovoq yuvishdan iborat. Ayni damda Junoda aysh-ishrat avjiga chiqqan. Boshqa ayollar o'zlarini qanday tutayotganlarini ko'rdim, lekin ularning hayot tarzi zarracha bo'lsa-da meni o'ziga jalb eta olmadi. Men pok bo'lishni istardim; bilmadim,

nima uchun. Idish-tovoq yuvib o'lasanmi yo anov ayollardekmi – baribir emasmi?»

Trifden bir zumga og'ziga tolqon solib oldi, fikrini bir joyga to'plamoqchiday edi.

– Ha, mana qanday ayolni uchratgandim: u yovvoysi hindular qabilasining sardori edi, bir necha ming kvadrat mil hududga egalik qilardi. Garchi uning o'ziga qozon-tovoqlar ichida yashab, shu yerda rixlatga ketishdek tuyilsa-da, bu osongina amalga oshgandi.

«Isyon ko'tarish soati yetib kelgandi. O'sha kunlarda so'zlari haligacha yodimda bo'lgan gazeta parchasi qo'limga bexos tushib qoldi». U'menga Toroning «Inson faryodi» kitobidan parcha keltirdi:

«Yosh qarag'aylar jo'xorizorda yildan-yilga bo'y cho'zadi, bu men uchun quvonarli hol. Biz hindularni madaniylashtirishimiz lozim, deb aytamiz, lekin bu ularning hayotini o'nglamaydi. Jangovar hamda mustaqilligicha qolib, o'rmonda tanholikda kun ko'rayotgan hindu o'zining Xudosi bilan aloqani yo'qotmadi. Vaqtı-vaqtı bilan onda-sonda uchraydigan, o'ziga xos muloqot – tabiat-la tillashish baxti unga nasib etadi. Unga yulduzlar yaqinroq, bizning mayxonalarimiz esa begona. Qalbining o'chmas nuri xira ko'rindi, chunki u bizdan olislarda. U ko'zni qamashtiradigan, biroq zararli va uzoqqa bormaydigan sham alangasi bilan raqobatga kirishgan nursiz, ammo himmatli yulduzlar yog'dusiga monand.

Qardoshlik orollari aholisining kunduz yorug'ida dunyoga kelgan ilohlari bo'lgan. Ammo ular tunda tug'ilgan Xudolarga nisbatan juda qadimiyo emas...»

Lyusi bularni so'zma-so'z aytdi, jumlalar uning og'zidan shukuhli eshitilardi.

«Ana shunaqa. Qolgani yertib olingan ekan, – qo'shimcha qildi Lyusi achchiq alam bilan. – Bu faqatgina gazeta parchasi edi, xolos. Toro – buyuk donishmand. U haqida ko'proq bilishni istardim».

Lyusi jimib qoldi, ont ichamanki, bir daqiqadan so'ng: «Men unga munosib umr yo'ldosh bo'lardim», – deganida uning yuzi go'daknikidek beg'ubor edi.

Keyin, so'zida davom etdi:

«Bu jumlalarni o'qib bo'ldim-u menga nima bo'lganini anglab yetdim. Men tun farzandi edim. Urim bo'yи kunduz bolalari orasida bo'ldim, assida esa zulmatga tegishli edim. Mana, ne bois bunday hayot – qozon kavlash, idish-tovoq orasida ivirsish ko'nglimga o'tirishmaydi, mana, ne bois oy shu'lesi ostida yalang'och bo'lib chopgim keladi. Junoning iflos mayxonalari men uchun emasligini tushunib yetgandim. Ana shunda o'zimga o'zim: «Bas, yetar», – dedim, aftodahol ust-boshimni yechib, tashqariga chiqdim. Jeyk to'xtatishga urindi.

– Nima qilmoqchisan?

– O'rmonga ketaman, o'z makonimga.

– Hech qayoqqa ketmaysan, – yelkamdan tutib, ushlab qolmoqchi bo'ldi. – Oshxonadagi haroratdan aqlingni yo'qtibsani. Biror kulfatga yo'liqmasingdan meni eshit.

Meni esa unga revolver o'qtaldim, kichkina kolt-44 va: «Mana mening javobim», – dedim-da jo'nab qoldim».

Trifden stakanni bo'shatib, yana quyishlarini so'radi.

– Bilasizlarmi, keyin u nima qildi? U paytda yigirma ikki yoshda edi. La’nati to’rt yilini oshxonada o’tkazdi, endi esa barcha yo’llar ochiq edi. Bu safar ishratxonaga borib o’tirmadi. To’g’ridan-to’g’ri sohilga. Menimcha, Alyaskada suv yo’li bilan sayohat qilishni afzal ko’rishadi. Ayni shu damda hindular qayig‘i Dayiga jo’nayotgandi – bunday nusxadagi qayiqni ko’rgansizlar, yog’ochni o’yib yasaladi, ensiz, chuqur, uzunasiga oltmish fut. Lyusi hindularga qo’lidagi bor chaqani uzatib, qayiqqa o’tirdi.

«Sohir xayolot? – dedi u. – Sohir xayolot ijobati ilk daqiqalardanoq boshlandi. Qayiqda mendan tashqari uchta oila ham bor edi. Qimirlashning iloji bo’lmasdi. Oyoq tagida it va bolakaylar o’ralashishar, qayiq oldinga siljishi uchun hamma bir-ma-bir eshkak eshishi lozim edi. Ikki tomonimiz esa qorli tog’lar bilan o’ralgan, ulardan ham yuskakroqda bulutlar onda-sonda quyoshni yashirib turishadi. Sukunatni aytmaysizmi! Hayratomuz osoyishtalik! Ora-sira uzoq-uzoqlarga, daraxtlar orasidagi ovchilar qarorgohidan chiqayotgan tutun yuqoriga o’rlaydi. Bu sayohat bog’ sayrini es-latar, orzularim haqiqatga aylanishiga ko’z tika boshlagandim. Qandlaydir mo’jiza yuz berishini kutardim va bu chindan-da ro’ybga chiqdi.

Oroldagi ilk qo’nalg’amiz, baliq ovlayotgan shumtakalar, hindulardan biri turgan joyidayoq paykon otib qulatgan bahaybat bug‘u! Hamma yoq gulga burkangan, qirg’oqdan nariroqda o’tlar odam bo’yi, qalin, dirkillab turibdi. Bir qancha qizlar bilan tepalikka chiqib, maymunjon va turfa xil ildizmevalar terdik, nordon, lekin xushxo’r.

Bir joyda meva bilan qorin to'yg'azayotgan ulkan ayiqqa yo'liqdik. U hurkib ketib, bo'kirdi va bizga o'xshab ura qochdi. Gulxan atrofidagi o'yin-kulgi, bug'u go'shtining so'lagingni oqizadigan hidi! G'aroyib! Nihoyat men o'z qondoshlarim bilan birga edim, mening joyim ularning orasida edi. O'sha oqshom uyquga ketar ekanman, chodirning bir chetini ko'tarib, viqorli tog'lar ortidan jil-mayib qarayotgan yulduzlarga tikildim, tunning shivir-shiviriga qulq soldim va umrimda ilk bora o'zimni baxtiyor sezdim. Ertaga ham, uning ertsiga ham, umrbod shunday bo'lib qolishini bilib turardim. Ortga qaytmaslikka qaror qildim. Qaytmadim ham.

Xomxayollar! Bularning nima ekanligini ertasi kuni bildim. Biz eniga o'n ikki – o'n besh mildan kam bo'limgan daryoning vahimali irmog'i dan suzib o'tishimiz kerak edi. Irmoqning o'rtasiga yetganimizda dovul ko'tarildi. Tunni qirg'oqda katta bo'ribosar bilan yolg'iz o'tkazdim, negaki bior kimsa tirik qolmagandi».

– Faraz qiling, – dedi Trifden hikoyasini to'xtatib, – qayiq ag'darilib cho'kib ketdi. Ichidagilarning bar-chasi halok bo'ldi. Birgina Lyusi itning dumiga ilakishgancha qirg'oqqa chiqib jon saqlab qoldi. Ko'zini ochganda jimitdek qumloq sayozlikda edi.

«Hayriyatki, bu orol bo'lib chiqdi, – dedi u. – Men o'rmon oralab ichkariroqqa yuraverdim. Ko'rgan odam nimanidir axtaryapti, deb o'ylashi tayin edi. Asta qadam sanayverdim. Ichimda qo'rquv-dan asar ham topilmasdi. Axir, men tun farzandi edim. O'rmonning vahimasi meni qo'rqi tolmasdi. Orolga tushganimning ikkinchi kuni izlaganim-

ni topdim. O'rmon ichidagi tor so'qmoqda yarim vayrona kulbaga ko'zim tushdi. U anchadan beri huvillab yotgan ko'rinardi. Tom o'pirilib tushgandi. Karavot ustidagi ko'rpa-yostiq chirib bitgan, o'choq yonidagi xum va qozonni is bosib ketgandi. Eng qizig'i hali oldinda edi. Daraxtlar orasidan nima topganimni xayolingizga ham keltirolmaysiz. U yerda qachonlardir daraxtga bog'langan sakkizta ot skeleti yotardi. Otlar, aftidan, ochdan o'lgan, ulardan bir uyum suyak qolgandi, xolos. Har bir otning beliga xurjun ortilgan ekan, shekilli, suyaklar orasida kanop qopchiqlar ivrisib yotardi, bu qopchiqlarda esa bug'u terililari, ularning ichida esa... siz o'zingiz nima bor deb o'ylaysiz?»

Lyusi engashib qoraqarag'ay novdalari tagidan teri xurjunni oldi. Og'zini yechib umrimda ko'r-magan bir dunyo oltinni qo'limga to'kdi: bu yerda katta miqdordagi oltin zarralari bor edi, rangidan sofigi va biron marta yuvilmaganligi bilinib turardi.

«Sen tog' muhandisiman deding, – murojaat qildi menga Lyusi, – bu yurtni yaxshi bilarkan-san. Mana shu rangdagi oltin olinadigan birorta soy nomini aytta olasanmi?»

Mum tishlab qoldim. Oltinga hech qanaqa kumush aralashtirilmagan, toza edi. Oltin sifatini Lyusiga aytdim.

«To'ppa-to'g'ri, – tasdiqladi, – men bir unsiyasini o'n to'qqiz dollardan pullayapman. Eldorado oltinlariga o'n yettidan ortiq berishmaydi, asl bahosi esa o'n sakkizga yaqin. Suyaklar orasidan sakkiz qop oltin topdim, har birida yuz ellik funtdan!»

– Chorak million dollar! – hayqirib yubordim.
– O'zimning xomcho'tim bo'yicha ham shuncha. Mana sizga xayolot! Shuncha yil moldek ishladim, ozodlikning ta'mini tatib ko'rishim bilanoq – uch kun ichida bir dunyo sarguzasht! Bu oltinlarni qo'lga kiritgan odamlarga nima bo'lgan ekan? Men tez-tez bu haqida bosh qotirardim. Yuk ortilgan otlarini daraxtga bog'lab, yer yuzidan izsiz yo'qolishgan. Ularning qismati nima bilan tugaganini birov bilmaydi, shunday ekan men, tun farzandi, o'zimni ularning haqqoniy merosxo'ri hisoblayman».

Trifden sigara tutatib o'yga cho'mdi.

– Bilasizlarmi, keyin u qanday yo'l tutdi? U hamma boylikni yashirdi, faqatgina o'ttiz funt oltinni cho'ntagiga joylab sohilga qarab ketdi. Sohilga yaqinroq joydan suzib o'tayotgan qayiqni to'xtatib, Dayidagi Pet Xili faktoriyasiga jo'nadi. Kerakli aslah-aanjom sotib olib, Chilkut dovonini oshib o'tdi. Bu ming sakkiz yuz sakson sakkinchi yili, Klondayk oltin koni ochilmasidan sakkiz yil avval, Yukon sohillari o'lik sahroga evrilmasidan ilgari bo'lgandi. Lyusi hindulardan hayiqardi, shunday bolsa-da, ko'lni suzib o'tib, quyi Yukonda birinchi uchragan qo'nalg'a tomon daryo bo'ylab pastga tushdi. Bir necha yil sargardon yurdi. Keyin esa biz uchrashgan joyga kelib o'rnashdi. Bu joylar unga yoqib qoldi. O'zi aytganidek, bu maskanda «vodiylar yuragida tizza bo'yil alvonrang gulsafstarlar orasida savlat to'kib turgan erkak bug'u ni ko'rgandi. U hindular orasida yashab qoldi, ularga tabiblik qildi, ishonchga kirdi va asta-sekin ularga yo'lboshchilik qila boshla-

di. Shundan beri faqat bir marta issiq o'rnini tark etdi: yosh hindular guruhi bilan Chilkutdan o'tib, yashirib qo'ygan oltinlarini kovlab oldi-da mako-niga qaytdi.

«Mana, shu o'lkada kunimni ko'ryapman, yot kishi, – hikoyasini tamomladi Lyusi, – manavi esa mening eng beabajo xazinam».

Lyusi bo'yniga osib olgan bug'u terisidan tilg'an nishonsimon xaltachani olib, uni ochdi. Ichidan yog' bosgan shoyiga o'ralgan, vaqt o'tib sarg'aygan, yag'iri chiqib ketgan, Toroning jumla-lari yozilgan gazeta parchasini chiqardi.

– Xo'sh, baxtlimisiz? Hayotingizdan mammun-misiz? – so'radim. – Chorak million dollar bilan Shtatlarda ham ishlamay yashashingiz mumkin. Sizga bu yerda ko'p narsa yetishmasa kerag-ov.

– Unchalik emas, – javob berdi Lyusi. – Men Sh-tatlardagi biron ta ayol bilan o'r'in almashmasdim. Mening joyim shu yerda, o'zimga o'xshaganlar ora-sida. To'g'ri, shunday daqiqalar bo'ladiki, – uning ko'zlarida yuqorida aytilgan nadomatni ko'rdim, yonimda Toro bo'lishini astoydil xohlayman.

– Sabab?

– Unga turmushga chiqish uchun. Bora-bora o'zimni yolg'iz his qilyapman. Men ham ojizaman, oddiy ayolman. Boshqa toifadagi ayollar, xuddi men kabi uydan qochib ketib, hayratlanarli ja-surliklar ko'rsatgan, masalan, askar yoki den-gizchi bo'lgan ayollar to'g'risidagi mish-mishlar qulog'imga chalingan. Ular alomat ayollar. Ular erkakshoda ayollar, chin ma'nodagi ayol kishida bo'ladigan ehtiyojga muhtoj emaslar. Ular mu-habbat o'tida yonmaydilar, bola ko'rishni xohla-

maydilar. Men bo'ssam, aynan ushbu toifadan-man. O'zingiz baho berib ko'ring, nahot erkakka o'xshasam?

Mutlaqo. U zig'ircha bo'ssa-da er kishiga o'xshamasdi. U to'lachadan kelgan, moviy ko'z, dilbar, qoramag'iz ayol edi.

– Nahot men ayol kishi bo'masam? Ha, men ham boshqa ayollarga o'xshayman. Shunisi g'ataliki, tun farzandi bo'la turib, sevgiga kelganda o'z-o'zimga o'xshamay qolyapman. O'ylashimcha, inson doimo o'zi kabilarni sevadi. Menda ham shunday bo'ldi.

– Nahot biron... – og'iz ochdim.

– Aslo, – gapimni bo'ldi. Nigohlaridan bildim-ki, haqiqatni gapirayotgandi. – Bir martagina er qildim – endi uni xayollarimda «Ho'kiz» deb atayman. U hozir ham Junodagi qovoqxonasida bo'lsa kerak. O'sha yoqlarga yo'lingiz tushsa, yo'qlab qo'ying. Uning men aytgan laqabga qanchalik loyiq ekanligiga o'zingiz ishonch hosil qilasiz.

Ikki yil o'tib «Ho'kiz»ni izlab topdim. U chindan-da Lyusi ta'riflagandek ekan. Boqibeg'am, baqaloq – haqiqiy ho'kiz. U arang oyoq sudrab, o'zining yemakxonasida mijozlariga yugirib-yelardi.

– Yoningizda suyanch bo'lgani ayol kishining qo'li yetishmas ekan, – dedim unga.

– Qachonlardir bo'lgan edi.

– Vafot etdimi?

– Ha, vafot etdi. U har doim oshxonaning bo'g'iq havosi sabab aqldan ozishini takrorlayverardi. Shunday ham bo'ldi. Kunlarning birida menga revolver o'qtaldi-da, sivashlar bilan qayiqda qochib ketdi. Dovul turib, hammasi suvga g'arq bo'ldi.

Trifden yana stakanni to'latib, anchagacha su-kut saqladi.

- Xo'sh, ayolga nima bo'ldi? – esga soldi Milner.
- Eng qiziq joyida to'xtab qolding-ku. Keyin nima bo'ldi?

– Keyinmi, – davom etdi Trifden, – keyin o'zining aytishicha, boshqa hammasida yovvoyiligicha qol-gan bo'lsa-da, turmush o'tog'ini o'z irqidan bo'li-shini istardi. U menga rafiqqa bo'lishni xohlayotgani-ni muloyimgina, ro'yi-rost tushuntirdi.

– Yot kishi, – dedi u, – ko'nglimdagи inson bo'lib chiqdingiz. Modomiki, kuzda Qoyatog'ni ishg'ol etib, bu yerlarga qadam ranjida etibsizmi, demak, bizning turmush tarzimiz sizga ma'qul ekan. Qarang, qanday go'zal joylar. Bundan yaxshisini to-polmaysan. Shu yerlarda qolsangiz bo'lmaydim? Men sadoqatli xotin bo'laman.

U javobimni kutardi. Tan olishim kerakki, ichimda jon deb turardim. Men oshiq bo'lib qol-gandim. Lekin, ko'rib turganingizdek, bo'ydoq-man. Ortinga o'girilib, aytishim mumkinki, Lyusi meni o'ziga rom eta olgan yagona ayol edi. Biroq bo'lib o'tgan voqealar menga o'ta bema'ni tuyildi. Suyukli ayolim bor, deya jentlmenlardek qulog'i-ga lag'mon ildim.

- U seni kutyaptimi? – so'radi Lyusi.
- Bo'lmasamchi.
- Seni sevadimi?
- Sevganda qandoq.

Shu bilan hammasi tugadi. Lyusi qaytib bu mavzuga to'xtalmadi... faqat bir safargina... ichidagi to'fonni ushlab turolmadi.

– Birgina qosh qoqsam bo'lgani, – dedi rah-namo, – sen bir qadamga-da joyingdan jilolmay-

san... Ha, bir og'iz so'zim kifoya – bu yerda umrbod qolib ketasan. Yo'q. Men bunday qilmayman. Agar sen xohlamas ekansan, seni ushlab turolmayman. Mening muhabbatim ham senga kerak emas ekan.

Lyusi chodirdan chiqib, yo'lg'a otlanishimga ko'maklashishlarini amr etdi.

– Jo'nab ketayotganing yuragimga o't solyapti,
– dedi u vidolashayotib. – Seni sevib qoldim. Agar fikringni o'zgartirsang, yonimga qayt.

Men uni o'pgim kelardi, axir, men uning ishqida yonardim, biroq yuragim betlamasdi. Keyin, bunga qanday qaraydi, bilmayman. Uning o'zi yordamga keldi.

– Mendan bo'sa ol, – dedi u, – bo'sa ol, keyin eslab yurish uchun.

Biz Qoyatog' etagidagi qorli vodiy bag'rida og'iz-burun urishtirdik. Lyusini yo'l chetida qoldirib, itlarim izidan chopib ketdim. Dovonni ish-g'ol etib, Katta Bandiko'ldagi ilk uchragan postga yetib kelgunimcha bir yarim oy muddat kerak bo'ldi.

Deraza ortidagi shahar olslardagi to'lqinlardek shovullardi. Ofitsiant naychali stakan keltirdi. Jimjitlikda Trifdenning ovozi dafn qo'ng'irog'idek ingradi:

– O'sha yoqlarda qolganimda yaxshi bo'larmidi. Ahvolimga qaranglar.

Biz uning oq oralagan soqol-mo'yloviga, yaltirboshiga, salqigan ko'zlariga, osilgan lunjlariga, baqbaqalariga nazar tashladik. Bu siyrat qachonlardir kuchli, zuvalasi pishiq, sobitqadam bo'l-

gan, endilikda esa nihoyatda zerikarli va farovon turmushdan moy bog'lagan, hayotdan to'ygan, sharti ketib, parti qolgan insonning in'ikosi edi.

– Hali ham kech emas, qariya, – Barduelning tovushi bazo'r eshitildi.

– Xudo haqi, qo'rqoqligimdan afsus chekaman! – Trifdenning nidosi otilib chiqdi. – Uning yoniga qaytsam bo'lardi. Hozir ham o'sha yerda. Men bel bog'lab, tog'-u toshlarda u bilan boshqacha hayot kechirishim mumkin edi... Bu maskanlarda qolish – o'z joniga qasd qilish bilan barobar! Lekin ahvolimga razm solinglar: o'zim bor-yo'g'i qirq yet-tida bo'lsam-da munkillagan choldan farqim qolmagan. Eng yomoni shundaki, – stakanni qo'lliga olib, unga tikildi, – bunday tarzda o'z joniga qasd qilish jasorat talab qilmaydi. Men o'zboshimchali-gimcha qoldim. Olis safar o'yidan etim jimirlaydi; tonggi ayoz, muz qoplagan chanalar dahshatidan yuragim orqaga tortadi.

Odatdagidek stakanning peshonasini labiga olib bordi. Keyin birdan g'azab olovida stakanni polga urib chilparchin qiladigandek taraddudlan-di. Ammo g'azab o'rnini avvaliga ikkilanish, so'ng o'ychanlik egalladi. Stakan boz ko'tarilib, labga tegar-tegmas tosh qotdi. Trifden xirillab, hasrat-la jilmaydi, biroq so'zlari tantanavor yangradi:

– Tun Farzandi uchun qadah ko'taraylik! U chinakamiga benazir ayol edi!

OQSOQOLLAR ITTIFOQI (*Hikoya*)

Kazarma binosida hayot-mamot masalasi hal bo'layotgan bir odamni sud qilishardi. Bu - Oqbaliq daryosi sohillaridan kelgan chol edi. Cholning ko'rilayotgan ishi butun Dousonni oyoqqa turg'izdi, nafaqat Dousonni, balki oqim bo'ylab ikkala tomonga minglab chaqirimlarga cho'zilgan Yukon o'lkasini-da junbishga keltirdi. Dengizda qaroqchilar, quruqlikda talonchilar ayshini surayotgan bir zamonda anglosakslar allaqachonlar itoatkor xalqlar hayotiga qonunni singdirib bo'lishgandi va bu qonun shafqatsiz edi. Lekin Imberning ishiga kelganda qonun ilk dafa muruvvatli bo'lib ko'rindi. Bu qonun oddiy hisob-kitob nuqtayi nazaridan qaralganda mutlaq jinoyat bilan tenglasa oladigan bunaqangi jazoni mo'ljallamagandi. Jinoyatchi oliy jazoga mahkum, bunda ikkilishga o'rinn yo'q aslo; biroq jazo qatl bilan yakunlansa-da, Imber bor-yo'g'i o'zining boshini kundaga qo'ya olardi, xolos; bo'ynida esa ko'plarning hayoti qarz bo'lib qolayotgandi.

Aslida Imberning qo'li shu qadar qonga botgandiki, uning qurbanlari sanoqsiz edi. O'lka aholisi qo'nalg'ada to'xtab yoki pechka yonida yalqovlanib, mundshtuk¹ burqsitgancha bu chol tushmagur nechtasining yostig'ini quritganini cho'tga solib chamalashardi. Baxtiqaro qurban-

¹ Mundshuk – mushtuk, papirof naychasi.

larning barchasi hech bir mubolag‘asiz oq tanlilar edi; ular yakka-yakka, juft-juft va to‘dalashib halok bo‘lishdi. Qotilliklar shunchalik ma’nosiz va asossiz ediki, uzoq vaqt mobaynida Qirollik otliq politsiyasi bu jumboqning tagiga yetolmadi. Hatto daryo bo‘yida oltin qazilib, dominion hukumati aholidan o‘z boyliklari uchun soliq yig‘ishtirib olgani gubernatorni jo‘natganda ham yopig‘liq qozon yopiqligicha qoldi.

Biroq eng katta jumboq shu bo‘ldiki, Imberning o‘zi Dousonga – odil sud hukmiga bosh egib kel-di. Bahorning oxirrog‘ida, Yukon o‘zining muz kishanlarini yechishga urinib hayqirib-bo‘kirdganda mo‘ysafid hindu muz ustidagi yo‘lidan burildi-da, qirg‘oq tepaligidan amal-taqal o‘tdi va sarosima ichida shohko‘chada to‘xtadi. Cholga ko‘zi tushganlarning bari payqashdiki, u anchayin kuchdan qolgan. U gandiraklab yog‘och uyumiga yetib bordi-da, cho‘kdi. Yon-veridan o‘tib ketayotgan oq tanlilarning adoqsiz oqimiga razm solgancha uz-zukun shu yerda o‘tirdi. Ko‘pchilik unga qarash uchun bot-bot o‘girilishar, g‘alati aft-angorli bu keksa sivash ba‘zilarni o‘yga toldirardi. Keyinchalik o‘nlab kishilar hinduning g‘ayriqiyofasi ularni hayratga solganini eslab, kun bo‘yi ziyrakliklari dan gerdayib yurishdi.

Shunday esa-da asl qahramon Mitti Dikkensen bo‘ldi. Mitti Dikkensen bu yurtlarda ezgu umidlar-u cho‘ntagida bir dasta dollar bilan hozir bo‘lgandi, ammo cho‘ntakdagagi aqcha ila umid ham havoga uchdi. Shtatlarga qaytishga mablag‘ yig‘ish uchun u «Xolbruk va Meyson» dallollik idorasida hisobchi kursisini egalladi. Ayni «Xolbruk va Meyson» idora-

sining ro'parasida Imber joylashib olgan yog'ochlar uyumi yotardi. Dikkensen uni nonushtadan avval derazadan ko'rib qoldi, nonushtadan so'ng qaytib kelib yana derazadan mo'taladi: keksa sivash hali-gacha o'sha yerda o'tirardi.

Dikkensen tez-tez derazadan nazar tashlab turdi; keyinroq u ham ziyrakligidan faxrlanib yurdi. Mitti Dikkensen sal xayolparastroq edi, shunganmi, u qo'zg'almay o'tirgan keksa majusiyda sivash xalqining timsolini, anglosaks bosqinchilariga boqib turgan tushuniksiz xotirjamlikni ko'rdi.

Soatlar bir-birini quvalashar, Imber esa qilt etmay o'sha holatda o'tirardi. Dikkensen bir paytlar shohko'cha o'rtaida chana kelib to'xtaganini, us-tida shunday harakatsiz o'tirgan kimsani esladi; uning tegrasida o'tkinchilar uymalanishar, hamma uni dam olyapti, deb o'ylar, keyin esa unga qo'l tekkizib ko'rishganda murdaga aylanganligi ma'lum bo'ldi – sovuqda tarashaday qotib qolgandi. Jasadni to'g'rilash uchun – yo'qsa tobutga sig'masdi – uni gulkhan yoniga keltirib, muzini tushirishga majbur bo'lishgandi. Dikkensenning bu o'ylardan eti jimirlab ketdi.

Bir ozdan so'ng Dikkensen sigara chekib, shamollagani ko'chaga chiqdi. Daqiqa o'tib Emili Trevis paydo bo'ldi. Emili Trevis latofatli, noziknihol oyimtila edi, London yoyinki Klondaykda bo'lishidan qat'i nazar millionlarga ega tog' muhandisining arzandasidek kiyinardi. Mitti Dikkensen sigarasini deraza tokchasiga tashlab, shlyapasini andak ko'tarib qo'ydi.

Ular o'n daqiqacha valaqlashdi. Birdan Emili Trevis Dikkensenning yelkasi osha qarab qichqirib

yubordi. Dikkensen shoshib o'girildi-yu, sapchib tushdi. Imber ko'chani kesib o'tib, qizdan ko'zini uzmay soyaday ularning peshonasida turardi.

– Nima kerak? – jur'atlandi Mitti Dikkensen ovozi qaltirab.

Imber nimadir deb ming'illab, Emili Trevisga yaqinroq keldi. U qizni boshdan-oyoq sinchiklab ko'zdan kechirdi. Ayniqsa qizning ipaksimon qo'ng'ir sochlari va ol yonoqlari cholda alohida qiziqish uyg'otdi. U nigohini uzmay qizni aylanib o'tdi, go'yo otning bo'y-bastini yoki qayiqni o'rganayotganday. Nogahon u botayotgan quyoshning nurlari qizning qizg'ish qulqlaridan o'tib shu'lalanayotganini payqadi-yu, taqqa to'xtadi. Keyin yana uning yuzlarini «tekshirish»ga tushdi va qizning moviy ko'zlariga uzoq tikilib qoldi. Tag'in ni-manidir to'ng'illab, bir qo'li bilan nozikoyimning bilagidan ushlab, ikkinchisi bilan tirsagini bukib ko'rdi. Hinduning yuzida nafrat va hayrat aks etdi, po'ng'illab Emilining qo'lini qo'yib yubordi. So'ng bo'g'zidan qanaqadir tovushlar chiqarib, qizga orqa o'girdi va Dikkensenga nimadir dedi.

Dikkensen uning so'zlarini tushunmadni, Emili esa kulgudan o'zini tiyolmadi. Imber qoshlari ni chimirib dam Dikkensenga, dam Emiliga so'z qotar, ular faqat bosh silkib qo'yishardi. Endi ulardan nari ketmoqchi bolgandi, qiz kimnidir chaqirdi:

– Hey, Jimmi! Bu yoqqa kelng!

Jimmi ko'chaning narigi tarafidan yaqinlasha boshladni. Bu oq tanlilar kabi kiyangan, boshiga Eldorado azamatlarining keng soyabonli katta shlyapasini qo'ndirib olgan daroz, beso'naqay

hindu edi. Tutilib-tutilib Imber bilan gaplashdi. Jimmi sitxadan edi; o'lkanning ichkarisida yashaydigan qabilalar tilida faqatgina eng oddiy so'zlarni bilardi.

– U Oqbaliq qabilasidan, – dedi u Emili Trevisga. – Meniki uning tilini yaxshi bilmaydi. U eng katta oq tanlini ko'rmoqchi.

– Gubernatorni, – to'g'riladi Dikkensen.

Jimmi Oqbaliq qabilasidan bo'lgan odam bilan yana bir necha so'z almashdi-yu, yuzi taajjub va tashvishli tus oldi.

– Unga kapitan Aleksandr kerak, deb o'ylayman, – dedi Jimmi. – Aytishicha, u oq tanli erkakni, ayolni, bolani, ko'pgina-ko'pgina odamni o'ldirgan. O'zi ham o'lishni istaydi.

– Aqldan ozgan, shekilli, – dedi Dikkensen.

– Bu nima degani? – so'radi Jimmi.

Dikkensen bosh chanog'ini teshmoqchidek ko'rsatkich barmog'ini chakkasiga tiradi-da, aylantirdi.

– Balki, balki, – dedi Jimmi hamon oq tanlilarning kattasini so'rayotgan Imberga o'girilib.

Qirollik otliq politsiyasidan mirshab yetib keldi (Klondaykda ular otsiz yurishadi), u ham Imberning talabini eshitdi. Mirshab keng yag'rinli, devkor, oyoqlari baquvvat davangir edi; Imber qancha novcha bo'lmasin, mirshab undan yarim kalla baland edi. Ko'zlari sovuq va ko'k, nigohi teran, kelbatidan huv, o'sha asrlar osha ajdodlardan o'tib kelayotgan o'z kuchiga bo'lgan ishonch yog'ilib turardi. Qoyilmaqom jasorati yoshini yashirib turardi – u hali yosh bola edi, silliq yonoqlarida qizillik qizaloqning yuzidagi kabi tezlik-la yugurardi.

Imber endigina mirshabga razm soldi. Yosh mirshabning iyagida shamshir dami qoldirgan chandiqni ko'rib hinduning ko'zlaridan o't chaqnadi. Shalviragan qo'llarini mirshabning soniga olib bordi va uning mushakdor oyoqlarini paypasladi. Barmog'i bilan gavdasini chertdi, keyin o'spirinning yelkalarinisovut misol qoplab turgan baquvvat mushaklarni ushlab ko'rdi. Ularning atrofida allaqachon o'tkinchilar to'planishgandi – oltin izlovcilar, tog' aholisi, yangi yer egalari – barchasi uzun oyoqli, keng yelkali irq farzandlari. Imber goh unisiga, goh bunisiga ko'z tashlab, Oqbaliqlar tilida nimadir dedi.

- Nima deyapti? – so'radi Dikkensen.
- U aytdiki, bu kishilarning barchasi mirshabga o'xshagan daroz, bir toifadan ekan, – tarjima qildi Jimmi.

Mitti Dikkensen past bo'yli edi, shu bois Trevis xonim qoshida bunday savol bergeniga pushaymon bo'ldi. Mirshab buni payqab, gapni boshqa yoqqa burdi.

- Bunda bir gap bor, shekilli. Uni kapitanning huzuriga olib boraman. Unga ayt, Jimmi, men bilan yursin.

Jimmi tag'in keksa hinduni siquvga oldi, Imber bir nima deb to'ng'illadi, lekin yuzidan mamnuniyatni uqish mumkin edi.

- Undan so'ra-chi, Jimmi, qo'limni ushlaganda nimalarni o'ylagan ekan?
- Uning aytishicha, siz qo'rqoq emassiz.
- Bunday javobdan Emili Trevis huzurlanib ketdi.
- Aytdiki, siz skukum emassiz, shunday nozik-sizki, xuddi murg'ak boladek. U sizni qo'llari bilan

ming bolakka bo'lib tashlashi mumkin. Manov mirshabdek azamatni dunyoga keltira olishingizga lol qolyapti.

Emili Trevis ko'zlarini tik qadab turishga o'zida qat'iyat topa oldi, ammo yuzlari alvon tus oldi. Mitti Dikkensen esa anorga aylandi, yosh mirshabning yuzi esa lolazorga.

— Hoy, sen, qani, yur-chi, — dedi birdan mirshab olomonni yelkasi bilan tisarib.

Shu tariqa Imber o'z ixtiyoriga ko'ra barcha-barchasiga iqror bo'lgan hamda keyin u yerdan qaytib chiqmagan Kazarmaga kelib qoldi.

Imber qattiq toliqqan ko'rinaridi. U qartayib qolgan, umid uchqunlari o'chgan, bu uning rang-ro'yidan ma'lum edi. U munkayib, ko'zları nursizlanib qolgandi; sochlari oppoq oqarishi lozim edi, biroq quyosh va yog'in-sochin sochlarini shunaqangi kuydirgandiki, endi ular tussiz, patakka aylangandi. Atrofidagi hodisalarga unda zig'ircha qiziqish topilmasdi. Xona oltin izlov-chilarga, ovchilarga liq to'lgan, ularning vahimali shovqinlari Imberning quloplari ostida qirg'oqqa urilgan dengiz to'lqinlaridek shovullardi.

U deraza yonida o'tirar, loqayd nigohi dambadam ko'z oldida namoyon bo'lgan, yurakni entiktiradigan manzarada to'xtardi. Ko'kni bulutlar egallagan, chor atrof rutubatga cho'mgan. Yulkonda bahorgi toshqin boshlangandi. Muzlar erib, shaharni suv bosgandi. Shohko'chadan ikki tarafga hech tinim bilmas kishilar eshkak eshishardi. Goh u, goh bu qayiq ko'cha tomondan Kazarma oldidagi suv bosgan harbiy maydonga qayrilar; yaqinroqqa suzib kelib ko'zdan yo'qolar, Imber qa-

yiq yog'och devorga urilganini sezib turar, eshkak-chilar binoga deraza oshib kirar edilar. Keyin esa suv shaloplatishib yuqori qavatga ko'tarilayotgani eshitilardi. Shlyapalarini yechishib suvga bo'kkан dengizchilar etigida xonaga kirib, sudni kutayot-gan olomonga qo'shilib ketishardi.

Hinduning munosib jazolanishidan mamnun bo'layotgan bu kishilar unga yovqarash tikilishar ekan, Imber ularning udumlari, mezonlari, Qonuni, qaysiki yaxshi zamonda ham, yomon zamonda ham, toshqin-u ochlikda, kulfatni-da o'limni pisand qilmay azal-azaldan yashab, asrlar davomida qo'llanib kelinayotgan Qonun borasida o'y surardi.

Allakim stolni taqillatdi; g'ala-g'ovur tinib, zal suv quygandek jimb qoldi. Imber stolga musht-lagan nusxaga e'tibor qaratdi. Bu kimsa hokimlik qudratiga egadek tuyildi, biroq Imberga boshqasi, sal nariroqda o'tirgan keng mangayli barchasining ustidan boshliq bo'lib ko'rindi. Stol ortidan yana bittasi turib, qo'liga anchagina qog'ozlarni oldi-da, baland ovozda o'qiy ketdi. Keyingi sahifaga o'tish-dan avval u barmoqlarini tupuklab, bir tomoq qirib olardi. Imberga uning so'zlari begona, ammo qolganlar tushunar, qoshlari o'rtasida chuqurcha paydo bo'lardi. Ba'zan shunday darg'azab bo'lishardiki, hatto bittasi Imberni haqoratli so'zlar bilan siyladi, ammo stol ortidagi kishi stolga musht-lab, tinglovching unini o'chirdi.

Va'zzon uzoq javradi. Uning zerikarli ma'ruzasi ostida Imberni mudroq bosar, bayonnaoma niho-yasiga yetganda qariya allaqachon tush ko'rayot-gandi. Kimdir uni oqbaliqliklar tilida ismini aytib

chaqirgandi, chol uyg'onib, singlisining o'g'li – qachonlardir o'z qabilasini tashlab, oq tanlilarga qo'shilib ketgan hindu yigitga ko'zi tushdi.

– Sen, shubhasiz, meni eslolmaysan, – dedi hindu yigit salomni ham nasiya qilib.

– Yo'q, eslayman, – javob qaytardi Imber. – Sen Xaukansan. Ko'p yillar burun bizni tark etganding. Volidang ham omonatini topshirganiga ancha bo'ldi.

– U keksayib qolgandi, – o'zini oqladi Xaukan.

Imber javobni ham eshitmay pinakka ketdi, biroq Xaukan yelkasidan silkib uyg'otdi.

– Manavi odam nimalar o'qiganini senga bilda rimoqchiman. U sen qilgan barcha jinoyatlarni, qaysiki, o tentak, kapitan Aleksandrga iqror bo'lganlaringni o'qib eshittirdi. Sen yaxshilab o'y lab ko'rib, shular to'g'ri yoki noto'g'rili gini aytishing darkor. Senga shunday amr etildi.

Xaukan missionerlar orasida kun ko'rар, yozuv-chizuvni o'shalardan o'rgangandi. Ayni dama da anov va'zxon o'qigan yupqa qog'ozlarni ushlab turar – ularga Imberning Jimmi ko'magida kapitan Aleksandr huzurida aytgan barcha so'zлari tushirilgandi. Xaukan o'qishni boshladи. Imber picha tingladi, yuzida taajjub paydo bo'ldi va darhol jiyanining so'zini bo'ldi:

– Bu mening so'zларим, Xaukan, ular sening lablaringdan uchib chiqyapti, qulqlaring esa so'zларимни eshitmagan.

Xaukan mag'rurona iljaydi, farqi ochilgan sochlarini silab qo'ydi.

– Yo'q, o Imber, ular qog'ozdan chiqyapti. To'g'ri, qulqlarim ularni eshitmadи. So'zлar qog'ozdan

chiqib, ko'zim orqali miyamga yetib boradi, so'ngra lablarim ularni senga yetkazadi. Mana, ular qayerdan chiqadi.

– Shunaqa degin. Demak, ular qog'ozda? – shivirlardi Imber va qog'ozni egallagan belgilarga hadiksirab ko'z tashlab, ushlab ko'rdi. – Bu g'aroyib jodu. Sen, Xaukan, chinakam afsungar ekansan.

– Qo'ysang-chi, – dedi yigit kalondimog'lagini yashirolmay.

Xaukan tavakkaliga bir varaqni tanlab oldi-da, o'qiy boshladi:

– «O'sha yili, muz ko'chishidan ilgari, bola yetaklab olgan bir oqsoch chol paydo bo'ldi. Ularni ham o'ldirdim, o'shanda chol joni boricha o'kiringandi...»

– Bu bo'lgan gap, – dedi Imber hayajonlanib.
– U uzoq qichqirdi, qarshilik ko'rsatdi, o'lishni istamagandi. Biroq sen bularni qayerdan bilasan? Senga oq tanlilar boshlig'i aytgan, chog'i? Ularni o'ldirganimni hech zog' ko'rmagandi, buni faqat oq tanli boshliqqa aytgandim.

Xaukan ranjigansimon bosh chayqadi.

– Bularning bari qog'ozga yozilgan deb aftyaman-ku senga, tentak.

Imber siyohli belgililar to'la qog'ozga sinchiklab boqdi.

– Ovchi yerga yastangan qorga qaraydi-da aytadi: mana bu yerdan tunov kuni quyon yugurib o'tgan, anavi yerda, butalar orasida, qulog'ini ding qilgan, keyin esa nimadandir hurkib rasmini chizgan; manavi joydan ortga qayrilib, irg'ishlab-irg'ishlab qochib qolgan, huv, ana u yerda silovsin quyonni dog'da qoldirgan; shu yerda,

oyoqlari chuqur botgan yerda, silovsin uzun-uzun sakrab shalpangqulonni quvib yetgan; qolganiga faqat silovsining izlari ketgan. Ovchining o'tkir ko'zlari qordagi izga tushishi bilanoq nima bo'lganini aytib bera oladi, sen ham qog'ozga qarab u yerda unaqa, bu yerda bunaqa bo'lgan va barchasini qariya Imber qilgan, deyapsan.

– Ha, shunday, – javob qildi Xaukan, – endi esa ruxsat berishmaguncha tilingni tiyib, jimgina qu-loq sol.

Xaukan Imberning ko'rsatmalarini uzoq o'qidi, chol bo'sa o'yga tolgancha, mum tishlab o'tirdi. Qabiladoshining uni o'chgach, Imber shunday dedi:

– Bularning bari mening so'zlarim. Bular – haqiqat, Xaukan. Lekin men anchayin qartayib qoldim. Shunday esa-da anov boshliq bilishi dar-kor bo'lgan hamda allaqachonlar unutilgan ishlarni yodga olayapman. Eshit. Bir safar Muztog' ortidan kimsa keldiki, qo'llarida makkor temir qopqonlar bor edi; u Oqbaliq daryosi bo'ylarida qunduz ovlardi. Uni o'ldirdim. Keyin daryodan oltin izlab uch kishi paydo bo'ldi. Ularni ham gumdon qildim. Fayv Fingerda ham odam o'ldirdim – u solda suzib yurar, anchagina go'sht g'amlagandi.

Imber xotirasini kavlashtirib jim qolganda Xaukan uning so'zlarini tarjima qilib turar, klerk ularni yozib olardi. Olomon Imberning cho'pchagi toki mallasoch g'ilay kishi uzoqdan turib kamon bilan mahv etiladigan joyiga yetib kelmaguncha xayollarida mayda ko'ngilsizlik bo'lib tuyilgan bu «oddiygina» hikoyaga beparvo bo'lishdi.

– Jin ursin, – oldingi qatordagi tinglovchilar-dan biri o'zini tutib turolmadi. Uning nidosida

kulfat-u nafrat baravar yangradi. – Jin ursin, – takrorladi, – axir bu mening jigarim Bill-ku!

Ahyon-ahyon zalda serzarda «jin ursin» yangrab turdi – na hay-haylashlar, na ogohlantirishlar mallasochni tinchlantira oldi.

Imber tag'in boshini xam qildi, ko'zlari tevarak-javonibni ilg'amasi. Yolg'izgina keksalik yoshlik, jo'shqinlikning hadsiz besamarligi borsida mulohaza yurita olganidek chol ham o'y-xayollari sahrosini kezardi.

Xaukan sudlanuvchini yana turtdi.

– Turgil, o, Imber. Senga mazkur jinoyatlarga qo'l urganining hamda bu yoqlarga Qonun izlab keliishing boisini tushuntirib berish buyurildi.

Imber arang oyoqqa turdi, madorsizlikdan oyoqlari qaltirardi. Yo'g'on va biroz titragan ovozda gap boshladgi, biroq Xaukan uni to'xtatib qo'ydi.

– Bu chol aqldan ozibdi, – murojaat qildi yigit inglizchalab kengpeshonaga. – Yosh boladay valdiramoqda.

– Biz uning valdirashlarini eshitmoqchimiz, – dedi kengpeshona. – Biz uni so'zma-so'z oxiriga cha eshitmoqchimiz. Tushunarlimi?

Imber qahrli qarash qildi – jiyani oq tanli bilan nimalarni gaplashganini fahmlagandi. U yana tazzarusini – qaysiki kelgusi avlod uchun bronzaviy zarvaraqlardan joy olishga loyiq bo'lgan qora tanli fidoyining g'ayrioddiy hikoyasini boshladi. Olomon jodulanganday tosh qotdi, kengpeshonali sudya esa boshini qo'liga tirab go'yo hinduning ko'nglini eshitardi. Sukunat aro tilmoch keskin bo'lib turgan Imberning nidosi kezar, vaqtiga qo'ng'irog'iday yangrardi.

– Men kim – Imber, Oqbaliq qabilasidanman, – cholning so‘zlarini Xaukan begona tilga o‘girardi; Imberning nutqidagi tanish marom hamda qiroat qulog‘iga chalinishi zahoti missionerlik tarbiyası-la sug‘orilgan taraqqiyot alomatlari to‘zg‘ib ketdi va unda odamyovvoyi uyg‘ondi. – Otam Otsbaok bahodir jangchi edi. Hali go‘dakligimda quyosh nurlarini ayamas, yuraklarimizda shodlik kezardi. Odamlar noma'lumliklar tomon chopishmas, begona ovozlar qulooqqa chalinmas, ajdodlar udu-mi bizning udumimiz edi. Yigitlar qizlardan ko‘z uzishmas, mohporalar-da ko‘zlarni quvontirardi. Ayollarimizning etagi to‘la bola-baqra edi. Qabilamiz ko‘payar, erkaklarimiz ham o‘scha zamonlar asl azamatlar edi. Ular urush va tinchlikda ham, ochlik va to‘qlikda ham er kishi edilar.

U zamonlar baliqlar va parrandalar mo‘l edi. Itlarimiz bo‘ri zotli, yunglari qalin, na qahratordan, na bo‘rondan hayiqishardi. Ayoz-u dovullar yuraklarimizga qo‘rquv sololmasdi. Pelli qabilasi yerlarimizga oyoq qo‘yishlari zamon o‘rtada qonli olishuv ketardi. Negaki, biz asl erkaklar edik, Oqbaliq qabilasining qo‘rg‘onlari; ota-bobolarimiz pellilar bilan kurashib kelishdi, tuprog‘imiz sarhadlarini himoya qilishdi. Biz ularning ishini davom ettirardik.

Kunlardan bir kuni diyorimizga birinchi oq tanli tashrif buyurdi. U qorda emaklab kelardi – mana bunday qilib. Eti ustixoniga yopishib qolgan, bu-naqasini sira ko‘rmagandik. Qayerdan, qaysi qabiladan keldi ekan, deya hayron bolardik. U norasidadek nimjon edi. Biz mehmonni gulkhan yoniga o‘tqizdik. Po‘stinga o‘rab, osh-non berdik.

Kelgindi o'zi bilan bizning itlarimizga uchta keladigan itni ergashtirib olgandi. Jonivor ham egasi kabi kuchdan qolgan, yunglari kalta, dumizlab qolgandi. Bu g'alati jondorni ham qornini to'yg'izdik. Gulxan atrofidan joy berib, itlarimizni nari haydadik, yo'qsa begona itni tilka-pora qilishlari turgan gap edi.

Bug'u va baliq go'shtini yeb, kelgindi va iti ancha kuchga kirdi. Jir bitib, kelgindining ovozi ko'tarildi. Qariya va yigitlarimiz ustidan kulib, qizlarimizga ko'z olaytira boshladи. Iti esa biznikilar bilan olishar, yunglari yumshoq va kalta bo'sa-da, bir marta uchta itimizni g'ajib tashladi.

Bu odamdan qaysi qabiladansan, deb so'raganimizda u: «Mening og'a-inilarim bisyor», – dedi-da, sovuq iljayib qo'ydi. Nihoyat kuchga tolgach, o'z yurtiga ravona bo'ldi. U bilan Noda, sardorimizning qizi ham ketdi. Tez orada bir urg'ochi itimiz bolaladi. Biror marotaba bunday kuchukbachchalarni ko'rmagandik – xumbosh, baquvvat jag'li, kalta yungli, buning ustiga ojiz-u nochor. Otam bu notavon kuchuk bolalarini ko'rib fig'oni falakka yetgani hamon yodimda. Otam qo'liga tosh olib kuchukbachchalarni majaqlab tashladi. Ikki yildan so'ng Noda ham qo'lida yosh bolasi bilan qaytib keldi.

Hammasi shundan boshlandi. Keyinroq kalta yungli it bilan ikkinchi oq tanli keldi. U ham bizning diyormizda uzoq turmadi. Ammo itini qoldirdi. Ustiga-ustak eng zo'r oltita itimizni o'zi bilan olib ketdi. Ularni Ku-So-Ti – onamning uksidan ajobtovur to'pponchaga alishtirib olgandi – olti marta ketma-ket o'q uzadigan to'pponcha.

Ku-So-Ti yangi quroli bilan gerdayar, o'q-yoylari-mizni xotinlar ovunchog'i derdi. Ku-So-Ti qo'lida to'pponcha bilan ayiq oviga otlandi. Endilikda to'pponcha bilan ayiq ovlash ahmoqlik ekanini hamma biladi, lekin o'shanda biz buni qayoqdan bilardik? Ku-So-Ti qayoqdan bilsin edi? U ayiq qoshiga shaxt-la bordi-da, to'pponchasidan olti marta o'q uzdi. Yirtqich bo'lsa bo'kirib Ku-So-Ti-ni tuxum po'chog'iday ezg'ilab tashladi, asalari inidan oqqan asalday Ku-So-Tining miyasi oqib tushdi. U mohir ovchi edi, endi uning oilasini qaramog'iga oladigan qo'rg'on yo'q. Biz barchamiz chuqur qayg'uga botib: «Nimaiki oq tanlilar uchun yaxshi bo'lsa, bizni halokatga yetaklaydi», – degan xulosaga keldik. Chindanam shunday. Oq tanllilar tufayli qavmimiz kamayib ketdi, ular sababli cho'pday ozidik.

Kutilganidek uchinchi oq tanli ham paydo bo'ldi. U turli yeguliklar va ajib mollar evaziga yigirmata zotdor itlarimizni ergashtirib ketdi. Ortidan sovg'alar va va'dalarga uchib o'n nafar ovchi yigitlarimiz ham yo'lga tushishdi. Ammo qayoqqa – hech kim bilmaydi. Aytishlaricha, ular Muztog'da qor ostida qolishgan yoki kurraning bir cheti – odam qadami yetmagan Sukunat Tepaliklari-da ajalga yo'liqqanmish. Nima bo'lgan taqdirda ham oqbaliqliklar itlar va ovchi yigitlarni qaytib ko'rishmadи. Oq tanlilarning qadami yerimizdan uzilmas, sovg'a-salomlarini unutishmas, yosh yigitlarimizni olib ketishni ham kanda qilishmasdi. Ba'zan yigitlarimiz qaytib kelishar va biz Pel-li qabilasining yeri ortidagi qiyinchiliklar hamda xavf-xatar haqida jon qulog'imiz bilan eshitardik, ba'zan yigitlarimiz ortga qaytishmasdi. Shunda:

«Modomiki, oq tanlilarga qo'rquv begona ekan, bu ularning ko'pligidan. Bizlar oqbaliq qavmi oz-chilikmiz. Shunday ekan, yoshlarimiz ortiq bizni tark etishmasin», deya qaror qildik. Lekin yigit-u qizlarimizni ushlab turolmadik.

To'g'ri, biz un va tuzlangan cho'chqa go'shtini tanovvul qillardik, choyxo'rlikni xush ko'rardik; biroq bu tansiq yeguliklar yetmay qolsa, tomosha-ni ko'ravering – jahlimiz chiqib, aqlimizni yo'qtardik. Kelgindilar oldi-berdi qilish uchun olib keladigan matohlarni qo'msay boshlardik. Savdo! Savdo! Biz birgina savdo-sotiqni o'ylardik. Bir yili qishda g'amlab qo'ygan bari ilvasinlarimizni yaroqsiz soat, o'tmas arra va zanglagan to'ppon-chaga almashtirib yubordik. Shundan so'ng ochlik ta'zirimizni berdi, qirqtacha yor-birodarlarimiz bahorga yetmay uzildi.

«Ana endi kuchsizlanib qoldik. Pelli qabilasi yerlarimizni tortib oladi», deb tahlikaga tushdik. Biroq ofat birgina bizda emaskan – pellilar ham darmonsizlangan, biz bilan jangga kirolmasdilar. Otam Otsbaok u vaqtlar xiyla keksayib qolgan bo'lsa-da, donoligini yo'qotmagandi. O'shanda otam rahnamomizga shunday dedi: «Ko'rib turib-san, itlarimiz hech narsaga yaramay qoldi. Qalin yunglaridan asar qolmadni, o'z vazifalarini ado etib bo'lishdi, chana ham tortolmaydilar. Yaxshi-si, ularni so'yamiz, faqat bo'ri zotli urg'ochilarni o'rmonga qo'yib yuboramiz. Balki shunda qalin yungli, baquvvat itlarimiz avlodiyana davom etar».

Tez orada otamning bashorati to'g'ri bo'lib chiqdi. Oqbaliq qabilasi kurraning eng zo'r itlari bilan dong taratdi. Itlari bilan, odamlari bilan emas. Yigit-qizlarimiz oq tanlilar ortidan noma'lum

so'qmoqlar-u daryolar ortiga g'oyib bo'lishardi. Qizlarimiz ortga qaytishni minba'd xayollari ga keltirishmas, qaytganlari ham Noda singari dardmand, qarimsiq bolardi. Yaqinlari davrasiga qaytgan yigitlarimiz esa xonadonlariga sig'mas-dilar. Sayohatlari davomida qo'rslik va badfe'l-likdan o'zgasini o'rganishmagan, iblis suviga qul bo'lishgan, kun-u tun qartadan bosh ko'tarish-masdi; ilk uchragan kelgindi chaqirig'i bilan yana begona o'lkalarga oshiqardilar. Kattalarga hurmatni unutishgan, kishini mensishmas, ko'hna urf-odatlarimizni mazax qilishar, sardorimiz va shomonimiz ustidan kulishardi.

Oqbaliq qabilasi tobora kuchini yo'qotar, zaif-lashib borardi. Tamaki, viski, yupun kiyim-ke-chak o'rniغا mo'yna va po'stinlarimizni jon-jon deb tutqazardik. Yo'tal bizga hujum boshlagan, erkag-u ayollar birday kasalmand, kechasi surunkasiga yo'talib chiqishar, ovchilarimiz o'rmonga chiqiboq qorga qon tupurishardi. Goh unimiz, goh bunimizning bo'g'zimizdan qon kelar, oqibat ko'p-chilik jon taslim qilardi. Tug'ilish keskin kamay-gan, dunyoga kelgan chaqaloqlar ham dardchil edi. Kelgindilar biz hali duch kelmagan boshqa tushunarsiz xastaliklarni olib keldilar. Keyinchalik bilishimcha, bu kasalliklar chechak va qizamiq deb atalarkan – biz kasalliklar sabab bilan kuzda uvildirig'ini tashlagandan so'ng yashashining hojati qolmagan baliq kabi halok bolardik.

Eng achinarlisi, oq tanllilar o'lim lashkarini boshlab kelishardi, barcha udumlari ajal yoqasi-ga yetaklardi, nafaslari o'lim olovini purkar, o'z-larini esa jin ham urmasdi. Ularda viski, tamaki, kalta yungli itlar bilan birga chechak, qizamiq,

yo'tal ham bor; ular oq tanli va ular qahraton, bo'rondan zir titrashadi; qurollari ham ahmoqona: paydar-pay olti marta o'q uzadimi-yey. Butun boshli kasalliklariga qaramay ular et olib, kuchayaverishadi, qo'llari hamma yoqqa yetadi, barchani ezg'ilab-toptaydilar. Ayollari esa sumbatidan noziknihol ko'rinsa-da, aslida sabotlidirlar – alpkelbat erkaklarni dunyoga keltirishardi. Demak, noziktabiatlilik, kasallik, zaiflik kuch-qudrat va hukmronlik qobig'iga o'ralar ekan. Oq tanlilar yo iloh, yo iblis – bunisini bilmayman. Oqbaliq qabilasidan bo'lgan men, Imberdek chol, nimaniyam bilardim? Faqat bir narsani bilamanki, bu jahongashta oq tanlilarni tushunib bo'lmaydi.

Yuqorida aytganimdek, o'rmonda qushlar ovozi tinib qoldi. Tan olish kerak – kelgindilar quroli uzoqdagini urib tushiradi, biroq otishga hech vaqo bo'lmasa, quroldan ne naf? Bolaligimda bug'ular har tepalikda uchrar, sanog'i-da hisob-siz edi. Endi esa o'n kunlab tepalik oshsang ham birorta bug'uni uchratmaysan.

Shunday qilib, men, Imber Oqbaliq qabilasining tanazzulini, Pelli qabilasining halokatini, umuman o'ldkaning barcha qavm-qabilasini tugab bitayotganini ko'rib, uzoq o'y-xayolot dunyosida kezdim. Shomon va dono keksalarimiz bilan musohaba qildim. Odamlar shovqin-suroni o'ylashimga halal bermasin uchun o'rmon ichkarisiga kirib ketdim, me'damga og'irlik qilmasligi va ko'z-qulog'imni zaiflashtirmasligi uchun go'shtdan voz kechdim. Uyquni unutib, o'rmonda uzoq vaqt o'tirdim, ko'zlarim ishora kutar, quloqlarim barchasini bartaraf qilishga imkon beruvchi so'zni ilib olishga shay edi. Tunlari shamol nola qila-

yotgan, yomg'ir ko'z yosh to'kayotgan bir paytda daryo yoqasiga yolg'iz chiqdim. Allaqaqachonlar rixlatga ravona bo'lgan dono keksalar va shomonlar sharpasini uchratib, ulardan maslahat olish niyatida edim.

Alaloqibat sharpalar ko'rindi – kalta yungli jirkanch itlar – shu zahoti nima qilmoq kerakligini darhol angladim. Ovulga qaytib jangchilarimizga shunday dedim: «Oq tanlilar – juda ulkan qabiladirlar. O'z yerlarida yemak qolmagach, bizning zaminimizga ko'z olaytirishmoqda. Ular tufayli zaiflashib, halok bo'lmoqdamiz. Ular yeb-to'ymas yuhodirlar. Agarki, biz tirik qolmoqchi ekanmiz, itlariga qanday chora qo'llagan bo'sak, o'zlariga ham shuni qo'llashimiz darkor».

Men kurashishni taklif qildim. Oqbaliqliklar menga qulqoq berishdi, biroq birortasi mard bo'lib o'rtaga chiqmadi. Yigitlarimiz yuraksizlik qilishdi, lekin lom-mim demay o'tirgan chollarning ko'zida uchqunni payqadim. Kechqurun, ovul uyquga ketgach, yashirincha qariyalarni o'rmonga chaqirdim. Uzoq fikr almashib, bir to'xtamga keldik. Zaminimiz erkin nafas olgan yoshlik onlarimizni, shod va farovon kunlarimizni yodga oldik. Bir-birimizni og'a-ini deb atadik, sir-rozimizni fosh etmaslikka hamda tuprog'imizni yovuz kelgindilar dan tozalashga qasamyod etdik. Endi ravshanki, bular ahmoqlikdan boshqasi emasdi, ammo o'sha damlar bizlar, Oqbaliq qabilasining qariyalari buni qayoqdanam bilardik?

Ularga namuna bo'lish va ruhlantirish uchun birinchi bo'lib o'zim qotillikka qo'l urdim. Yukon qirg'og'iga pisib berkindim-da, oq tanlilar kano-

esini¹ kutib turdim. Qayiqda ikki kishi o'tirardi. O'rnimdan turib qo'limni ko'tardim. Ular qirg'oq tomən suzishdi. Qayiq burnida o'tirgan kishi nima gapligini bilish uchun boshini ko'targani zamon qo'limdagi paykon uchib borib haligining bo'g'ziga qadaldi. Ikkinchisi, qayiq quyrug'idagisi, qurolini olishga ham ulgurmadi – nayzamni gardaniga sanchib qo'ydim.

«Bu boshlanishi, – dedim qasoskor birodarlarimga. – Biz hali barcha qabilalarning barcha qariyalarini, keyinroq yuragida o'ti bo'lgan yigitlarini ham birlashtiramiz. Ana unda ishimiz jadallahib ketadi».

Keyin haligi ikki murdani daryoga tashladik. Kanoeni esa – kanoe eng yaxshi qayiqlardan edi – ichidagi buyumlari bilan yoqib yubordik. Lekin avval buyumlarni ko'zdan kechirdik. Teri xalta-larini pichoq bilan yirtib ko'rganimizda ichi to'la sening o'qiganlaringga o'xshagan, o Xaukan, belgilar bilan qoplangan qog'ozlar edi; chandon urin-sak-da, belgilarni tushunmadik. Endi esa aqlim kirib, ularni tushuna olaman: bu, sen aytgandek – bani basharning so'zlari...

Xaukan kanoedagi ikki oq tanlining o'limini arang tarjima qilib ulgurdiki, zalda g'o'ng'ir-g'o'ng'ir boshlandi.

– Bu to'qson birinchi yili g'oyib bo'lgan pochta-ku! – kimningdir ovozi yangradi. – Uni Piter Jeyms va Dileni olib ketishayotgandi. Ikkovini so'nggi marta La-Barj ko'lida Mettyuz ko'rgandi.

Klerk barchasini shosha-pisha yozarkan, Shimol tarixiga yangi bob qo'shilardi.

¹ Kanoe – erkin eshkakli yengil sport qayigi.

– Bu yog'i oz qoldi, – so'zini davom ettirdi Imber.
– Nimayiki karomat ko'rsatgan bo'lsak, barchasi qog'ozga tushirilgan. Biz qariyalar o'sha paytda nima qilayotganimizni bilmasdik. Biz faqat o'dirardik; biz ustomonlarcha o'dirardik. Negaki yashab o'tgan yillarimiz o'z ishimizni shoshmasdan bitirishga o'rgatgan edi. Bir kuni oq tanlilar huzurimizda paydo bo'lishdi. Ular bizga g'azab-la tikilib, haqoratlì so'zlar yog'dirishdi. Oltita o'spirinimizni qo'liga kishan solib, olib ketishdi. O'shanda tu-shunib yetdikki, biz yanada makkorona va ko'proq o'dirishimiz kerak. Biz daryo bo'ylab yuqori va quyiga, begona o'lkalarga tarqaldik. Bunday tavakkal-chilik uchun otning kallasidek yurak bo'lishi talab qilinardi. Qarib-qartayib qo'rquvni yuraklarimizdan o'chirib tashlagan bo'lsak-da, uzoq va begona yurtlar oldida hadiksirashimiz tabiiy edi.

Shu tarzda jinoyatlarimizni amalga oshirardik
– shoshmasdan, ayyorona. Biz Chilkutda ham, Deltada ham, dovonda ham, qirg'oqlarda ham qayerda bo'lmasin, oq tanlining manzilgohi uchrasa yoxud so'zmoq solgan bo'lsa, bir odamning hayotiga zomin bo'lardik. Ha, oq tanlilar qirilardi, lekin bundan nima naf ko'rdik? Ular tog' ortidan tushib kelishar, kun sayin ko'payib borishardi, biz chollarning esa, aksincha, safimiz kamayib borardi. Yodimda, Bug'u Dovonida bir oq tanli qo'nalg'a qurib joylashdi. U pakanagina edi. Uyqudaligida uch nafar qotil-chollar hujum qildi. Ertasi kuni uch qariyaning jasadiga duch keldim. Oq tanli esa hali ham nafas olar, o'limi oldidan, hatto meni la'natlashga ham irodasi yetgandi.

Bor gap shu. Bugun bir oqsoqolning umri poyoniga yetadi, ertaga boshqasining. Ba'zan

talay vaqt o'tib o'zimiznikilarning vafoti haqida eshitib qolardik. O'zga qabila chollari quyonyurak edilar, bizga madad berishni o'zlariga ep ko'rish-madi. Shunday qilib, qariyalar birin-ketin to'kila boshladik – birgina men qoldim. Men kim, Imber, Oqbaliq qabilasidanman. Otam Otsbaok bahodir jangchi edi. Oqbaliq qabilasi tugab bitdi. Men ushbu qabilaning so'nggi vakiliman. Erkak va ayollar o'z maskanlarini tark etishdi – kimdir Pelli qabilasiga, kimdir Losos qabilasiga, aksariyati oq tanlilar yurtiga gumdon bo'lishdi. Men anchayin qarib qoldim, juda ham charchadim. Qonunga qarshi behuda kuch sarfladim. Sen haqsan, Xaukan – men bu yerlarga Qonun izlab keldim.

– Sen chinakamiga tentaksan, o, Imber, – yakun yasaganday dedi Xaukan.

Biroq Imber xayolot olamiga sho'ng'ib, quloqlari tom bitgandi. Keng manglayli sudya ham chuqur o'yga tolgandi: ko'z o'ngidansovut kiygan, qonun ornatuvchi hamda boshqa xalqlar taqdirini belgilovchi butun boshli elati savlat to'kib o'tdi. Bu sudya janoblari o'z elating qorong'u or'monlar va sokin dengiz sayhonliklari uzra arg'uvon shu'lalar ila bosh ko'targan o'tmishining subhini ko'z oldiga keltirdi. U tantanavor ravishda yog'du sochayotgan kunduz bilan almashib, tepaliklar osha qonga to'yingan qum misol soya tashlab, tun ortiga yugurgilayotgan shafaqni ko'rди... Va shularning barchasi ortidaadolat tarozisi, qaysiki Uning nomi ila ish ko'radigan yoxud Uning zalvari ostida jon taslim etuvchi haqir inson zotidan-da qudratliroq, qaysiki yuragi shafqat tilayotgan hakamning o'zidan-da kuchliroq, mutlaq va yovuz Qonun qad ko'tardi.

SAKRAMENTO QIRG‘OQLARIDA

*Shamol uchar – g‘uv-g‘uv-g‘uv!
Kaliforniyaga qarab.
Sakramento boy o‘lkadir,
Hatto bunda oltinlarni
Olish mumkin etaklab.*

Oriqqina bir bola shu dengizchilar qo‘sヒgini chinqirib aytmoqda. Dunyoning har tarafidan kelgan matroslar langar chig‘iriqlarini o‘rayotib, Frisko portiga kiraverishda xuddi mana shu qo‘sヒqni baqirib aytar edilar. Bu bola hali dengizni bir marta ham ko‘rmagan edi. Lekin shu yerdan ikki yuz futcha narida, qoyalar ostida Sakramento daryosi jo‘sヒ urib oqardi. Bolani kichkina Jerri der edilar, keksa Jerri esa otasi edi. Kichik Jerri bu qo‘sヒqni otasidan eshitgan edi. U shu qo‘sヒqnigina emas, balki hurpaygan malla sochlarini ham, yonib turgan moviy ko‘zlarini ham, oppoq yuzlaridagi sepkillarini ham otasidan meros qilib olgan edi.

Keksa Jerri matros edi. U o‘z hayotining yarmini dengizda suzish bilan o‘tkazgandi. Uning tilidan sira qo‘sヒq tushmas edi. Bir kuni Osiyo portlaridan birida chig‘iriq ustida boshqa yigirmata matros bilan birga shu qo‘sヒqni aytayotganda, qo‘sヒqdagi so‘zlar birinchi marta uni shu haqda o‘ylab ko‘rishga majbur qildi. San-Frantsiskoga qaytib kelgach, u o‘z kemasi va dengiz bilan xayrlashib, Sakramento qirg‘og‘iga jo‘nadi.

Bu yerdagi oltinlarni ko'rishga muyassar bo'ldi. U «Oltin umid» konidan ish topdi va tez orada daryo ustiga ikki yuz fut balandlikda osma yo'llar qurishda shuhrat qozondi.

Keyinchalik bu osma yo'llar butunlay uning nazoratida qoldi. U troslarni kuzatib turar, vagonetkalarni¹ yurgazib, tuzatardi. U ishini yoqtirib qoldi. Ko'p o'tmay u «Oltin umid» konining rahbarlaridan biriga aylandi. So'ngra u Margaret Kelli degan chiroyli bir qizni sevib qoldi, lekin Kelli tezda uni, endi «atak-chechak» qilib yura boshlagan Jerrini tashlab, qarag'ayzor o'rtaсидаги kichkinagina qabristonda abadiy uyquga ketdi.

Keksa Jerri dengizga qaytmadi. O'z qalbidagi butun mehr-muhabbatini shu yo'g'on po'lat tros-larga va kichkina Jerriga bag'ishladi. «Oltin umid» koni singandan so'ng ham u kompaniya ixtiyorida qolib, tashlandiq korxonaga qorovullik qila boshladi.

Lekin u bugun ertalab negadir ko'rinnadi. Faqat kichkina Jerrigina zinapoyada o'tirib, eski matroscha qo'shiqni aytar edi. U o'ziga nonush-ta tayyorlab yeb, endi atrofni tomosha qilgani chiqqan edi. Undan yigirma qadamcha narida nihoyatda uzun metall tros o'ralgan katta po'lat baraban, barabanning yonida juda ustalik bilan o'rnatilgan vagonetka turardi. Bu vagonetka bilan rudalarni tashishar edi. Kichkina Jerri daryo ustidagi eng yuqoridan o'tgan po'lat simga qarab, narigi qirg'oqda boshqa baraban va boshqa vagonetkaning turganini juda uzoqdan ko'rди.

¹ Vagonetka – vagoncha.

Bu vagonetkalar oddiy og'irlik kuchi ta'siri bilan harakat qilar, ya'ni vagonetka o'z og'irligi ta'siri ostida oldinga siljir, shu paytda qarshi tomondan ham bo'sh vagonetka yurib kelardi. Yukli vagonetkaning rudalari bo'shatilganda, bo'sh vagonetka ruda bilan to'ldiriladi. Shu narsa habeb takrorlanaveradi. Bu keksa Jerri osma yo'llar nazoratchisi bo'lgandan boshlab, yuzlab, minglab martalar takrorlangan edi.

Kichkina Jerri yaqinlashib kelayotgan qadam tovushini eshitib, qo'shig'ini to'xtatdi. Yelkasiga miltiq osgan, ko'k ko'ylakli, baland bo'yli bir odam qaraq'ayzordan chiqib kelar edi. U Sakramentonning yuqori tomonida, bir milcha narida joylashgan «Sariq ajdar» konining qorovuli – Xoll edi. Shu kon yaqidan ham narigi qirg'oqqa osma yo'l solingan edi.

– Horma, kichkina, – deb so'rashdi u. – Bir o'zing bu yerda nima qilib o'tiribsan?

– Troslarga qarab turibman, – dedi kichkinä Jerri tortinmay. – Otam yo'qlar.

U o'zini bir necha marta yolg'iz qolib o'rgangan odamdek ko'rsatmoqchi bolardi.

– Qayoqqa ketdi? – deb so'radi Xoll.

– San-Frantsiskoga. Kecha kechqurun ketgan edilar. Dengizning nariyog'ida ukasi o'libdi. Shu to'g'rida advokat bilan maslahatlashgani ketdilar. Ertaga kechqurun qaytib keladilar.

Yolg'iz o'ziga «Oltin umid» konini qo'riqlashdek katta mas'uliyat topshirilganidan mag'rurlanib gapirardi. Daryo qirg'og'ining shu baland joyida, qoyatosh ustida yolg'iz yashashdan, ovqat tayyolash o'ziga qolganidan xursand ekanligini sezish mumkin edi.

– Ishqilib, ehtiyyotroq bo'l, – deb maslahat berdi unga Xoll. – Troslar bilan hazillasha ko'rma. Men Cho'loq Sigir dasasiga birorta bug'u otarmanmi, deb ketyapman.

– Yomg'ir yog'adiganga o'xshayapti, – dedi Jerri kattalardek xotirjamlik bilan.

– Ho'l bo'lishdan qo'rqa sanmi, – deb kuldil Xoll daraxtlar orasiga kirib ketarkan.

Jerrining yomg'ir yog'adi degani to'g'ri chiqdi. Soat o'nga borib qarag'aylar shitirlab, silkinib, ingray boshladi, deraza oynalari dirilladi. Yomg'ir tinmay quyardi. Soat o'n bir yarimda Jerri o'choq-qqa olov yoqdi va o'n ikkida ovqat yeyishga o'tirdi.

«Bugun endi sayrga chiqib bo'lmaydi, albatta», degan qarorga keldi u, ovqatdan so'ng idish-tovoqlarni top-toza qilib yuvib, yig'ishtirib qo'ydi. Shu payt yana uning xayoliga: «Xoll rosa ivigan bo'lsa kerak. Lekin bug'u ota oldimikan», degan fikr keldi.

Soat birga yaqin eshik taqilladi. Jerri eshikni ochishi bilan erkak va ayol, go'yo orqasidan shamol itargandek, uyga otilib kirishdi. Ular mister va missis Spillenlar bo'lib, daryodan o'n ikki milcha naridagi xilvat bir joyda yashovchi rancho egasi edilar.

– Xoll qayerda? – deb so'radi Spillen hansirab.

Jerri fermerning nimadandir hayajonlanayotgанини va qayoqqadir shoshilayotganini, missis Spillen esa ko'rinishdan juda xafa ekanligini sezdi.

U orig, rangi siniq, umri mehnat bilan o'tayotgan ayol edi. Mashaqqatli og'ir mehnat uning chehrasiga o'z tamg'asini bosgan edi. Mana shunday og'ir hayot erining ham qaddini bukkan, qo'llarini qavartirgan va sochlarini bevaqt oqartirgandi.

– U Cho'loq Sigir darasiga ovga ketgan edi. Narigi tomonga o'tmoqchimisizlar? – deb so'radi Jerri.

Ayol sekin yig'lay boshladi. Spillen so'kinib, de-raza yoniga keldi. Jerri ham uning yoniga kelib, u bilan birga derazadan tashqaridagi osma yo'l-ni kuzata boshladi. Maydalab yog'ayotgan qattiq yomg'irda troslar ko'rmasdi.

Tevarak-atrofdagi qishloqning aholisi Sakramentodan «Sariq ajdar» osma yo'li orqali o'tishardi. Bu yo'ldan o'tganda ozgina yo'l haqi to'lash kerak edi. Bu pulni «Sariq ajdar» kompaniyasi Xollga maosh tariqasida berardi:

– Biz narigi tomonga o'tishimiz kerak, Jerri, – dedi Spillen va barmog'i bilan yig'lab turgan xotinini ko'rsatdi. – Uning otasi baxtsizlikka uchrabdi. U yerda porox portlabdi. Tirik qolmasa kerak, de-yishyapti. Bizga hozirgina xabar qilishdi.

Jerrining yuragi shuv etib ketdi. U Spillen «Oltin umid» troslari bo'ylab narigi tomonga o'tmoqchi ekanini anglatdi, lekin keksa Jerrisiz u hech qanday qarorga kelolmas edi, chunki bu yo'llardan hech qachon odam o'tmagan, ko'p vaqtdan buyon foydalanilmay yotardi.

– Balki, Xoll tezda qaytib kelar, – dedi u.

Spillen boshini chayqab qo'ydi.

– Otang qayerda? – deb so'radi Spillen.

– San-Fransiskoda, – deb qisqacha javob qildi Jerri.

Spillen nigrab, mushtini jahl bilan kaftiga bir urdi.

Xotini esa qattiqroq yig'lay boshladi. Jerri uning: «Eh, yetolmaymiz, o'lib qoladi, o'ladi...» – deganini eshitdi.

Bola ham sal bo'lnasa yig'lab yuboray deb turardi. U nima qilarini bilmay, ikkilanib turaverdi. Lekin Spillen uning uchun masalani hal qildn.

– Kichkina, menga qara, – dedi u qat'iy qilib, – xotinim bilan sizlarning shu yo'llaringdan o'tishim kerak. Ehtimol, sen bir yaxshilik qilib, bizga yordam berarsan.

Jerri go'yo unga sira qo'lidan kelmaydigan bir ishni taklif qilishayotgandek, beixtiyor orqaga tisarildi.

– Yaxshisi, borib qarang-chi, Xoll kelgandir, – dedi u.

– Agar kelmagan bo'lsa-chi?

Jerri yana-o'zini yo'qotib qo'ydi.

– Agar biror hodisa bo'lsa o'zim javob beraman. Tushunyapsanmi, kichkina, naryoqqa o'tish bizga suv bilan havodek zarur. – Jerri istamaygina bosh irg'ab qo'ydi. – Xollni kutishdan hech foyda yo'q, – dedi Spillen gapini davom ettirib. – O'zing yaxshi bilasan, u hali-beri qaytmaydi. Shunday, qani, yur!

Jerri beixtiyor: «Missis Spillenni ma'dan soladigan vagonetkaga chiqarayotganimizda rangida qon qolmagani bejiz emas ekan», deb o'yladi. Hozir tubsiz ko'ringan pastlikka qaraganda yetti yuz fut uzoqlikdagi narigi qirg'oq parcha-parcha bulutlardan, shiddatli shamol uchirib kelayotgan achchiq tomchi va ko'piklar, tinimsiz yog'ib turgan jala orasidan ko'rinxay qolgan edi. Ular turgan qoya pastlikka qaraganda, tikka kesilib tushgan qirg'oq tubidagi girdob troslardan ikki yuz fut emas, bir milcha uzoq bo'lib ko'rinxardi.

– Tayyormisizlar? – deb so'radi Jerri.

– Boshlayver, – deb baqirdi Spillen shamolning shovqinida eshitilsin deb.

Spillen xotini bilan vagonetkada yonma-yon, uning bir qo'lidan ushlab o'tirdi. Fermerning bu qilig'i Jerriga yoqmadi.

– Ikki qo'llab vagonetkadan ushslash kerak. Shamol kuchli, ag'darib yuborishi mumkin, – deb qichqirdi u.

Er-xotin darrov qo'llarini bo'shatib, vagonetka chetidan mahkam ushlab oldilar. Jerri esa ehti-yotlik bilan tormoz richagini tushirdi. Baraban asta-sekin aylana boshladi, behisob uzun tros yechila boshlaganda, vagonetka yuqoridagi harakatsiz tros relslarga yurgizish g'ildirakchalarini yopishtirib, keng havo bo'shlig'iga qarab yurib ketdi.

Jerri vagonetkani birinchi marta ishga tushi-rayotgani yo'q edi. Lekin shu mahalgacha u bu ishni otasining qo'l ostida bajarardi. U tormoz richagini ishlatib, harakat tezligini ehti-yotlik bilan boshqarib turdi. Tormoz berib turish zarur edi, chunki kuchli shamol to'lqinidan vagonetka chayqalib ketar, sal oldinroq – jaladan ko'rinnmay qolganda qiyshayib, hatto ichidagi jonli yuklarini jarlikka irg'itib yuborishi mumkin edi.

Endi Jerri troslarning harakatiga qarab vagonetkaning harakatini kuzatib turdi.

– Uch yuz fut... – dedi u pichirlab kabeldagi belgilarga qarab. – Uch yuz ellik... To'rt yuz... to'rt yuz...

Tros to'xtadi. Jerri tormoz richagini tortib ko'rdi, lekin tros qimirlamadi. Bola ikki qo'llab trosga yopishib, uni o'rnidan qo'zg'atmoqchi bo'lib, o'ziga qarab tortdi. Yo'q! Demak, qayeridir qattiq shikastlangan. Lekin qayeri ekanini o'ylab topolma-

di, vagonetka esa ko'rmasdi. U tepaga qarab, havodagi bo'sh vagonetkani zo'rg'a ajrata oldi. Bu vagonetka yukli vagonetka qanchalik tezlik bilan yuqoriga chiqqan bolsa, shunchalik tezlik bilan tushib kelishi kerak edi. Vagonetka Jerri turgan joydan taxminan ikki yuz elli futcha uzoqlikda edi. Bu yo'l azobini tortayotgan Spillen va xotining jo'sh urib turgan daryodan ikki yuz fut balandlikda, narigi qirg'oqdan ikki yuz elli futcha berida ekanligini ko'rsatar edi.

Jerri ovozining boricha uch marta baqirib ko'rdi, lekin har safar uning tovushi shiddatli shamol orasida yo'qolib ketaverdi. Shu payt u jonsarak bo'lib, nima qilarini bilmay turganda, birdan bulutlar daryo ustida chopishib, siyraklashib qoldi va osmon ko'zga tashlandi. Shunda u pastga qarab, hayqirib oqayotgan Sakramento daryosini va odamlari bilan havoda muallaq bo'lib turgan vagonetkani ko'rdi. Keyin bulutlar yana quyuqlashib qoldi, daryo beti avvalgidan ham qalinroq qorong'ilashdi.

Bola barabanni sinchiklab kuzatib chiqdi, lekin undan biror shikastlangan joy topolmadi. Aftidan, narigi qirg'oqdagi barabanda bir gap bo'lsa kerak. Spillenlarning qattiq bo'ronda, o'zlarining nega to'xtab qolganliklarini bilmasdan, kichkina omonat vagonetkada, jarlik ustida u yoqdan-bu yoqqa chayqalib o'tirishlarini tasavvur qilish qanchalik dahshatli! Bundan tashqari, Jerrining to «Sariq ajdar» troslari bo'ylab narigi qirg'oqqa o'tib, vagonetkaning to'xtab qolishiga sababchi bo'lgan o'sha shikastlangan barabanni borib ko'rgunicha ularning shu holatda osilib turishlarini o'ylasang, titrab ketasan kishi.

Shu payt Jerri asbob-uskunalar saqlanadigan qaznoqda arqon va blok borligini esladi-da, o'sha tomonga qarab yugurdi. U blokni trosga tezlik bilan bog'ladı-da, uni torta boshladi. U shunday ham kuchanib tortar ediki, qo'llari kiftidan uzilib ketgandek, muskullari esa yorilayotgandek bo'lar edi. Biroq tros qo'zg'almadi. Endi narigi qirg'oqqa o'tishdan boshqa iloj qolmadi.

Jerri jiqla ho'l bo'lib, kiyimlari badaniga yopishib qolgan edi. Lekin u, hatto yomg'irni ham sezmay, «Sariq ajdar» tomonga qarab g'izillab ketdi. Xoll yo'qligi uchun unga hech kim yordam bermasligi, hech kim unga vagonetkani tormoz berib to'xtatmasligini o'ylab tashvishlanayotgan bo'lsa ham, shamol orqasidan bo'lgani uchun yengil chopib borardi. U mustahkam arqondan halqa yasab, uni harakatsiz trosga o'tkazdi, shunday qilib o'ziga tormoz yasab oldi.

Shamol zapti bilan unga urilganda, qulog'i ostida hushtak chalib yoki o'kirganda, vagonetkasi chayqatib tashlaganda u Spillenlarning qanday azob tortayotganini yanada aniqroq his qildi. Bu unga kuch va quvvat bag'ishladi. U esonomon narigi qirg'oqqa o'tib oldi va tirmashib qiyalik bo'ylab tushdi, so'ng oldindan kuchli shamol esayotgani uchun zo'rg'a oyoqda tursa ham «Oltin umid» barabaniga qarab yugurdi.

Kichkina Jerri barabanni kuzatib, uning hech yeri buzilmaganini aniqladi. Uning vujudini qat-tiq qo'rquv bosdi. U tomonda ham, bu tomonda ham – hammasi joyida. Shunday bo'lsa, qayeri shikastlangan? O'rtasida bo'lsa kerak.

Spillenlar tushgan vagonetka undan ikki yuz fut uzoqlikda edi. Dam siyraklashib, dam quyuq-

lashib turgan yomg'ir pardasi orasidan Jerri qu-turgan stixiyaga qurbon qilingandek vagonetka ostida g'ujanak bo'lib o'tirgan er va xotinni taniy oldi. Jerri yurgizish g'ildiraklarining buzilgan-buzilmaganligini ko'rsin deb, Spillenga qichqirdi.

Spillen uning gaplarini eshitdi shekilli, tizzalab o'tirib, vagonetkaning ikkita g'ildirakchasini ham asta-sekin ushlab ko'rdi va qirg'oqqa tomon burildi-da:

– Bu yerda hammasi joyida, kichkina, – deb qichqirdi.

Jerri bu so'zlarni arang eshitgan bo'lsa ham, ammo mazmuniga yaxshi tushundi. Xo'p, nima bo'lgan bo'lishi mumkin? Endi hamma gap bo'sh vagonetkada ekanligiga shubhalanmasa ham bo'lardi. U bu yerdan ko'rinxasdi, lekin Jerri uning Spillen vagonetkasidan ikki yuz fut narida, shu dahshatli tubsiz chuqurlik ustida osilib turganini sezdi.

U ko'p o'y lab o'tirmasdan, nima qilish kerakligini topdi. Shu oriq, harakatchan bola endi o'n to'rtga chiqqan edi, lekin u tog'da tug'ilib o'sgan, otasi unga matroslik hunarining sirlarini o'rgatgan edi. U balandga chiqishdan sira qo'rqlasdi.

Jerri baraban yonidagi asboblar solib qo'yilgan qutidan eski gayka kalitni, kichkinagina temir chiviq va katta kanopni izlab topdi. U o'ziga matroslarning arg'amchisiga o'xhash bir narsa yasamoqchi bo'lib, kichikroq bir taxta topmoqchi bo'ldi. Lekin katta bir taxtadan boshqa hech narsa topolmadi. Taxtani arralay olmaydi, shuning uchun u ishni jo'nroq qilib, egar yasab qo'ya qoldi.

Jerrining o'ziga yasagan egari juda ham sodda edi. U bo'sh vagonetka osilib turgan harakatsiz

trosga arqon tashlab, so'ng arqonning ikki uchini bog'laganda katta halqa hosil bo'ldi. Shu halqaga o'tirib, trosga bemalol qo'lini cho'zishi va uni ushlashi mumkin edi. Halqaning trosga tegib turgan joyi harakat qilsin deb, u birorta latta yoki eski xalta topolmaganidan o'z kurtkasini qo'ydi.

Jerri shu ishlarni tezda bajarib, halqasiga osildi-da, trosdan ushlab-ushlab to'ppa-to'g'ri jarlik tomon ketdi. U o'zi bilan gayka kaliti, kichikroq temir chiviq va bir necha fut arqon oldi. Uning yo'li to'ppa-to'g'ri bo'lmasdan, bir oz balandlashib borardi, ammo bundan ham ko'ra uni qattiq shamol qiynardi. Ba'zan shamol quturib hujum qilib qolganda, Jerri dam u yoqqa, dam bu yoqqa chayqalib ketar va hatto orqaga ham burilib ketgan paytlari bo'lardi, bunday paytda u yuragini qo'rquvdan muzlab qolgandek his qilardi. Tros juda eski edi-da, axir... To'satdan shamol zarbindan yoki uning og'irligidan uzilib ketsa-chi?

Bu haqiqiy qo'rquv edi. Jerri ichining tatalab ketayotganiiii sezib turardi. Oyoqlarini bosibroq turishga quvvati qolmaganidan tizzalari dirillab qaltirardi.

Lekin Kichkina yo'lini mardona davom ettirdi. Tros eskirgan, titilib ketgan edi. Uning chiqib qolgan simlarining o'tkir uchlari bolaning qo'llarini qonatib yubordi. Jerri to'xtab, Spillenga qichqirmoqchi bo'lganda, qo'llaridagi og'riqni aniq his qildi. Ularning vagonetkasi uning pastida ko'rinish turgani uchun nima voqeа bo'lganini va o'zining nega bunaqa «sayohat» qilib yurganini tushuntira olishi mumkin edi.

– Xotinin butunlay o'zidan ketib qoldi, bo'lmasa jonim bilan yordamlashardim, – deb qichqir-

di Spillen. – Kichkina, ehtiyyotroq bo'l, ko'zingga qara! Bu ishni o'zim boshlagan edim, lekin endi bizni sendan boshqa hech kim qutqarolmaydi.

– Bari bir, men sizni bu holatda qoldirolmayman, – deb qichqirdi Jerri unga javoban. – Missis Spillenga aytingki, bir daqiqqa o'tmasdanoq narigi qirg'oqda bo'lasizlar.

Jerri sevalab turgan yomg'ir ostida joyidan chiqib ketgan mayatnik singari u yoqdan-bu yoqqa tebranib, kaftlari tilka-pora bo'lib, charchaganidan va og'zi-betiga o'tkir shamol urib turganidan hansirab, oxiri, bo'sh vagonetkaga yetib keldi.

Bunday qarab, bola behudaga shuncha azob chekmaganini angladi. Vagonetka ikkita g'ildirakcha ustida turardi, bu g'ildirakchalardan biri ko'p vaqt ishlamay yotganidan zanglab, trosdan chiqib ketgan va hozir o'z oboymasi¹ orasiga tiqilib qolgan edi.

Dastlab g'ildirakchani o'z halqasi orasidan chiqarib olish kerak edi. Bunda vagonetkani arqon bilan harakatsiz trosga mahkam bog'lab qo'ymasa, yiqitib ketishi mumkin edi.

Jerri vagonetkani o'n besh daqiqada bog'lab qo'yishga ulgurdi, uning qilgan ishi shu bo'ldi. G'ildirakli o'q bilan qo'shib turuvchi mixcha nihoyatda zanglab, qotib qolgan edi. Jerri bir qo'li bilan vagonetkadan ushlab turib, ikkinchi qo'li bilan zo'r berib, mixchaga ura boshladи. Shamol uni tez-tez itarib, chayqaltirib turganidan, harakatlarining ko'pchiligi mo'ljalga tegmasdan boshqa yoqqa ketaverdi. Butun harakatlarining o'ndan to'qqiz qismi o'z muvozanatini saqlab tu-

¹ Oboyma – halqa.

rishga sarf bo'lardi. Gayka kalitini tushirib yuborishdan qo'rqib, uni ro'molchasi bilan bilagiga bog'lab qo'ydi.

Yarim soat o'tdi. Jerri mixchani o'rnidan qo'zg'atishga muvaffaq bo'loldi, lekin tortib ololmadi. Katta xavfga yuzma-yuz borib, shuncha qilgan harakatlari bekorga ketgandek bo'ldi. Lekin daf'atan esiga bir fikr kelgandek bo'ldi. U cho'ntagini telbalarcha kavlab, o'ziga hozir juda kerak bo'lgan narsani – uzun yo'g'on mixni topdi.

Agar bir vaqtlar cho'ntagiga tushib qolgan shu mix bo'limganda, Jerri yana qirg'oqqa qaytib ketishga majbur bo'lar edi. U mixni o'qdagi teshikchaga tiqib, mixchani chiqarib oldi.

So'ngra u tros bilan halqa orasiga qisilib qolgan g'ildirakchani temir chiviq bilan g'ijirlatib torta boshladi. Keyin u g'ildirakchani eski o'rniga joylashtirdi va vagonetkani arqon bilan ko'tarib turib, qaytarib o'z o'rniga tushirdi. Shunday qilib g'ildirak yana metall tros ustiga o'rnashdi.

Biroq bularni qilishga ko'p vaqt ketdi. Jerri shu yerga yetib kelgunicha bir yarim soat vaqt o'tdi. Mana endi u o'z egaridan chiqib, vagonetkaga tushdi. Vagonetkani tutib turgan arqon bo'shatilgandan so'ng, g'ildirakchalar asta-sekin tros bo'ylab o'rmalab ketdilar. O'z vagonetkasi yura boshlaganda, Jerri qayerdadir, pastda, garchi ko'rmay turgan bo'lsa ham, Spillenlar tushgan vagonetkaning ham yura boshlaganini sezdi. Faqat bu vagonetka unga qarama-qarshi tomonga harakat qilardi.

Endi unga tormozning keragi yo'q edi, chunki o'zining butun ogirligi boshqa vagonetka ogirligi bilan bir xil muvozanatni saqlay olardi. Ko'p o'tmay

bulutlar orasidan baland qoyatosh, shitob bilan aylanayotgan o'sha eski tanish baraban ko'rindi.

Jerri yerga sakrab tushdi va o'z vagonetkasini bog'lab qo'ydi. U bu ishni qunt bilan shoshmasdan qildi.

So'ngra birdan haligi dovyurakligi ketgandek, jala va shamol urib turganiga qaramasdan baraban oldida, yerga o'zini otib yuborib, ho'ngrab yig'lay boshladi.

Buning sabablari ko'p: tilka-pora bo'lgan qo'llarining zirqirab og'rishi, behad charchash, bir necha soatlik asabiy tutqunlik va buning ustiga Spillenning xotini bilan narigi qirg'oqqa bexavotir o'tib olganidan paydo bo'lgan shodlik hissi va boshqalar edi.

Ular uzoqda edilar, shuning uchun unga minnatdorchilik bildirolmadilar, lekin u hozir ularning pishqirib oquvchi toshqin daryoning narigi tomonida, qayerdadir so'qmoqlar bilan Klover-Lifga shoshilayotganlarini bilardi.

Jerri gandiraklab uyiga yetib keldi. U eshikni ochayotganda, eshikning oppoq dastasi qonga belandi, lekin buni u sezmadni ham.

Bola magrur va o'zidan xursand edi. U to'gri ish qilganiga qattiq ishonardi. Hali ayyorlik qilish qo'llidan kelmaganidek, yaxshi ish qilganiga iqror bo'lishdan ham qo'rmas edi. Shu payt uning qalbida faqat bir istak tug'yon urardi: eh, qani endi otam shu yerda bolsa va buni o'z ko'zi bilan ko'rsa edi!

KISH HAQIDA QISSA

Bir zamonlar Qutb dengizi sohilida Kish degan kishi yashagan edi. U qabilada eng hurmatli kishilardan biri edi. O'lgunicha e'zoz-ehtiromda bo'ldi. Xalq uni juda hurmat qilar va nomi og'zlarda doston edi. U juda qadim zamonlarda yashagan, shuning uchun uning nomi qariylarning xotirasidagina saqlanib qolgan. Keksalar yoshliklarida Kishning qahramonliklari haqida eshitgan qissalarini endi bolalarga hikoya qilib berar, bu yoshlari ulg'aygach, o'z bolalariga, nevara va chevaralariga aytib berardilar. Shunday qilib, og'izdan-og'izga ko'chib, aytilib yuraveradi. Uzoq qish zulmati boshlanib, shimol shamoli tekis muzliklar ustida hukm surib, havo o'z zahrni to'kib turgan bir mahalda, hech qanday tirik jon tashqariga chiqolmay qolgan paytlarda, odamlar Kish haqida, ya'ni kichik bir hujrachada kun kechirib, keyin o'z xalqining qudratli yo'lboschchisi bo'lgan bola haqida hikoya eshitgani yig'ilishadi.

Qissada hikoya qilinishicha, Kish juda chaqqon, sog'lom va zo'r, o'n uch quyoshni ko'rgan bola edi. Shimol tomonlarda vaqtini quyosh nili bilan hisoblaydilar. Chunki har qish quyosh yerni zim-ziyo qorong'ilikda qoldirib ketadi, havo yana issiq bo'lishi va odamlar bir-birlarini ko'ra olishi uchun kelasi yil yangi quyosh tug'iladi.

Kishning otasi botir ovchi edi. U o'z xalqini ochlikdan saqlab qolish uchun bahaybat qutb ayig'i bilan olishaman deb halok bo'ldi. O'sha olishuv-

da dahshatli yirtqich uning suyaklarini majaqlab tashladi. Lekin ayiqdan ko'p go'sht chiqib, qishloq xalqi ochlikdan saqlanib qoldi. Kish dovyurak ovchining yagona farzandi edi, otasi o'lgach, Kish onasi bilan qoldi. Ammo insonning xotirasi zaif bo'lib, tezda hamma narsani unutib yuborardi, odamlar bu usta ovchining qahramonligini ham unutib yubordilar. Kish hali juda yosh, onasi esa ayol kishi bo'lib, odamlar ularni ham unutib yubordilar, ular kambag'allashib, o'z miskin kulbalida qolib ketdilar.

Ammo bir oqshom qabila boshlig'i Klosh-Kvanning hashamatli uyidagi katta bir kengashda Kish o'zining qanday yigit ekanini ko'rsatdi.

U kattalardek odob bilan o'rnidan turib, shovqin va tortishuvlarning tinishini kutdi.

– Rostini aytsam, – dedi u, – bizga ham o'z haqimiz tegadi. Lekin, ko'pincha, pishmaydigan qattiq va suyakli go'sht tegadi.

Sochlariqa oq tushgan ovchilar, shuningdek qiziqqon yoshlari ham Kishning gapiga hayron bo'lib qoldilar. Bu hech ko'rilmagan voqeal! Yosh bola kattalardek, bundan tashqari qayoqdagi gaplarni dangal gapiradi-ya!

Ammo Kish shoshilmasdan, gapini dadil davom ettirdi:

– Mening otam Bok ham katta ovchi bo'lgan. Nega bunday deyayotganimni tushungandirsizlar. Otamning uyiga ovdan manaman degan ovchining ikkitasi olib keladigan go'shtdan ko'p go'sht olib kelganini va bo'lishganda bukchayib qolgan kampir hamda munkillagan chol o'zining haqini to'g'ri olsin deb tekshirib turganini hamma biladi.

– Og'zingni yum! – deb baqirishdi o'tirgan erkaklar. – Haydab yuboringlar bu tirranchani! Borib uxlasin! Qariyalar bilan bu xilda gaplashishga hali yoshlik qiladi!

Bola indamay g'ala-g'ovurning bosilishini kutdi.

– Ug-Gluk, sening xotining bor, – dedi Kish, – xotining nomidan gapirasan. Sening ham, Massuk, yana onang ham bor, sen shular nomidan gapirasan. Mening oyimning esa mendan bo'lak hech kimi yo'q. Shuning uchun ham men gapir-yapman. Shuni aytishim kerakki, otam juda g'ayratli ovchi bo'lgani uchun halok bo'ldi. Demak, uning o'g'li va xotini Aykiga qabilada go'sht bo'lin-ganida tuzukroq go'sht olishga haqlidirmiz. Bokning o'g'li Kishning aytadigan gapi shu.

Kish o'tirib, norozi ovozlarga diqqat bilan quloq soldi.

– Yosh bola jur'at qilib kengashda gapiryapti! – deb to'ng'illadi Ug-Gluk chol.

– Bu nimasi, og'zidan ona suti ketmagan go'dak endi bizga aql o'rgatadimi?! – deb baqirib so'radi Massuk. – Nahotki, men, kap-katta odam go'sht yegisi kep qolgan bir tirranchaning beodobligiga chidab tursam!

O'tirganlarning g'azabi tobora qaynadi. Borib uxla, bo'lmasam umuman go'sht bermaymiz va beodobliging uchun boplab savalaymiz, deb baqirishdi. Bu so'zlarni eshitgach, Kishning jahli chiqib, qoni qaynadi. U o'rnidan dik etib turdi.

– Quлоq solinglar, og'alar! – dedi baland ovoz bilan Kish. – Bundan keyin kengashlaringda sira indamayman, toki o'zlarining kelib: «Kish, gapir, hammamiz iltimos qilamiz, gapingni eshitmoq-

chimiz», – deb yalinmagunlaringizcha gapirmayman. Bu mening so'nggi so'zim, eslarizingizda bo'l-sin. Otam Bok katta ovchi edi. Men ham ovga borib o'zimga go'sht topaman va shu narsa qulqlaringizda bo'l sinki, men olib kelgan go'sht odilon-na taqsim bo'ladi. Na beva-bechora va na go'dak-lar menga go'sht tegmadi, deb ertalabgacha ko'z yoshini oqizib chiqmaydi, zo'ravon erkaklar ham go'shtni ko'p yeb qo'yib, sahargacha inqillab yot-maydi. Birovning haqini yegan zo'ravoilarga uyat! Gapim tamom, vassalom.

Erkaklar ko'zlarini olaytirib, masxara qilib orqasidan kulib qolishdi. Kish esa tishini-tishiga qo'yib, o'ng-so'liga qaramay chiqib ketdi.

Ertasi Kish qirgoq bo'ylab, muzlik yer bilan to'qnashgan yerdan yo'nga tushdi. Kishni uning qo'lida yoy va bir qancha uchi suyaklik kamon o'q, yelkasida otasining katta ov nayzasi bilan ko'rdilar. Har kim har xil gapirib, kulib qolishdi. Rostdan ham bu hech ko'rilmagan voqeа edi. Hali shu damgacha ona suti og'zidan ketmagan bu-naqa tirranchalar ovga chiqmagan.

– Qaranglar, buning o'zi yolgiz ketyapti.

– Erkaklar boshlarini qimirlatib, buning oqiba-ti yomon bo'ladi der, ayollar esa Aykiganing g'am-gin yuziga achinib qarashardi.

– Tezda qaytadi u, – deb ayollar Aykigani ovut-moqchi bo'lishdi.

– Mayli, ovning mazasini tatib ko'rsin, bu unga yaxshi saboq bo'ladi! – deyishdi ovchilar. – Ovda ko'p yurolmaydi. Keyin yuvosh tortib, gapini bilib gapiradigan bo'ladi.

Oradan bir kun, ikki kun o'tdi, uchinchi kuni kuchli bo'ron ko'tarildi, Kishdan esa hamon da-

rak yo'q. Aykiga sochlarini yulib, qayg'u-alami-ning zo'ridan betiga qorakuya surkadi.

Ayollar bilib turib yosh bolani o'limga yubo-rishdi, deb erkaklarni koyishardi. Erkaklar indayolmay qolishdi, jasadni izlagani borish uchun bo'ronning tinishini kutishdi.

Biroq ertasiga ertalab Kish qishloqqa qaytib keldi, lekin sharmanda bo'lib qaytmadi. Yelkasi-da go'sht ko'tarib keldi. U viqor bilan qadam tashlar, kibr bilan so'zlardi:

– Hoy, odamlar, it va chanani olib izimdan yuringlar, – dedi Kish. – Kuni bo'yи yo'l yurishga to'g'ri keladi. Muz ustida sizlarni talay go'sht kut-yapti – bitta katta urg'ochi ayiq bilan ikkita ayiq bolasi.

Aykiga suyunganidan yig'lab yuborayozdi, lekin o'g'li onasini katta kishiday qarshiladi.

– Bo'ldi, onajon, bo'ldi, yurnig, ovqatlanaylik, keyin ozgina dam olaman. Juda charchaganman, – dedi Kish, uyga kirib ovqatlangach, rosa yigirma soat uxladi. Oldin uning so'zlariga ishonishmadi: har xil shubha va tortishuvga sabab bo'ldi. Oq ayiqni ovlash – juda qiyin. Agar ovchi jur'at qilib bolali ayiqni ovlagani chiqsa, hayoti xavf-xatarda qoladi. Odamlar Kishning bir o'zi shunday mo'jiza ko'rsatganiga sira ishonishmadi. Ayollar esa yangi so'yilgan ayiq go'shti olib kelganini o'z ko'zimiz bilan ko'rdik, deb qayta-qayta aytishdi. Ana shu har xil shubhalarga barham berdi. Xullas, ular yo'nga chiqishdi. Yo'lda, bu bola ov qilgan bo'lsa ham terisini shilish xayoliga kelmagandir, deb jahllari chiqib, to'ng'illab borishdi. Shimol tomonda darrandani o'dirgan zahoti shunday qilish

kerak. Agar shunday qilinmasa, go'shti muzlab qolib, eng o'tkir pichoqni ham sindirib yuboradi. Muzlab qolgan ayiqni chanaga ortib, shuncha yo'l bosib uyga qaytish oson emas. Koshki yo'l tekis bo'lsa. Ammo o'sha joyga yetib borgach ko'rishdiki, Kish terisini shilishgina emas, balki ikkala ayiq bolasini ham, urgochi ayiqni ham ovning qonun-qoidasiga binoan to'rt nimtaga bo'lib, ichak-chavag'ini olib tashlabdi.

Kishning sirli hayoti shunday boshlandi va bu sir kun sayin o'sib bordi. Keyingi safar u ayiq bolasini oldirdi. Yana bir safar bitta katta erkak ayiq bilan bitta urgochisini olib keldi. U ovga uch-to'rt kunga ketar, ba'zan haftalab qolib ketardi. Kish birga bormoqchi bo'lganlarga hamma vaqt yo'q deb turib olar edi, xalq hayron: «Bir o'zi qanday qilib eplar-kin-a? – deb bir-birlaridan so'rardilar. – Axir, it ham olib bormaydi, ovda it katta yordamchi».

– Nega sen hamma vaqt ayiq ovlaysan? – deb so'radi oxiri bir kun Klosh-Kvan.

Kish uning so'ziga oqilona javob qildi:

– Ma'lumki, ko'p go'sht qiladi.

Shunday bo'lsa ham qishloqda sehrgarlik haqidagi har xil mish-mishlar tarqaldi.

– Unga jinlar yordam beradi, – dedi ba'zilari baxillik qilib, – shuning uchun ham ovi o'ngidan keladi. Jinlar ko'maklashmaganida shu tirranchaning bir o'zi ovni eplarmidi!

– Balki jinlar emas, parilar yordam berayotgandir, – derdi boshqalari. – Axir, otasi yaxshi ovchi bo'lganligi hammaga ma'lum. Kim bilsin, balki otasining arvohi qo'llagandir, ovga chiqqanida unga ov san'atini o'rgatgandir.

Shundaymi yoki boshqachami, ammo Kishning ovi o'ngidan kelardi. Ov o'ljasini qilolmagan ovchilar Kishning o'ljasini qishloqqa olib kelardilar. Kish go'shtni juda odilona taqsimlardi. U ham otasidek, bukchayib qolgan kampir va tishsiz chollar o'z tegishlarini olsinlar, deb qattiq tekshirib turardi. U o'ziga yarashasinigina olib qolardi. Shundan so'ng odamlar uni hurmat qilib, ixlos qo'ya boshladilar. Ko'plar keksa Klosh-Kvandan so'ng Kishni qabila boshlig'i qilib saylasak chakki bo'lmasdi, deyishdi. U shunday zo'r qahramonliklar qildiki, yig'inlariga kelishini hamma intizorlik bilan kutdi. Kish yig'inga bormadi, chaqirgani ular ham uyaldilar.

– O'zimga yangi uy qurmoqchiman, – dedi u bir kuni Klosh Kvan bilan boshqa ovchilarga. – Onam bilan yayrabroq yashashimiz uchun kengroq uy qurmoqchiman.

– Xo'p, mayli, – deyishdi sipolik bilan ular.

– Qurgani hech vaqtim yo'q. Mening ishim ov qilish. Ko'p vaqtim ovga ketadi. Menimcha, qishlog'imizning erkak va ayollari menga bir uy qurib bersalar juda to'g'ri ish qilgan bo'lar edilar. Ovdan men olib keladigan go'shtlarni shular yeydi, axir.

Kishga shunday uy qurib berdilarki, u hatto Klosh-Kvanning uyidan ham keng edi. Kish onasi bilan yangi uyga ko'chib kirdi. Erining vafotidan so'ng bechora Aykiganing birinchi bor yayrab hayot kechirishi edi. Aykiganing ko'nglini ko'targan to'q hayotigina bo'lmay, qahramonligi bilan dong chiqargan ajoyib ovchining onasi bo'lgani uchun ham qishloqning oldingi xotinlaridan hisoblanardi. Qishloq xotinlari undan maslahat so'rab kelishar,

bir-birlari bilan yoki erlari bilan urishib qolgudek bo'lsalar, uning dono gaplarini ro'kach qilardilar.

Shunday bo'ssa ham Kishning ajoyib ovchilik siri hammani taajjublantirar, odamlar faqat shu haqda gapirishardi. Bir kuni hatto Ug-Gluk Kishni jodugarlikda ayblab, uning betiga:

– Aytishlariga qaraganda, ovda senga jinlar yordam berarmish, – dedi zahrini sochib.

– Olib kelayotgan go'shtlarim yomonmi? Yeganlardan biror kimsa kasal bo'lib qoldimi? Menga jodu yordam berayotganini qayerdan bilasan? Yoki o'zing o'ylab chiqardingmi? Alam qilayotgan ekan-da?! – dedi Kish.

Ug-Glukning sharmandasi chiqib jo'nadi. Xotinlar esa uning orqasidan kulib qolishdi. Ammo bir kuni yig'inda uzoq tortishgandan so'ng Kishni poylagani ikkita ayg'oqchi yuboradigan bo'ldilar. Shunday qilib, Kish ovga chiqqanida yosh va epchil ovchilardan Bim va Boun ehtiyyotlik bilan uning iziga tushishdi. Ular besh kundan so'nggina qaytib kelishdi. Ularning basharasidan hayron bo'lgani sezilib turar va ko'rganlarini tez aytib bermoqchiday ko'rinishardi. Tezda Klosh-Kvanning uyida kengash chaqirildi. Bim so'zga chiqdi.

– Og'aynilar! – deb so'z boshladi u. – Hammassi aytganlaringizcha qildik: Kishning orqasidan bordik. Sezib qolmasin deb, juda ehtiyyotlik bilan bordik. Bir vaqt, soat o'n ikki yarimlarda oldidan katta bir ayiq chiqib keldi. Nihoyatda katta edi...

– Juda ham katta edi, – deb Boun o'rtog'inining gapini bo'lib, o'zi gapira ketdi: – ammo ayiqning olishgisi yo'q edi. Qayrilib o'z yo'lida sekin keta-verdi. Biz qirg'oqdagi qoyalar orasiga yashirinib

olgan edik. Ayiq biz tomon kelar, shuning uchun ham hammasini aniq ko'rdik. Kish qo'rqlmay ayiqning ketidan bamaylixotir qadam tashlab kelardi. U jig'iga tegish maqsadida ayiqqa qarab qo'lini siltadi, vahimali qilib baqirdi. Ayiqning jahli chiqib, oldingi oyoqlarini ko'tarib, hayqirdi. Kish esa hamon ayiqqa qarab borardi.

– Shundog‘, – Bim so'zga qo'shildi, – Kish to'g'ri ayiqqa qarab borardi. Birdan ayiqning jahli chiqib, Kishga hamla qildi, Kish qocha boshladi va muz ustiga koptokday dumaloq bir narsa tashladi. Ayiq to'xtab, uni hidladi, keyin lo'qqa yutdi. Kish esa hamon yugurar va shu koptokka o'xshash dumaloq narsadan bir nechasini har yer, har yerga tashlab ketardi. Ayiq esa ularni yutib borardi.

Chor atrofda «ishonmaymiz», degan shivir-shivirlar eshitildi. Ug-Gluk tovushi boricha baqirib, bunday afsonalarga ishonib bo'lmaydi, dedi.

– Biz, axir, o'z ko'zimiz bilan ko'rdik, – dedi Bim.

– Ha, o'z ko'zimiz bilan, – dedi Boun ham. – Rostdan ham shunday bo'ldi. Keyin ayiq birdan tipirchilab, oyog'i bilan muzni urib bo'kirib yig'lay boshladi. Kish esa muz ustida hamon yugurardi. Endi ayiq Kishga parvo qilmay qo'ydi. U o'z qayg'usi bilan ovora edi. Chunki bu dum-dumaloq narsalar uning ichini tirnamoqda edi.

– Ha, ichini tilka-tilka qildi, – dedi Bim, – chunki u o'zini urar, sakrar, xuddi sho'xlik qilayotgan kuchukdek muz ustida dumalardi. Uning bo'kirib yig'lashidan va faryod qilishidan bu dumalashlar, sakrashlar o'yin emas, azob ekanligi, o'lim talvasidaligi ko'rinish turardi. Ayiqning bunday ahvolga tushganini birinchi ko'rishim.

– Ha, birinchi ko'rishim, – deb Boun ham qo'shib qo'ydi. – O'zi ham juda katta ayiq edi,

– Bo'limgan gap! – deb to'ng'illadi Ug-Gluk. O'z ko'zim bilan ko'rganimni gapirib beryapman, – dedi Boun. – Bir ozdan so'ng ayiq holsizlanib qoldi. Axir shunday katta narsa kuchi boricha sakrardi. So'ng kallasini sekin-sekin u yoq-bu yoqqa tebratib, dovdirab qirg'oq bo'ylab ketdi. Goho o'tirib olib ingrab yig'lardi. Kish esa orqasidan, biz esa Kishning orqasidan borardik. Kunimiz shu ahvolda o'tdi, yana uch kecha-yu uch kunduz yurdik. Ayiq bechora to-bora holsizlanar, og'riqning zarbidan ingrardi.

– Bu jodugarlik! – deb baqirdi Ug-Gluk. – Aniq, ayiqjni jodu qilgan ekan.

– Nima voqea yuz berdi deng...

Bim Bounning so'zini bo'lib, davom etdi:

– Ayiq dam oldinga, dam orqasiga qaytib, o'zi bosib o'tgan yo'lda aylanib, sanqib yuraverdi. Axiri Kish birinchi marta duch kelgan yeridan sal nariga borib qoldi. Endi u holdan toygan, zo'rg'a oyoq bosardi. Ana shunda Kish kelib uni o'ldirdi.

– Undan keyin-chi? – deb so'radi Klosh-Kvan.

– Undan keyni Kish ayiqning terisini shilayotganda Kishning ov qilish usulini sizlarga gapirib bergani bu yoqqa qarab kelaverdik.

– Kechqurun ayollar chanalarga bosib, terisi shilinib nimtalangan katta ayiqning go'shtini olib keldilar. Erkaklar esa hamon kengashda edilar.

Kishostonaga qadam qo'yib, uyiga kirganicha ham yo'q ediki, kelib uni kengashga taklif qildilar. Ammo Kish:

– Juda charchaganman, qornim och. Yaxshisi, o'zlarin kelinglar. Uyim keng, hammalarin ham sig'asizlar, – deb javob qildi.

Uni qarangki, Kłosh-Kvan boshliq hamma o'rni-dan turib, Kishning uyiga yo'l olishdi. Kish ovqat-lanayotgan edi. U o'rnidan turib, hurmat bilan hammani, odatga muvofiq, yoshiga qarab o'tqazdi.

Kłosh-Kvan Bim va Boun aytganlarni birma-bir takrorlab, so'zining oxirida Kishga:

– Kish, qanday qilib ayiq ovalashingni gapirib berishingni so'raymiz. Rostini ayt, balki jodu ish-latayotgandirsan? – dedi.

Kish uning basharasiga qarab kulib qo'ydi.

– Ey, Kłosh-Kvan! – dedi u. – Yosh bola joduni qayerdan bilsin! Jodugarlik bolalarning ishimi? Bunday narsalarni bilmayman. Oq ayiqni osonlik bilan ovalash yo'llini topdim, xolos. Bo'lgan gap shu. Bu ishni jodugarlik bilan emas, aql bilan qildim.

– Bu hammaning ham qo'lidan keladimi?

– Hammaning qo'lidan keladi.

Shundan so'ng uy ichini sukunat bosdi. Erkak-lar hayron bo'lib bir-biriga qarashdi. Kish esa parvo qilmay ovqatini yeyaverdi.

– Sen... sen shu siringni bizga aytib bera ola-sanmi? – so'radi axiyri Kłosh-Kvan duduqlana-du-duqlana.

– Yaxshi. Aytaman. – Kish tozalab o'tirgan ke-mik suyakii qo'yib o'rnidan turdi: – Juda ham oddiy. Qaranglar!

U kit mo'ylovini olib hammaga ko'rsatdi. Mo'y-lovning uchlari ignadek uchlik edi. Kish haligi mo'ylovni dumaloq qilib hovuchladi, keyin hovu-chini ochdi. Kit mo'ylovi birdan yoyilib ketdi. Kish kit yog'idan bir bo'lagini qo'liga oldi-da:

– Mana, – dedi u, – kit yog'idan mana shunday bir bo'lagini olib yumshatasan va ichini chuqur qilib kit mo'ylovini joylaysan. Ustidan yana ozgi-

na kit yog'idan surtib bekitasan. Keyin tashqariga olib chiqsang, kichkina yumaloq muz hosil bo'ladi. Ayiq uni yutib yuboradi, uning qornida yog' eriydi, kit mo'ylovi ichiga sixday qadalib, ayiqning holi yomonlashadi. Uning ko'ziga hech narsa ko'rinxay qolganda, sen yaqin borib yoy bilan otib o'dirasan. Mana, ko'rdingmi, juda jo'n.

– O-o!.. – dedi Ug-Gluk.

– A-a!.. – dedi Klosh-Kvan.

Keyin hamma ham dilidagini gapirib berdi. Shunday qilib, hammalari bir-birlariga tushunishdi.

Bir zamonalr Qutb dengizi sohilida yashagan Kish haqidagi qissa ana shunday. Kish, kambag'al bir bola, jodugarlik bilan emas, aql bilan ish qilganligi uchun ham qishlog'inining eng obro'li, eng oldingi kishisiga aylandi. Uning qabilasi uzoq yillar farovon hayot kechirdi. Uning davrida na tul xotinlar, na ojiz bolalar go'sht tegmadi deb tuni bo'yi ko'zlarining yoshini to'kmaydigan bo'lishdi.

MUNDARIJA

Adabiyotdan halovat topgan ijodkor (So'zboshi o'mida).....	3
Bo'ri o'g'li (<i>Hikoya</i>)	
<i>Ingliz tilidan Gulhayo Mahamadaliyeva tarjimasi</i>	5
Hayot qonuni (<i>Hikoya</i>)	
<i>Rus tilidan Gulnoz Mo'minova tarjimasi</i>	31
Men anglagan hayot (<i>Esse</i>)	
<i>Ingliz tilidan Qandilat Yusupova tarjimasi</i>	43
Oq sukunat (<i>Hikoya</i>)	
<i>Rus tilidan Gulnoz Mo'minova tarjimasi</i>	62
Hayotga muhabbat (<i>Hikoya</i>)	
<i>Rus tilidan Saidjalol Saidmurodov tarjimasi</i>	78
Tun farzandi (<i>Hikoya</i>)	
<i>Rus tilidan Saidjalol Saidmurodov tarjimasi</i>	106
Oqsoqollar ittifoqi (<i>Hikoya</i>)	
<i>Rus tilidan Saidjalol Saidmurodov tarjimasi</i>	127
Sakramento qirg'oqlarida (<i>Hikoya</i>)	
<i>A.Eshonqulov tarjimasi</i>	149
Kish haqida qissa (<i>Hikoya</i>)	
<i>A.Rajabova tarjimasi</i>	163

JEK LONDON
MEN ANGLAGAN HAYOT

Esse, qissa va hikoyalar

Muharrir
Feruza QUVONOVA

Musahhih
Madina MAHMUDOVA

Badiiy muharrir
Nigora UMARQULLOVA

Sahifalovchi
Sunnat MUSAMEDOV

Texnik muharrir
Umidbek YAXSHIMOV

Litsenziya raqami: AI № 252, 2014-yil 2-oktabrda berilgan.


Bosishga 2017-yil 27-martda ruxsat etildi.
Bichimi 84x108 1\32.

Bosma tobogi 11,0. Shartli bosma tobogi 18,48.
Garnitura «Bookman Old Style».
Adadi 10000 nusxa. Buyurtma № 63/101.
Bahosi kelishilgan narxda.

«Yangi asr avlodi» NMM da tayyorlandi.
«Yoshlar matbuoti» MCHJ da chop etildi.
100113. Toshkent, Chilonzor-8, Qatortol ko'chasi, 60.

Murojaat uchun telefonlar:

Nashr bo'limi - (78) 147-00-14; (78) 129-09-72;
Marketing bo'limi - (98) 128-78-43; (93) 397-10-87
faks -(71) 273-00-14;
e-mail: yangiasravlod@mail.ru veb-sayt: www.book.uz



O'n besh yoshimdayoq hayotning achchiq-chuchugini tatib ko'rgan edim. Mana, yoshim o'ttizdan oshibdiki, qaytadan o'smirga aylanib qolishni istayman, negaki o'smirlik lazzatlaridan bahramand bo'lisl menga nasib etmagan. Hayotga ham minba'd avvalgiday jiddiy qarolmayman. Yana kim biladi deysiz, balki o'sha umr bahoriga yana duch kelib qolarman! Hayotda eng muhimi mas'uliyat ekanini aqlimni taniganimdayoq tushunib yetgandim. Xat-savodim qanday chiqqanini eslay olmayman. Ammo besh yoshimdayoq o'qish va yozishni bilar'dim. Ilk bor maktab ostonasiga qadam qo'yganim hali-hanuz ko'z o'ngimda. Keyin biz ranchoga ko'chib o'tdik va men, sakkiz yashar bolakay o'zimni qora mehnatga urdim...



www.book.uz
Onlays kitob do'koni

ISBN 978-9943-27

9 789943 279